11

(2- qism)

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
11- sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan

ONA TILI

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2020

UO‘K 811.512.133(075.32)
KBK 74.263
T 44

Tuzuvchilar:

BAXTIYOR MENGLIYEV, SHAROFAT TOSHMIRZAYEVA,
SAODAT ATOYEVA, SAIDA MAJIDOVA

Mas’ul muharrir

G‘OFIR HAMROYEV – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Taqrizchilar:

DILOROM YO‘LDOSHEVA – *Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

NARGIZA ERGASHEVA – *Farg‘ona viloyati Quva tumani 62- ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktab-internati ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

GULNOZA XOLDOROVA – *Namangan viloyati XTBga qarashli 21- Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internat ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Ekspertlar guruhi:

R. EGAMBERDIYEV – *Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 22- umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

X. ZIYOXONOV – *Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti katta o‘qituvchisi*

SHARTLI BELGILAR

– o‘qing

– tinglang

– gapiring

– yozing

– fikrlang, mulohaza bildiring

– bilib oling

– uyga vazifa

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-22-460-5

© B. Mengliyev va b.
© „O‘qituvchi“ NMIU, 2020

I FASL. *TALAFFUZ VA IMLO ME'YORLARI*

1-mavzu. TALAFFUZ VA IMLO

1.1-mashq. Matnni tinglang. Matn nihoyasida berilgan so‘zlarning talaffuziga e’tibor qarating va eslab qoling.

FASOHAT GULSHANI

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Alisher Navoiy istiqomat qilgan uy „Unsiya“ deb atalib, o‘z davrida chin do‘stlar, ijod ahli, ustoz va shogirdlar uchun dilbar suhbatlar oshyoni, ezgulik, xayr-u ehson hamda ilm-ma’rifat maskani bo‘lgan. Ahli toliblar kamoloti uchun u zot bunyod etgan madrasalardan biri „Ixlosiya“ deb yuritilgan. Hazrat mangu qo‘nim topgan „Musallo“ maydoni esa ezgu niyatlar, xayrli duolar qilinadigan pok ko‘ngillar sajdagohi sifatida ma’lum va mashhurdir.

Buyuk bobokalonimiz nomlari bilan atalguvchi Milliy bog‘imiz ichra, hazrat siymosi nur taratib turgan muazzam go‘shada bunyod etilgan „Adiblar xiyoboni“ bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yangi oq va ko‘rkam binosiga boqib, faxr va shukronalikda ko‘ngildan ezgu niyatlar o‘tdi.

Bu go‘shakim, dil bahr olar, muanbar ziyoratgoh bo‘lgay,
Sohibkim hazrat Navoiy, demakkim, saodatgoh bo‘lgay,
Misli „Musallo“dek ahli ko‘ngilga sajdagoh bo‘lgay,
Bunga pok qalb-la kelganlar anga o‘zi guvoh bo‘lgay.

Bul Adiblar xiyoboni – ko‘ring, qanday nurxonadur,
Mudom bahor yashnab turgan Bog‘i Eram, gulxonadur,
Ayvonida Hazrat duo qilib turgan pirxonadur,
Pok ko‘ngillar nur sochguvchi munavvar saylgoh bo‘lgay.

Axir Hazrat ul marhamat nigohi-la boqib turar,
Bir inoyat gulistoni har bir qalbni yoqib turar,
Botin ichra so‘z ummoni misli qondek oqib turar,
Bunda ash’or aytgan dilga bulbullar xayrixoh bo‘lgay.

Davr nizomin adl etgan zot azmin Haq ham qo‘llagay,
Davron eli duosiga monandi ijobat yo‘llagay,
Ko‘ngillarda so‘z gullasa, jism-u jon, Vatan gullagay,
Odamiy orzumand elga bu joy bir sajdagoh bo‘lgay!

(*Minhojiddin Mirzo)*

Tavsiya etilgan so‘zlar: *„Unsiya“, istiqomat, oshyon, botin, ash’or, xayrixoh, „Bog‘i Eram“, muanbar, saodatgoh, „Musallo“, shukronalikda, qo‘llagay.*

Hazrat Alisher Navoiy abadiy qo‘nim topgan „Musallo“ maydoni va Toshkent-dagi „Milliy bog‘“da tashkil qilingan „Adiblar xiyoboni“ o‘rtasida qanday bog‘liqlikni ko‘ryapsiz? Fikringizni she’r misralariga tayanib izohlang.

1.2- mashq. Ikki guruhga bo‘lining va: a) talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imloda aks etmaydigan; b) yozilganidek aytilmaydigan (o‘qilmaydigan) so‘zlarni aniqlang.

Nazariy matn

Nutqda ikki xil so‘z tovush o‘zgarishiga uchrashi mumkin:
- o‘zlashma so‘zlar;
- o‘z tilimizdagi qo‘shimcha qo‘shilgan so‘zlar.

Ko‘pgina o‘zlashma so‘zlar asos holatida talaffuzi va imlosi jihatdan farqlanadi: *kitob – kitop*, *vaqt – vaxt*, *futbol – fudbol*, *iqtisod – ixtisod*, *baland – balant*, *go‘sht – go‘sh*. Bu tovush o‘zgarishi o‘zbek tili imlo qoidalariga ko‘ra yozuvda aks ettirilmaydi.

O‘z tilimizdagi ayrim so‘zlarda esa qo‘shimcha qo‘shilishi bilan tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Bu o‘zgarishlarning ayrimlari yozuvda aks etadi (*yosh – yasha*, *ong – angla*), ba’zilari esa talaffuz qilinganiday yozilmaydi (*bog‘ – boqqa – bog‘ga, bor – boripti – boribdi*).

Demak, o‘zlashma so‘zlardagi tovush o‘zgarishlarida ham, o‘z qatlam so‘zlaridagi qo‘shimcha qo‘shilganda yuz beradigan tovush o‘zgarishlarida ham imloda yozuvda aks etadigan va yozuvda aks etmaydigan holatlar mavjud.

O‘z qatlam so‘zlarining asos holatida tovush o‘zgarishi yuz bermaydi.

1.3- mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Qaysi qatordagi o‘zlashma so‘zlar to‘g‘ri yozilgan?

A. Komoloti, „Unsiya“, sayilgoh, ilm-u ma’rifat, „Musallo“.

B. Muambar, kamoloti, „Ihlosiya“, oshyon, shukuronalik.
C. Bog‘-i Eram, hayrixoh, ash-or, oshyon, munavvar.
D. Muanbar, kamoloti, shukronalik, „Ixlosiya“, saylgoh.

2. Qaysi gapning mazmuni fikrlar zanjiridan uzilib qolgan?

A. „Alisher Navoiyning kelib chiqishi baxshilarga borib taqaladi. Otasini „Kichkina baxshi“ deyishgan“. (*Rashidiy*)

B. „Garchi oliy hazratga o‘zidagi tab’ quvvati va qobiliyati ko‘pligi jihatidan har ikki nav, ya’ni turkiy va forsiy she’rlar muyassar bo‘lsa-da, uning tab’i(ning) moyilligi forschadan ko‘ra turkichada ortiqroq edi“. (*Xondamir*)

C. „Ul zot Chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi“.
(*Hasan xoja Nisoriy*)

D. „Hech kim turkiy she’rni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan“. (*Hakimshoh Qazviniy*)

1.4- mashq. Berilgan so‘zlardan talaffuzi va imlosi moslarini aniqlang.

Namuna: admiral, parta, ...

Admiral, novvoy, domino, kross, parta, divan, sport, memuar, zamon, somon, biyobon, pomidor, idrok, xushxabar, snayper, premyera, boldoq, soddadil, ayrim, yig‘loqi, kamomad, shavkat, saodat, muomala, boloxona.

1.5- mashq. „*Bu so‘z bizniki*“ musobaqasini tashkil qiling. To‘rt guruhga bo‘linib, „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ yordamida o‘zlashma so‘zlarni kelib chiqishi qaysi tilga mansubligiga ko‘ra jadvalga joylashtiring. Har bir guruhdagi so‘zlarda nutqning qanday xususiyatlari namoyon bo‘lganini izohlab bering.

Kitob, maktab, mutolaa, lag‘mon, samolyot, paroxod, san’at, abadiy, qal’a, anor, nodon, palto, stol, darvoza, dasturxon, siyoh, choy, shiypon, tank, shtab, soldat, futbol, smartfon, barg, oftob, taraqqiyot, tamaddun, mo‘ysafid, tonna, tuxum, logistika, megapolis, manti, mahalla.

Arabcha so‘zlar	Fors-tojikcha so‘zlar	Xitoycha so‘zlar	Rus tili orqali kirib kelgan so‘zlar

1.6- mashq. Matn bilan tanishing. „*Bu so‘z bizniki*“ musobaqasini tashkil qilib, talaffuzi va imlosi mos so‘zlarni aniqlab yozing. Ustoz shoirning xijolatli ahvolga tushgani sababini izohlang.

Bir kuni Mirtemir domlaning uyiga bordim. Domla o‘zbek adabiyotini juda yaxshi biladigan, zukko odam edi. Suhbat asnosida kabinetiga kirganimizda kitob javoning ko‘zga yaqin yerida Pushkin, eng chekkada esa hazrat Navoiyning suratlari turardi. Shunda men ajablanib: „Bu qanaqasi bo‘ldi, domla, vatanparvarligingiz qayerda qoldi? O‘zbekning daho shoirini bir chekkaga surib qo‘yibsiz“, – dedim. Domla bir necha soniya sukut saqlab turdi-da, keyin jilmaygancha: „Men Pushkinga qarashga uyalmayman, chunki uning hayoti va ijodini o‘rganganman. Hazratga qarashga esa uyalaman, sababi u kishining ijodini aql bilan ham, qalb bilan ham anglab yetganimcha yo‘q“, – deb javob qildi.

Mana shu gaplarni taniqli navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetovga aytganimda u kishi: „Garchi men butun umrimni Navoiy ijodini o‘rganishga baxshida etgan bo‘lsamda, bu ummon tubiga yetolgan emasman“, – dedi. (*E.Vohidov*)

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. O‘zlashma so‘zlar talaffuzi qanday xususiyatlarga ega?
2. O‘zlashma so‘zlar talaffuzining imlosidan farqlanishi qanday tarixiy asoslarga ega?
3. Talaffuz va imlo munosabati turli nutq uslublarida qanday aks etadi?
4. Quyidagi matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning talaffuzi va imlosini izohlang. Sabablarini tushuntiring.

Mamlakatda urush boshlandi! Ho‘l-u quruq baravar yondi!

Ayniqsa, **Girmon** degani **Maskov**ga yetib qolganda yoppasiga „Ol-a ol“ boshlandi. Uljon momo tun-u kun duo qiladigan bo‘lib qoldi: „Xudoyo, Zokirjonimni olma! Bittagina o‘g‘limni olsang, men qanday qilaman?“ Ammo hukumat Uljon momoning duosiga qararmidi? Maskovni nemis olaman deb turganda birovning bolasi bittaligiga qarab o‘tirarmidi? **Istalin** „Yo g‘alaba, yo o‘lim!“ deb turganda, hukumat odam ajratarmidi?

... Endi Uljon momo Dilmurodni poylaydigan bo‘lib qoldi:

– Huv Dilmurod **po‘shta,** Zokirjonimdan xat-xabar bormi? Bolaginam Girmonni yer tishlatib qaytadi, **kamandirlari** zo‘r **medol** beradi hali. Nasib bo‘lsa, ko‘chani to‘ldirib keladi, momoginang aylansin sendan! *(K. To‘xtamurod)*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1.1- topshiriq. Internet manbalaridan foydalanib, adabiyot sohasida Davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan uch nafar shoir va yozuvchilar haqida ma’lumot yig‘ing.

1.2- topshiriq. To‘plagan ma’lumotlaringiz asosida audiomatn tayyorlab, sinfdoshlaringizga eshittiring.

2-mavzu. NUTQDA O‘ZGARUVCHI UNLILAR

2.1-mashq. Matnni ajratilgan so‘zlarning talaffuziga e’tibor qilib o‘qing. Matnga mos sarlavha tanlanganmi? Siz qanday yechim ko‘rsatgan bo‘lar edingiz?

KO‘RNAMAK

Jahonga mashhur Xusrav davrida shohlar yeydigan **ba’zi** bir **taom**larni **fuqaro**ning yeyishi man qilingan, agar o‘sha taomni qora xalqdan biror kishining yegani **ma’lum** bo‘lib qolsa, qattiq jazolanar ekan. Bir odam podshohga yaqin **yasovul**ni mehmon qilibdi va uning oldiga hukmdorlar **yeydigan** anvoyi taomlarni keltirib qo‘yibdi. Yasovul bu uydan chiqishi bilanoq **qog‘oz**, qalam olib, men falon kishining uyida mehmon bo‘ldim, dasturxonga shohlarga xos **anvoyi** taomlarni keltirib qo‘ydi, **azbaroyi** hazrati oliylariga ixlosim baland bo‘lgani uchun bu hodisani ma’lum qilyapman, deb yozibdi.

Xusrav qog‘ozning **orqa**siga shunday **javob** yozibdi: „Bu **qilmish**ing uchun senga aytadigan arzon tahsin – ofarinim yo‘q, ammo u odamni podshohlar yeydigan taomni pishirgani uchun emas, balki yomonlikni **ravo** ko‘radigan **ko‘rnamak**ni mehmon qilgani uchun **jazolayman**“. *(„Adolat tarozisi“dan)*

2.2-mashq. Ikki guruhga bo‘linib: a) aytilganidek yozilmaydigan unli tovushlari mavjud; b) aytilganidek yoziladigan unli harflari mavjud so‘zlarni aniqlab, daftaringizga yozing.

„Shashmaqom“, kulgi, andaza, chavandoz, gulzor, otameros, ajabtovur, trotuar, bahavo, o‘g‘irlamoq, kavush, to‘polon, mumiyo, quyosh, televideniye, supurgi, toyg‘anmoq, orbita, huriliqo, ibtido, faoliyat, ho‘plam, naqarot, mug‘ambir, kovatok (tok bargiga qiyma va guruch o‘rab pishirilgan taom), avtomobil, ginakudurat, kibernetika, aftodahol, bahodir, dafina, eskalator, fotografiya, kukkulamoq, mumkin, pantomima, qiyqirmoq, tavoze, muolaja, yugurmoq.

Nazariy matn

Adabiy tilning og‘zaki nutq va yozma nutq me’yorlari farqlanadi. Ilmiy asoslangan adabiy til me’yorlarida talaffuz va imloning qat’iy qoidalari mavjud. Og‘zaki nutqda ayrim unli harflar yozilganidan boshqacha talaffuz qilinadi: *kompyuter – kampyuter, mobil – mabil, kino – kiyno*. Bunday so‘zlardagi unli harflarni matnlarda yozilganidek talaffuz qilish og‘-

zaki nutq me'yorlaridan chetga chiqish sifatida baholanadi. Shuningdek, ba'zi unli tovushlar esa aytilganidek yozilmaydi: *boho* (talaffuzda) – *baho* (imloda), *unuqqan* (talaffuzda) – *uniqqan* (imloda), *partret* (talaffuzda) – *portret* (imloda). Ammo *vahshiy*, *falokat*, *ravshan* so'zlarini *voxshiy*, *polakat*, *rovshan* deb talaffuz qilish yoki qanday aytilsa, shunday yozish to'g'ri emas.

Og'zaki va yozma nutqdagi bunday muammolarga duch kelganda „O'zbek tilining talaffuz lug'ati", „O'zbek tilining imlo lug'ati"ga asoslanish kerak.

2.3- mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Berilgan gapdan talaffuzida unli tovush tushib qoladigan, bu o'zgarish esa yozuvda aks etadigan so'zni aniqlang: *Odamning himmati va muruvvati uning muomalasi, qo'lidan kelgan ishlari, yaratuvchiligi barobarida qadrlanadi. (Yusuf Xos Hojib)*

A. Odam.
B. Muomala.
C. Qadrlanadi.
D. Muruvvat.

2. Qaysi qatordagi fikr „*Ko'rnamak*" hikoyatining xulosasi bo'la oladi?

A. Savobi oshkoradan gunohi pinhona afzal.
B. Savobning tagi teshik.
C. Mehnatsiz rohat bo'lmas, savobsiz – jannat.
D. Tuzini yeb, tuzlug'iga tupurma.

2.4- mashq. Boshqotirmada gap qaysi o'yin turi haqida ketayotganini matndagi ajratilgan birikmaga tayanib, rasmlar orasidan toping va shu so'zdagi unli tovushlar talaffuziga diqqat qiling. Topilgan so'zning ma'nodoshida unlilar qanday talaffuz qilinadi?

XI asrda yashagan Xalifa al-Ma'mun shunday degan ekan: *„Men dunyoning Sharqda Hindistondan G'arbda Andalusiyaga qadar cho'zilgan hududiga hukmdor bo'lishimga qaramay,* ***ikki tirsak orasidagi masofaga*** *eplab hukmronlik qilolmayman".*



2.5-mashq. Talaffuzi va imlosi bir xil so‘zlarni aniqlab, ular ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

O‘tov, alanga, tomosha, prujina, qulduramoq, tutun, mevafurush, uzangi, uchqun, munchoq, parashut, mineral, oyoqyalang, ovunmoq, turtinmoq, jo‘shqin, kometa, kuldirgich, mashg‘ulot, palata, suyulmoq.

2.6-mashq. Matnni o‘qing. Undagi talaffuzi va imlosi nomuvofiq so‘zlarni aniqlang. O‘z xulosangizni bir jumlada ifoda qiling.

O‘rmon mudhish tezlikda yonardi. Kichkinagina chumchuq yo‘lidagi daryodan panjalari bilan suv olib, o‘rmon ustiga uchdi va tag‘in daryoga shoshdi.

O‘rmonning yonishini ilojsiz kuzatib turgan hayvonlardan biri baqirdi:

– Hoy, o‘rmonni bir tomchi suv bilan qutqarasanmi?

Chumchuq javob berdi:

– Mening qo‘limdan keladigani shu… *(R. N. Guntekin)*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun aytilganidek yozilmaydigan unli tovushlar va yozilganidek aytilmaydigan unli harflar „aldoqchi tovushlar“ deb yuritiladi?

2. *Mumkin*, *muhim*, *tuyilmoq* kabi so‘zlarda ikkinchi bo‘g‘indagi „*i*“ unlisining „*u*“ga moyil aytilishini izohlang.

3. Berilgan fikrga o‘z munosabatingizni bildiring. Matndan imlosi va talaffuzi nomuvofiq so‘zlarni aniqlab yozing.

Agar baxt-saodat istasang, g‘urur, manmanlikdan yiroq bo‘l, hikmatli so‘zlarni sokinlik va itoat bilan tingla, takabburlik, adovat va qanoatsizlikdan hazar qil. Qayg‘u-alamlar ustingga hujum qilsalar, bu hujumlarga o‘z odobsizliging sababchidir. *(J. Rumiy)*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

2.1-topshiriq. „*Tavallud kuning bilan tabriklayman!*“ mavzusidagi tabrik nutqi musobaqasiga yozma matn tayyorlang.

2.2-topshiriq. Tabrik nutqini videoyozuv ko‘rinishida namoyish qiling.

3- mavzu. NUTQDA O‘ZGARUVCHI UNDOSHLAR

3.1- mashq. Matnni ajratilgan so‘zlarning talaffuziga e’tibor qilib o‘qing.

SABRLIGA TOLE YOR

Odob xazinasini yuragiga joylagan bir yigit bor edi. U o‘z baxtini topolmay, bir necha **vaqt** sarson-sargardonlikda yurdi. Nihoyat, baxti chopib, saroy vazirlaridan birining xizmatiga kirdi. Afsuski, bu xonadon ahli yigitga adolatsiz munosabatda bo‘lardi. **Qiyinchilik** azobiga **qanchalik** bardosh bermasin, biror **foyda** ko‘rmadi. Qorong‘i tunlarni esa og‘ir xayollar bilan o‘tkazdi.

Kunlardan bir kun bog‘da sayr qilib yurgan Anushervon o‘z mulozimlaridan: „Eng muloyim narsa nima?“ – deb so‘radi. Birov: „**Momiq**“, – deb javob berdi. Birov: „**Tovuq** patlari“, – dedi. Yana birovi esa: „Shoyidan muloyimroq narsa nima bo‘lishi mumkin?“ – dedi. Shu **paytda** haligi yigit saroyga yaqin yerda ishlayotgan edi. U mulozimlarning javobidan Anushervonning **ko‘ngli** to‘lmaganini ko‘rib, so‘zlashga ruxsat so‘radi. Ijozat bo‘lgach, dedi:

– Eng muloyim narsa tinchlikdir.

Anushervon javobdan qoniqdi va yana so‘radi:

– Inson **qalb**iga nima huzur bag‘ishlaydi?

– Muruvvat va **shafqat**, – javob berdi yigit.

Yana savol berdi:

– Qachon xotirjamlikka erishish mumkin?

– **Sabr** va qanoat bilan.

– Gullarning ichida eng xushbo‘yi qaysi?

– Ota-ona **tirikligida** ularni xursand qiladigan, vafotlaridan **keyin** esa ularning nomlarini boqiylashtiradigan hayot guli bo‘lmish – **farzand**“, – deb **javob** berdi yigit.

Anushervon yigitni **taqdirladi** va o‘z vazirlari qatoriga oldi.

Darhaqiqat, bir olim shunday degan ekan: „Tabiatingizda sabr-qanoat qanday namoyon bo‘lishini bilasizmi? Faqat hayot go‘zalligini ko‘ra oladigan ko‘zlaringiz, yomonliklarni kechira oladigan ko‘nglingiz, yaxshiliklar haqida tafakkur qiladigan aqlingiz, orzularingizni izhor qila oladigan qalbingiz borligi sizdagi shukronalik va sabrning mujassamidir“. *(„Hikoyalar_sarasi“ telegram kanalidan)*

3.2- mashq. Matn yuzasidan topshiriqlar.

1. Anushervonning har bir savoli va yigitning har bir javobini sharhlashga harakat qiling. 2. Matn xulosasidagi bir olim tomonidan aytilgan fikrni qay darajada tushundingiz? Fikringizni asoslab bayon qiling.

3.3- mashq. Yozilganidek aytilmaydigan undosh harflari mavjud so‘zlarni aniqlang va daftaringizga yozing.

Ertalab, muzlatkich, suzmoq, volida, afv, afg‘on, guvullamoq, ilhom, shafqat, xushnud, maza, fasl, bunyod, islohot, avtobus, qirq, ijtimoiy, paxta, baqirmoq, izquvar, majbur, yarqiramoq, loyiq, jonbozlik, olmos, cho‘qqi, metall, beshik, olti, idrok, bahor, pichoq, savol, fursat, marvarid, zavod, iztirob, she’r, jurnal, kongress, tavakkal, ko‘rinmoq, kilovatt, tong, axborot, daromad, poyezd, qo‘ng‘iroq, suvoq, e’tiqod, ulug‘, ravnaq, ko‘ngil, sochmoq, belbog‘.

Nazariy matn

Adabiy tilda barcha so‘zlar aytilganidek yozilsa edi, bir so‘zning o‘zini ham turlicha yozishga to‘g‘ri kelar, natijada imloni tartibga solib bo‘lmas, savodsizlik kuchayib ketar edi. Shuning uchun amaldagi talaffuz va imlo qoidalariga ko‘ra ayrim undoshlarning ham talaffuzi va imlosi mos farq qiladi. Og‘zaki nutqda ayrim undosh harflar yozilganidan boshqacha talaffuz qilinadi: *masxaraboz – masxaravoz, shanba – shamba, pedagog – pedagok.* Og‘zaki nutqdagi *ixtisod, shoshilip, ketti* so‘zlarini *iqtisod*, *shoshilib*, *ketdi* shaklida yozish lozim. Bu talaffuz, albatta, noto‘g‘ri emas. Ammo imloda so‘zlardagi bu undoshlarning qanday yozilishi imlo qoidalari va lug‘atlarda me’yorlashtirilgan.

3.4- mashq. *„Sabrliga tole yor“* matni asosida testni yeching.

1. Hikoyat mazmuniga aloqador bo‘lmagan fikrni toping.

A. Sabr qilgan moy oshar,
Olqish olgan ko‘p yashar.

B. Odob bilan baxt topilar,
Sabr bilan – taxt.

C. Kamoli imon – sabr.

D. Sovun kirni ochar,
Sabrsiz – sirni.

2. Matndan asosga qo‘shimcha qo‘shilganda tovush o‘zgarishi yozuvda aks etgan so‘zlarni belgilang.

A. Yuragiga, ko‘ngli, ahli, xotirjamlik, to‘lmaganini
B. Yuragiga, muloyimroq, shunday, bag‘ishlaydi, go‘zalligini
C. Yuragiga, shunday, ko‘ngli, borligi, go‘zalligini
D. Yuragiga, ishlayotgan, tinchlikdir, go‘zalligini, borligi

3.5- mashq. Berilgan so‘zlarni ikki ustunga ajratib, birinchi ustunga talaffuzi va imlosi bir xil so‘zlarni, ikkinchi ustunga qo‘shimcha qo‘shilganda tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladigan so‘zlarni yozing.

Yorug‘lik, tuz, to‘g‘ramoq, aylana, darz, javon, qush, matonat, yordamlashmoq, quvvat, baralla, metr, tortinmoq, kofe, kamxarj, buromad, taqiqlamoq, qasd qilmoq, qayd etmoq, sukunat, zulm, yurak, o‘rin, ko‘ngil, o‘sha, ushoq, mavqe, sen, o‘g‘il, bag‘ir, so‘roq, tepalik, olti, shaharsozlik.

3.6- mashq. Matnni o‘qing. Unga quyida berilgan sarlavhalardan mosini tanlang. Qator kelgan undosh harflar ishtirok etgan so‘zlarni aniqlang.

Bir kuni sosoniylar sulolasining zabardast va donishmand podshosi Ardasher Bobak o‘g‘lining g‘oyat qimmatbaho kiyimlar kiyib olganini ko‘rdi. Uni yoniga chaqirib:

– Farzandi arjumandim, kishi shunday libos kiyishi kerakki, bunday libos hech bir xazinada bo‘lmasin, – dedi.

O‘g‘li undan:

– Ey ota, u qanday libos, nimadan tikiladi? – deb so‘radi.

– U shunday liboski, – javob berdi otasi, – matosi go‘zal xulq va ezgu ishdan, ipi esa murosa va sabrdan bo‘ladi. *(„Adolat tarozisi“dan)*

1. Ota nasihati oltindan qimmat.
2. Matosi – go‘zal xulq, ipi – murosa.
3. Sabr ham go‘zal libos.
4. Farzandi arjumand.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Aytilganidek yozilmaydigan undosh tovushlar va yozilganidek aytilmaydigan undosh harflarning talaffuz va imloviy nomuvofiqligi qanday sabablar orqali yuzaga keladi?

2. *Daromad*, *dard*, *marvarid* kabi so‘zlarning talaffuzida so‘z oxiridagi jarangli undoshning jarangsizlashish hodisasi nima bilan bog‘liq?

3. Quyidagi hikoyat yuzasidan o‘z xulosangizni ikki jumlada bildiring. Matndan imlosi talaffuziga mos kelmagan so‘zlarni ko‘chiring.

– Basralik bir arabning javohirchilarga shunday hikoya aytib berganini eshitgandim: „Bir paytlar sahroda yo‘limni yo‘qotdim. Yonimda na yeydigan taom, na ichadigan bir qultum suv bor edi. O‘lishimga ishongan onimda uzoqda bir to‘rvani ko‘rib qoldim. Shunday yugurdimki, o‘sha paytdagi hayajonimni hech qachon unutolmayman. To‘rvani ochdim. Qarasam, uning ichi to‘la oltin ekan! To‘rvada non va suvning yo‘qligidan shunchalik xafa bo‘ldimki, bu achchiq iztirobni hech qachon unutolmayman“. Hikoyani eshitib, boriga shukur qilish ham ne’matdir, degan xulosaga keldim. *(Shayx Sa’diy Sheroziy)*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

3.1-topshiriq. *„Ayyom qutlug‘ bo‘lsin!“* mavzusidagi tabrik nutqi musobaqasiga yozma matn tayyorlang.

3.2-topshiriq. Tabrik nutqini videoyozuv ko‘rinishida namoyish qiling.

4-mavzu. MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

4.1-mashq. Matn bilan tanishing.

RAMZLAR TILI

Bir **savdogar** Hindistonga borish uchun yo‘l **tadorig**ini ko‘ra boshladi. Savdogarning chiroyli to‘tisi bo‘lib, uni qafasda saqlar edi. **Safar**ga ketishdan oldin savdogar to‘tisidan so‘radi:

– Ey go‘zal qushim, senga Hindistondan nima **keltir**ishimni istaysan?

– U yerdagi to‘tilarni ko‘rsangiz, **mening** ahvolimdan ularga xabar bering. Mening begona yurtda qafasda ekanligimni, **hasrat**da **azob** tortayotganimni, ular esa **daraxtzor**larda, **tog‘**-u toshlarda bemalol, erkin yayrayotganini eslating. Shuni menga ravo ko‘rishadimi? Hech bo‘lmasa, bir **safar** men **g‘arib**ni

ham yodga olishsin. Men ham baxtiyor bo‘lishni juda xohlashimni yetkazing, boshqa hech narsa istamayman, – dedi to‘ti.

Savdogar yo‘lga tushdi. Kecha-kunduz yurib, nihoyat, Hindistonga yetib bordi.

Yo‘lda **qoyalik**larda qo‘nib turgan bir necha to‘tini ko‘rdi. Otini **to‘xtatib**, ularga:

– Men **falon** mamlakatdan falonchiman. **Tijorat** uchun bu yerlarga keldim. Mening bir to‘tiqushim bor. Sizlarga salom aytdi va **bunday** deyishimni tayinladi, – deya to‘tisining gaplarini **yetkazdi**. Savdogar so‘zlarini tugatar-tugatmas, to‘tilar titrashdi, **nafas**i qaytib o‘lib qolishdi. Savdogar aytgan so‘zlariga pushaymon bo‘ldi. „Men nima qilib qo‘ydim?! Bechora qushlarning o‘limiga sababchi bo‘ldim. Hoynahoy, bular bechora qushimning yaqinlari, yor-**do‘st**lari bo‘lsa kerak“, – deb o‘yladi.

Oradan ancha **vaqt** o‘tib, savdogar **savdo-sotiq**ni tugatdi va yurtiga qaytdi. Uyiga **tashrif buyurgan** mehmonlarga safar **taassurot**larini so‘zlab berdi. Hamma uy-uyiga tarqagach, to‘tiqush savdogardan so‘radi:

– Mening istaganimni yetkazdingmi? Hamjinslarim – to‘tilar to‘dasini ko‘rdingmi? Nima degan, nima ko‘rgan bo‘lsang, ayt, meni **xursand** qil.

– Suyukli qushim, – dedi savdogar, – meni kechir, biroq gapirmaganim yaxshiroq deb o‘ylayman. Chunki hali ham bema’ni xabar yetkazib, yo‘l qo‘ygan **xatoyim** uchun ich-etimni yemoqdaman, kel, yaxshisi gapirmay qo‘ya qolay.

To‘ti holi joniga qo‘ymagach, savdogar istamaygina so‘zlay boshladi:

– Sen aytgan joyga borib, do‘stlaring bo‘lmish to‘tilarni ko‘rdim. Aytgan so‘zlaringni va salomingni yetkazdim. Ammo ular bu xabarga **chidayolmadi**: titrab-titrab bemajol qolishdi, oxiri o‘lishdi. Shu **sabab** rosa pushaymon bo‘ldim, nachora, **g‘isht qolip**dan ko‘chgan edi.

Savdogarning bu so‘zlarini eshitib, to‘ti ham qafas ichida titray boshladi, birozdan so‘ng harakatsiz qotib qoldi va **yiqilib** „o‘ldi“. Buni ko‘rgan savdogarning hushi boshidan uchdi, **yig‘lab**-siqtadi:

– Ey sevimli qushim, senga nima bo‘ldi? Nega bu holga tushding? Men nima qilib qo‘ydim?!

Shunda „o‘lik“ to‘tini qafasdan chiqarib, derazaning chetiga qo‘ydi. U yerga qo‘yar-qo‘ymas, to‘ti darhol jonlanib uchdi va **bog‘dagi** bir daraxtning baland shoxiga qo‘ndi. Savdogar shoshib qoldi.

– Ey sayroqi qushim, bu ne hol?! Ayt-chi, bu **hiyla**ni qanday o‘rganding, **meni** qanday aldading? – deb so‘radi beixtiyor.

To‘ti qo‘nib turgan joyida aytdi:

– Hindistonda ko‘rganing to‘tilar mening salomimni olgach, o‘zlarini **o‘lik**ka solib, menga xabar yo‘llashdi, agar qutulmoqchi bo‘lsang, o‘l, deyishdi. Ko‘rib turganingdek, aytganlariga rioya qilib, **asirlik**dan **qutuldim**.

4.2- mashq. „Ramzlar tili“ haqida tushunchangizni bildiring. Matndagi *savdogar, to‘tiqush va to‘tilar to‘dasi, qafasdagi qushning harakati, „o‘lim“dan so‘ng tirilishning xulosasi, Hindiston to‘tilarining holati* ramzlarining ma’nosini izohlang.

4.3- mashq. Quyidagi fikrlarning qaysi bir(lar)i matn xulosasi bo‘la oladi?

1. Donoga ishora, nodonga kaltak.
2. Birni ko‘rib fikr qil,
   Birni ko‘rib zikr qil.
3. Faqat yaqinlaringgina senga ko‘mak bera oladi.
4. Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.

4.4- mashq. Matndagi ajratilgan so‘zlarni ikki guruhga ajratib, jadvalga joylashtiring:

Talaffuzi va imlosi mos so‘zlar	Talaffuzi va imlosi mos bo‘lmagan so‘zlar

4.5- mashq. Qavs ichidagi qaysi qo‘shimcha qo‘shilganda so‘zda tovush o‘zgarishi sodir bo‘lishini izohlang.

Savdo-sotiq (-qa, -ga), o‘lik (-ga, -ka), tadorik (-i, -ka), xato (-im, -si), yig‘i (-la, -lar), men (-ni, -ning), shu (-da, -day), sayra (-qi, -vchi), bog‘ (-ga, -qa).

4.6- mashq. „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“dan foydalanib, matnda berilgan quyidagi so‘zlarning o‘z yoki o‘zlashma qatlamga mansubligini aniqlang.

Savdogar, bir, tashrif, mehmon, uy, taassurot, hamjins, xursand, ko‘rmoq, deraza, daraxt, hiyla, aldamoq, qutulmoq, rioya.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

4.1- topshiriq. Quyidagi mavzulardan birini tanlab matn tayyorlang.

1. Ozodlik – buyuk ne’mat.
2. Yaxshi otga bir qamchi.
3. Hayotda har bir narsa ramzli, ularni anglashga zehn kerak.

4.2- topshiriq. Matn asosida radionutq tayyorlang.

5-mavzu. URG‘U TALAFFUZI

5.1-mashq. Matnni ajratilgan so‘zlarning urg‘usiga e’tibor qilib o‘qing. Bu so‘zlarni quyidagicha tartiblab yozing:

1) urg‘u 1-bo‘g‘inga tushgan so‘zlar;
2) urg‘u 2-bo‘g‘inga tushgan so‘zlar;
3) urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushgan so‘zlar.

KITOB XALQARO KENGLIK STANSIYASI



O‘rta Osiyoda Yer harakatini tekshirishning **yangí** davri Ulug‘bek nomidagi Kitob **Xalqaró** Kenglik Stansiyasining barpo etilishi va faoliyati bilan bog‘lanadi. **Geografík** xarita olib qaralsa, O‘zbekiston hududida faqatgina Kitob tumani xalqaro **paralleldá** (39-**grádus** 8-shimoliy kenglikda) joylashgani ma’lum bo‘ladi.

1928-yilning **sentabridá** Germaniyadan **Bámberg** rusumli **zenít-teleskóp** va Short soati olib kelingan. 1930-yilning 14-**noyábr** kuni esa **rasadxonadá** osmon jismlari ilk marta kuzatilgan. Koinotni tadqiq qilish ishlari **ikkinchí** jahon urushi yillarida ham to‘xtatilmagan. Shu davrda „O‘zbekiston“ deb nom berilgan kichik **sayyorá** kashf etilgan. 2009-yilda kitoblik Bahodir **Hafízov** va **Alekséy Sergéyev** tomonidan Maydanak teleskopi orqali yana bir yangi sayyora – „Samarqand“ sayyorasi aniqlandi.

Kitob Xalqaro Kenglik **Stansiyasí** dunyodagi 5 ta yirik rasadxonalardan biridir. AQSHda ikkita, **Yapóniya** va Italiyada bittadan ana shunday **obyékt** allaqachon **muzeygá** aylantirilgan. Kitobdagi bu maskanda esa **asteróidlar** himoyasi dasturi hamda **kosmík ekológiya** doirasida izlanishlar olib borilmoqda. Stansiyaga kuniga yuzdan ortiq **mahallíy** va xorijiy sayyohlar tashrif buyuradilar. **Astronomík** tadqiqotlarni o‘rganishga qiziqqan yoshlar uchun hududda koinotga sayohat qilish va yulduzlarni kuzatishga moslashtirilgan **pavilyón** ham qurilgan. *(„Kitobsayyoh.uz“dan)*

1. Kitob Xalqaro Kenglik Stansiyasining tarixiy ildizlari qaysi allomalarga borib taqaladi?

2. Aynan yurtimizda qurilgan shu rasadxonaning ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rni qay darajada?

Nazariy matn

Til sohibida o‘z qatlam so‘zlarining talaffuzi muammo tug‘dirmaydi. O‘zlashma so‘zlarning talaffuzi esa birmuncha murakkab. Uni tinglash, lug‘at asosida mashq qilish bilan o‘zlashtirish mumkin. So‘zlarni urg‘usiga rioya qilib talaffuz qilish – madaniy nutq belgisi.

Urg‘u ta’sirida yozuvda aks etmaydigan tovush o‘zgarishi sodir bo‘ladi: *diréktor – diréktr, métod – métd*. O‘zlashma so‘zda urg‘u qaysi bo‘g‘inda bo‘lishidan qat’i nazar, urg‘u oladigan o‘zbekcha qo‘shimcha qo‘shilganda, urg‘uning joyi o‘zgaradi: *diréktor – direktorní, métod – metodgá* kabi.

5.2-mashq. Berilgan o‘zlashma so‘zlarning urg‘usini to‘g‘ri qo‘yib o‘qishni mashq qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Advokatúra, notariál, adresát, lokál, valúta, bróker, ménejer, kardiográmma, logístika, parláment, audít, gipermárket, ekólog, kokós, motoróller, avtotránsport, fléshka, vebinár, platfórma.

5.3-mashq. Qaysi so‘zlarda urg‘u belgisi noto‘g‘ri qo‘yilganini aniqlang.

Mexánik (kuch), (mevazor) bóg‘lar, geológik (qidiruv), (faxriy) akadémik, étnik (qatlam), kollókvium (ma’ruzasi), infeksión (o‘choq), megapólis (hudud), memórial (obida), qándaydir (kishi), ko‘ylákbop (mato).

5.4-mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Qaysi qatordagi barcha so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushmaydi?

A. Hamisha, albatta, afsuski, hatto, kimdir.
B. Qalamdon, g‘allakor, yumshoq, nahotki, deyarli.
C. Muhokama, dengiz, iqbol, doimo, munosib.
D. Qariyb, oftob, ammo, naqadar, kelgandir.

2. So‘z urg‘usi bilan bog‘liq to‘g‘ri fikrni toping:

A. Qo‘shimcha ko‘rinishidagi *-chi, -mi, -ku, -dir, -gina, -da, -oq(-yoq)* yuklamalari urg‘u olmaydi.

B. O‘zbek tilida urg‘u faqat so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

C. So‘z urg‘usi so‘z tarkibidagi unli va undosh tovushdan iborat bo‘g‘inning kuchliroq aytilishidir.

D. O‘zlashma so‘zlardagi urg‘uni o‘zbek tiliga moslashtirib talaffuz qilish nutqiy me’yor hisoblanadi.

5.5- mashq. Juftliklardagi urg‘u ta’sirida sodir bo‘ladigan ma’no o‘zgarishini aniqlang.

1. O‘zlarimi? Qaysi shamol uchirdi? – Bugungi ishni qizlar o‘zlari bitirib qo‘yishar ekan. 2. Uzoqdagi nishonni ko‘zlar ekanman, o‘qim bexato ketsa, snayper safdoshlarimni yer tishlatishini yaxshi bilar edim. – Jimgina boqib turgan bu ko‘zlar juda tanish, qiziq, qayerda ko‘rganman? 3. Ma, yuvib ye, yangi uzilgan. O‘zimizning tomorqadan! – Kasallikka qarshi yangi usulni qo‘llash, yangi preparatlarni sinovdan o‘tkazish talab etilmoqda. 4. Heech shu shaharcha odatlaring qolmadi-qolmadi-da, Orziqulov. – Qurilajak bu shaharcha harbiylarning oilalariga munosib sovg‘a bo‘ladi. 5. Osma ko‘prikdan o‘tib, buloq bo‘yiga tushib bordim. – Behuda safsatalar bilan yelkangga gunoh xaltasini osma, savobingni ko‘paytir.

5.6- mashq. Gaplarni o‘qing. Urg‘u ta’sirida talaffuzda sodir bo‘ladigan tovush o‘zgarishlarini aniqlang.

1. Barakalla, boplabsan, xo‘o‘p yaxshi ish qilibsan. 2. Bu – biznes, unga tasavvur qilganingdan ham aancha katta pul tikkanman. 3. Bilasanmi, uzoooq o‘yladim, oxiri qayerda xato qilganimni topgandek bo‘ldim. 4. Muncha shiriiin bu tabassum? 5. Senga nima? O‘o‘o‘tiribman katta idoraga xo‘jayin bo‘lib! 6. Vey, bu bola uchchiga chiqqan ayyor, jaa muttaham ekan-ku! 7. Yashshamagur, nimalar qilib qo‘ydiiing, qara, boyaqish yumm-yumm yig‘layapti! 8. Xo‘o‘sh, shu gaplarni o‘ylab gapiryapsanmi? Uyalmaysanmi?

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun urg‘u talaffuzi kishi saviyasining oynasiga qiyoslanadi?
2. O‘zlashma so‘zlarda urg‘uni qanday aniqlash mumkin?
3. She’rni o‘qing. Shoir o‘zbekona mehmondo‘stlikni ikki so‘z misolida qanday ta’riflayapti?

Meva berdi yetilib bu yil
Men bog‘imga o‘tqazgan nihol.
Mevalarki, cho‘g‘day qip-qizil,
Husni yoqut, shirinlikda bol.

Lablaridan tomizib sharbat,
Ol, ye, deydi, armonda qolma.
Lekin shunga hayronman faqat,
Nega uni deydilar: „olma“?

Olma eksa bog‘iga har kim,
Mehmoniga ol, ye demasmi?
„Olma“ mening mehmondo‘st xalqim
Odatiga yot so‘z emasmi?

Meva berdi yetilib bu yil
Men ardoqlab o‘stirgan nihol.
Olmalarki, shafaqday qizil,
Lekin nomi „olma“ emas, ol…

(Erkin Vohidov)

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

5.1- topshiriq. Urg‘u ma’no farqlaydigan 5 juft so‘z toping va gaplar tuzing.

5.2- topshiriq. Teleradio suxandonlarining o‘zlashma so‘zlar urg‘usini to‘g‘ri qo‘ymay talaffuz qilishi omma nutq madaniyatiga qay darajada ta’sir etadi? Fikringizni teleko‘rsatuvlardan suxandonlarning nutqlarini videoyozuv qilib ko‘chirib olish va ular talaffuzidagi farqlarni izohlash orqali bayon qiling.

6- mavzu. QO‘SHIB YOZILADIMI, AJRATIB?

6.1- mashq. Matnni tinglab, unga sarlavha qo‘ying.

Namozshom. Radioda konsert bo‘lyapti. „Endi „Cho‘li Iroq“ni tinglang“. Baxtiyor radioni o‘chirmoqchi, sug‘urib olib hovliga irg‘itmoqchi bo‘ldi. Lekin qandaydir kuch, iroda uni bu fikridan qaytardi. „Radioda, kuyda nima ayb? O‘chirganim bilan...“ Qo‘shtabaqa eshik kesakisiga suyanib, poyabzali iplarini yecharkan, kuyning sirli-sehrli to‘riga ilinib qolganini – berilib tinglayotganini o‘zi ham sezmasdi. Satodan taralayotgan mungli ohang ich-ichiga kirayotganday, yurak pardalarini zirillatayotgandek bo‘ldi. Endi bu jon o‘rtaguvchi navo ichidan eshitilayotganday tuyildi.

O sehrli kuy! Necha-necha asrlardan buyon qancha-qancha odamlarning yuragini zirqiratasan? Ne-ne toshbag‘irlarni mumday eritmading? O buyuk xalq! Ona xalqim! Sening betimsol dahongga ta’zim! Ming bor tasanno! Shu kuylaring, shu sehrkor mo‘jizalaring bo‘lmaganda, farzandlaring shu qadar muloyim-u oqko‘ngil, odamoxun va bag‘rikeng bo‘larmidi! Ming-ming bor qulluq senga, ona xalqim!

Kuyning ko‘z ilg‘amas to‘ri Baxtiyorni mahkamroq siqib borardi. U nigohini bir nuqtadan olmay, tubsiz-nihoyasiz o‘yga g‘arq bo‘ldi. Kitoblarda o‘qigani, kinofilmlarda ko‘rgani, rahmatli buvasidan eshitganlari – o‘tmish, g‘amli-alamli o‘tmish ko‘z oldiga keldi. Kuy o‘sha uzoq-uzoq moziy haqida, uning yurak-yuraklarni silqituvchi dardlari haqida yig‘lab-yig‘lab, faryod solib-faryod solib hikoya qilardi.

Olis-olislardan kimningdir nolakor, ammo shiddatli, isyonkor, mardona sadosi chalindi qulog‘iga:

Baski, qo‘ydim men falakning yelkasiga g‘am yukin,
Kiydi motam to‘nini-yu, bo‘ldi qaddi ham duto…

Eshik qars ochilib, Muhabbat kirdi. Chiroqni yoqdi.

– Sizga nima bo‘ldi?

Baxtiyor gapirmadi. Faqat „jim“ degandek qo‘lini ko‘tardi-da, radioga ishora qildi. Shundagina Muhabbat kuyni eshitdi. U Baxtiyorga qaradi. Qaradi-yu, uning ko‘zlarida yaltirab turgan yosh tomchilarini ko‘rdi.

… Kuy tindi. (*M. Hazratqulov*)

1. O‘zbek musiqasining durdonasi bo‘lmish „Cho‘li Iroq“ni tinglaganmisiz?
2. Sehrli kuyning ajoyib ta’siri haqida qanday hayotiy voqealarni bilasiz?

6.2- mashq. Matndan qo‘shma va juft so‘zlarni aniqlab, daftaringizga yozing. Imlosini izohlang.

Nazariy matn

Qo‘shma so‘zlar imlosiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1) qo‘shib yoziladigan qo‘shma so‘zlar: *olibsotar, uchburchak, sassiq-popishak*. Chunki bunday qo‘shma so‘zda so‘z urg‘usi bitta bo‘ladi;

2) ajratib yoziladigan so‘zlar qismining har birida alohida so‘z urg‘usi bo‘ladi: *O‘zbekiston Respublikasi, boshdan oyoq, olib kelmoq, xarid qilmoq.*

Qo‘shma so‘zlar so‘z birikmasidan hosil bo‘ladi. Butunlay qo‘shma so‘zga aylangan so‘z birikmalari qismlari qo‘shib, endi qo‘shma so‘zga aylanayotganlari ajratib yoziladi: *so‘zboshi, temir yo‘l, osma ko‘prik.*

Ba'zi qo'shma so'zlarni qo'shib ham, ajratib ham yozish hollari uchraydi: *soch siypatar – sochsiypatar*, *beshikto'y – beshik to'yi* kabi. Juft so'zlar ham ikki xil yoziladi: *katta-kichik – katta-yu kichik* kabi.

6.3- mashq. *„Bu so'z bizniki"* bellashuvini o'tkazing. Birinchi guruh noto'g'ri qo'shib yozilgan so'zlarni, ikkinchi guruh esa noto'g'ri ajratib yozilgan so'zlarni aniqlab yozing.

Sarf qil, Kavkaz oldi, sotib ol, hammavaqt, Mirza cho'l, to'qqizil, bodomqovoq, devqomat, sheryurak, Urto'qmoq, O'rta Osiyo, Oqtepa, erktalab, Boltiq bo'yi, ketaber, bilar ekan, sakkizyuz, xushfe'l, pirpirak, birpas, harxil, O'zMU, hayhaylamoq, AQSH, qo'ziqorin, Yuqorichirchiq, Qo'rg'ontepa, Yangiturmush, tomorqa, Bo'zsuv, Ochil dasturxon, yozaveramiz, liqto'la, jiqqamusht, birato'la, lang ochiq, o'rinbosar, ishyoqmas, yarim tayyor, beshotar, och sariq, ertapishar, Ekobozor, Jiyda kapa, qushqo'nmas, jigarrang, Uzoqsharq, Shirmonbuloq, suvosti, o'nbir.

6.4- mashq. Rasmlar asosida qo'shma so'zlar hosil qilib, gaplar tuzing.

6.5- mashq. *„Kim chaqqon?"* musobaqasini uyushtiring. Aralash berilgan so'zlardan qo'shma so'zlar hosil qiling va ularning yozilishini lug'atdan tekshiring:

Namuna: fotokamera, …

Foto	sahifa
televizion	kamera
disk	choynak
veb	stansiya
kino	teatr
elektr	ko'rsatuv
radio	yuritkich

6.6-mashq. Quyida berilgan so‘zlarga diqqat qilib, ularning yozilishi sababini izohlang.

Unter-ofitser, kilovatt-soat, metr-sekund, shtab-kvartira.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qo‘shma va juft so‘z qismlarining ma’nosi alohida-alohida aniqlanishi mumkinmi? Ularning bir tarkibli so‘zga o‘xshash va farqli tomonlari nimada?

2. O‘zbek tilida *multi, nano, mikro, bio, avto, mini, eko, anti* kabi vositalar yordamida hosil qilingan birliklarni qo‘shma so‘z deb olsa bo‘ladimi? Bu so‘zlarning o‘zbekcha so‘zlarga qo‘shilib, qo‘shma so‘z hosil qilgan holatlariga misol keltiring. Masalan: *avtoulov, multiilova...*

3. Berilgan matndagi qo‘shib yoki ajratib yoziladigan so‘zlar imlosiga diqqat qiling.

Dunyodagi eng yirik kutubxona AQSH Kongressi kutubxonasi sanaladi. Uning fondida 150 million nusxadan ortiq kitob bor. Bu keng qamrovli kutubxona 1800-yilda AQSH Prezidenti Jon Adams tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, har yili bu yerga 1 million 700 mingga yaqin kitobsevarlar tashrif buyuradi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

6.1-topshiriq. Matn bilan tanishing. Ijodkorning kuzatuvchanlik mahorati haqida fikr yuriting.

Bog‘dagi yumush uchun hamma narsani: tokqaychi, qo‘larra, tesha, belkurak, iskana, zambilgacha taxt qilib qo‘ydim. Ishga kirishishdan oldin biroz atrofni tomosha qildim. Bo‘ta ko‘z, qo‘ng‘iroqgul, gul safsarlar isi atrofni tutgan. Ariq bo‘yidagi tog‘ olcha va ko‘k sultonga rang kirib qolibdi. Havoda zarg‘aldoq, havo rang, och sariq, tim qora, xol-xol kapalaklar o‘ynaydi. Oyoq ostidagi maysalar ochko‘zlik bilan quyoshga intiladi. Qayoqdandir qizilishtonning „to‘q-to‘q“ ovozi kela boshladi. Orom baxsh havodan chuqur nafas oldimda, yeng shimarib ishga tushib ketdim.

6.2-topshiriq. Gaplardagi qo‘shma so‘zlar bilan bog‘liq xatolarni tuzatib ko‘chiring.

7-mavzu. MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

7.1-mashq. Berilgan tabrik mavzusidagi matnlar bilan tanishing. Bunday matnlarda faol qo‘llanadigan til birliklariga, ijodkorning badiiy topilmalariga diqqat qiling.

I. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq yozuvchisi – bu oliy unvonlar Said Ahmadning el-yurt oldidagi buyuk xizmatlarining xalq tomonidan, davlat tomonidan e’tirof etilishidir.

Said Ahmad bugungi o‘zbek adabiyotining chinorlaridan, oqsoqollaridan biri bo‘lib qoldi. Biz uni shunday deb atayotgan ekanmiz, bunda uning yoshi ulug‘ligini nazarda tutayotganimiz yo‘q. U o‘z iste’dodi bilan, qalamining o‘tkirligi, betakror qahramonlar galereyasini yaratgani bilan bu sharafli nomga munosib ijodkordir.

San’atkor ustoz bugun muborak sakson yoshga qadam qo‘ydi. Biz bu betakror adibga uzoq umr tilaymiz.

– Xalqimiz uchun yangi-yangi asarlar yaratib beravering, Said Ahmad aka! *(Ozod Sharafiddinov, 2000-yil)*

II. Nosirning o‘nga yaqin romanni tarjima qilib, qanchadan qancha qissa yozib, bitta tokchani to‘ldiradigan kitob chiqarib qo‘yganini uncha-muncha ellik yoshlining qo‘lidan kelmaydigan mehnat deb tan olmay ilojim yo‘q. Nosir yaxshi odam, yaxshi yozuvchi, yaxshi tarjimon va mana endi boz ustiga yaxshi chol bo‘ldi.

Men talantli ukam Nosir Fozilovga Jambul umridek uzoq umr, Oybekcha donolik, G‘afur G‘ulomga xos quvnoqlik, Qahhorcha zukkolik tilayman.

Ellik yoshing qutlug‘ bo‘lsin, o‘zbeklarning qozog‘i, qozoqlarning o‘zbegi! Oltmishga tomon yo‘ling bexatar bo‘lsin, ukam! (*Said Ahmad)*

7.2-mashq. Yaqin do‘stingizga quyidagi munosabatlardan biri asosida tabriknoma yozing.

– Alisher Navoiy tavallud kuni munosabati bilan;
– do‘stingizning tavallud kuni munosabati bilan;
– bahorning birinchi kuni munosabati bilan;
– Hayit ayyomi munosabati bilan.

7.3-mashq. Berilgan hamdardlik mavzusidagi matnlar bilan tanishing. Bunday matnlarda faol qo‘llanadigan til birliklariga diqqat qiling.

I. Andijon viloyati Marhamat tumani,
„Umrzoq Qoraboyev“ shirkat xo‘jaligi, Qovunchi qishlog‘i
Enaxon aya Sotiboldiyevaga
Muhtarama Enaxon aya!

Boshingizga tushgan og‘ir musibat – aziz farzandingiz, xalqimizning ardoqli shoiri Muhammad Yusufning bevaqt o‘limi munosabati bilan Sizga, oila a’zolaringizga, barcha yaqinlaringizga chuqur hamdardlik bildiraman.

O‘g‘lingiz Muhammadjon noyob iste’dod egasi, odamlarga mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi. Shu bois bu mudhish xabar shoirning ko‘plab do‘stlari va muxlislari kabi mening ham qalbimni larzaga soldi. Uning yorqin xotirasi barchamizning qalbimizda abadiy yashaydi.

Sizga Yaratgandan sabr-toqat va bardosh tilayman.

Islom KARIMOV, 2001-yil

II. Bugun men uchun g‘oyatda qayg‘uli kun. Butun o‘zbek xalqiga, ilm ahliga o‘rnak bo‘la oladigan fidoyi olim, tilimiz va adabiyotimizning haqiqiy jonkuyari va targ‘ibotchisi, chinakam ziyoli inson Omonulla Madayev olamdan o‘tdilar. Ustoz „o‘zbekning vijdoni“ deb atashga arzigulik inson edilar. Til, adabiyot, ma’naviyat sohasida ko‘pchilik diliga tuggan va ayta olmagan fikrlarni qo‘rqmay baralla aytdilar.

Bu biz uchun, ma’naviyatimiz uchun katta yo‘qotish deb o‘ylayman. Ustozning oila a’zolari, yaqinlariga o‘z hamdardligimni bildiraman. Oxiratlari obod bo‘lsin.

K.Allamjonov, 2020-yil

7.4- mashq. Ijtimoiy tarmoqlardan olingan tilaknomalar bilan tanishing. Bunday matnlarning inson ruhiyatiga ta’siri yuzasidan fikringizni bildiring.

I. Assalomu alaykum, olisdagi qadrdonlar.

Barchamizga yana bir tong nash’asi va tarovatini ko‘rish, xushbo‘y havosidan bahramand bo‘lish nasib etdi. Hayot takrorlanmas, umr qisqa, har bir onimiz g‘animat. Shunday ekan, bir-birimizga mehrli, e’tiborli bo‘laylik. Bir-birimizni qadrlashga harakat qilaylik. Har bir otayotgan tongimizni shukronalik va tabassum bilan qarshi olaylik. Kuningiz fayzli, unumli va shodliklarga to‘la bo‘lsin. *(„Hamroh“ radioeshittirishidan)*

II. Yana bir kun nihoyasiga yetdi. Har kech yotishdan oldin o‘tgan kuningizni sarhisob qiling. Yaxshiliklaringizdan quvoning. Dilingizga ozor yetkazganlarni

kechiring. Tongni toza yurak va go‘zal tilaklar bilan qarshi olish uchun xotirjam dam oling. Xayrli tun, azizlar! *(„She’riyat xiyoboni“ radioeshittirishidan)*

7.5-mashq. Xabar matnini o‘qing. Tabrik va hamdardlik mavzusidagi yo‘llanmalarning xalqaro munosabatlar doirasidagi o‘rni yuzasidan o‘z fikringizni bildiring.

Tojikiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar qo‘mitasi raisi Rustam Nazarzoda Qozog‘iston Respublikasi hududidan o‘tuvchi „Samara-Chimkent“ avtoyo‘lida yo‘lovchi avtobusdagi yong‘in natijasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining halok bo‘lganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildirdi. Tojikiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar qo‘mitasi raisining bergan axborotida „Ushbu fojia qurbonlarining oilalariga, qarindoshlariga hamdardlik bildiramiz, jabrlanganlarga esa tezroq sog‘ayib ketishlarini tilaymiz“ deb bayon qilingan.

(Internet ma’lumotlaridan)

7.6-mashq. Ta’ziya ifodalarini yarating. Ularni marhumning yosh va jins xususiyatlariga ko‘ra turlarga ajrating.

Namuna: marhuma yosh ketibdi, yaqinlariga sabr bersin, bandachilik ekanda, rahmatlidan ikkita farzand qolibdi, oxirati obod bo‘lsin, Allohning irodasi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

7.1-topshiriq. *„Shirin so‘z – jon ozig‘i“* mavzusida bemorga hamdardlik yozma nutqi matnini tayyorlang.

7.2-topshiriq. Matningiz mazmunini og‘zaki bayon qiling.

NAZORAT ISHI

8-mavzu. NUTQDA O‘RINLI VA NOO‘RIN SO‘ZLAR

8.1-mashq. Matn bilan tanishing. Noo‘rin qo‘llangan so‘zlarni aniqlab, o‘rniga quyida berilgan so‘zlardan maqbulini qo‘ying.

RUHIY MUAMMOLAR DAVOSI

Kitoblarning ruhiyatni **muolajalash**da ishlatilishi haqida **tinglaganmisiz**? Psixologlar o‘z mijozlariga kitoblar **taklif** qilishi, kitob orqali odam o‘z muammosidan chiqish **ko‘y**ini topa olishi mumkin. Masalan, psixolog sizning muammongiz bilan tanishgach, aynan shu yoki shunga o‘xshash vaziyatga **ro‘para** kelgan odam haqidagi biografik yoki avtobiografik kitobni tavsiya qiladi. Kitobni o‘qib, qahramon bilan ma’lum bir yo‘llarni bosib o‘tar ekansiz, sizga insayt (avval ma’lum bo‘lmagan yechimni **birdan** anglash)lar keladi.

Psixolog sizga istalgan janrdagi, **ma’no**dagi kitoblarni tavsiya qilishi mumkin. Detektiv va sarguzasht kitoblar real vaziyatdan chalg‘ishga yordam bersa, ilmiy-fantastik adabiyot esa **aktiv**lik va tasavvurni **quvvatlantiradi**. **Qadimiy** asarlar **umr**dagi maqsadni aniqlashtirishga yordam beradi. Diniy-axloqiy kitoblar kishida sabr-qanoatni tarbiyalaydi. Yumor va satira janridagi asarlar ijobiy kayfiyat ulashib, psixologik himoyaga o‘rgatadi. Aforizmlar **uyumi** fikrlarni tartiblaydi va tiniqlashtiradi. San’at haqidagi kitoblar esa **hasratda qolish** hissini uyg‘otadi.

Kitob nafaqat bilim va dunyoqarashni o‘stirishda, balki ruhiyatimizda muvozanat o‘rnatishda ham **nafli** ekanini anglagandirsiz?

(„Kutubxona“ telegram kanalidan)

Tavsiya etilgan so‘zlar: *davolash, eshitganmisiz, tavsiya, duch, yo‘l, to‘satdan, mazmun, faol, kuchaytiradi, tarixiy, hayot, to‘plam, hayrat, foydali.*

8.2- mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlardan mosini tanlang.

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning „Al-jabr va al-muqobala“ kitobi atigi 80 betdan iborat, ammo bu kitobning dovrug‘i … (asir, asr)lar osha butun jahonga … (taralgan, yoyilgan, tarqalgan). 2. Londondagi birinchi … (yurt, xalq) kutubxonasining asoschisi S. Fenkorning talabi bilan kitob varaqlarini buklagan kishilarga nisbatan jazo chorasi qo‘llangan: aybdorlar jazolangan yoki 7 yil qamoqqa … (amr, hukm, qaror) qilingan. 3. Kitobdan o‘zingizga yoqqan voqea … (hayoli, xayoli) bilan oz muddat bo‘lsa-da, yashab ko‘rganmisiz? *(A.Muxtor)* 4. Bir … (qayta, marta, qur) o‘qiladigan kitobning hozirgi kuni bor, takror-takror o‘qiladigan asarning … (yoriq, yorug‘) kelajagi bor. *(A.Dyuma)* 5. Abu Rayhon Beruniy yozgan 150 ta kitobning 70 tasi … (astronomiya, falakiyot, ilmi nujum)ga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi kartografiyaga, 3 tasi ob-havo masalalariga, 3 tasi minerologiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi … (tarix, o‘tmish, qadim)shunoslik va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga va 18 tasi adabiyotga … (ato etilgan, bag‘ishlangan, baxsh etilgan). *(U. Karimov)* 6. Rimning mashhur shoiri Franchesko Petrarka (1304 –1374)ning izzat-ikromini shu darajada joyiga qo‘yishganki, u o‘z sayohati davomida … (asl, asil) muxlislaridan biri bo‘lgan zargarning uyida bir kecha … (uxlagach, dam olgach, tunagach), xonadon sohibi shu xonaning devoriga oltin suvini yuritib chiqqan ekan. 7. Kopernikning 40 yil davomida yozgan „Sayyoralarning quyosh tevaragida aylanishi“ nomli kitobida keltirilgan … (dalil, dadil)lar bugungi nazariyotchilar uchun haqiqiy maktab bo‘ldi. 8. Markaziy Osiyo hududidagi dastlabki kutubxona eramizning uchinchi asrida … (azim, azm) Xorazmda … (vujudga kelgan, paydo bo‘lgan, hosil bo‘lgan).

8.3- mashq. Berilgan so‘zlardan foydalanib, gaplar tuzing va *„Go‘zal bitiklar“* tanlovida qatnashing.

Afsona bo‘lmoq, hayratlanarli, samimiyat, latif, to‘lqinlanmoq, fusunkor.

Nazariy matn

Nutqda so‘zlarni noo‘rin qo‘llash holatlari uchraydi. So‘zlarni anglash, farqlash, tanlash va qo‘llash bilim va farosatni talab qiladi. O‘rinli va noo‘rin qo‘llashni aniqlash uchun ham bilim, farosat va mantiqiy tafakkur taqozo etiladi. Masalan, nutqda „*Kechirasiz, mening joyimga o‘tirib olibsiz*“ gapida *o‘tirib olmoq* so‘zi, „*Ikki kishi talashib qolishibdi*“ jumlasida *talashmoq* so‘zlari noo‘rin qo‘llangan. Ular o‘rniga gaplarni „*Kechirasiz, bu joyni men band qilgan edim*“, „*Ular tortishib qolishibdi“* deyish farosatdan darak beradi.

8.4-mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Qaysi maqolning suratli izohi berilmagan?

A. Kitob ko‘rmagan kalla – giyoh unmagan dala.
B. Kitob o‘qigan qushdek parvoz qilar.
C. Kitob – hayot uchun mayoq.
D. Sohibkordan bog‘ qolar, donodan – kitob.

2. Berilgan matndagi ajratilgan birikma qanday ma’noda qo‘llangan?

– Bibinarzi, elomonlik bo‘lib, oydinlikka chiqaylik, katta bir kutubxona quraman, – dedi ota xomushgina termilib turgan xotiniga.

– Niyatingizga yeting, otasi, **oydinlikka chiqaylik**, iloyim. *(O. Hojiyeva)*

A. Yorug‘ joyga boraylik.
B. Yaxshi kunlarga yetaylik.
C. Oy yorug‘iga o‘taylik.
D. Yuzimiz yorug‘ bo‘lsin.

8.5-mashq. Har bir qatorda so‘zlar o‘ziga xos belgilar asosida jamlangan. Quyida berilgan so‘zlardan foydalanib, qatorni davom ettiring.

Fahm, farosat, did, …
Ilg‘or, zarbdor, peshqadam, …
Istamoq, xohlamoq, tusamoq, …
Kesatiq, kinoya, istehzo, …
Lapashang, lavand *(lavang)*, …
Qiyinchilik, mashaqqat, og‘irchilik, …

Tamiz, uquv, zehn, idrok; yetakchi, avangard, karvonboshi; orzulamoq, orzu qilmoq, tilamoq, ixtiyor etmoq, sog‘inmoq; piching; bo‘shang, landavur, noshud, so‘tak, bo‘sh-bayov, latta; qattiqchilik, riyozat, zahmat.

8.6-mashq. Gaplarni so‘z tanlashdagi xatolar bo‘yicha joylashtiring.

1) so‘zni noto‘g‘ri qo‘llash;
2) so‘zni o‘rinsiz takrorlash;
3) so‘zni ortiqcha qo‘llash;
4) so‘zni tushirib qoldirish.

1. Bizning kutubxonamizning elektron tizimi dunyo kutubxonalari kompyuter tarmog‘iga ulangan kutubxonalardan biri hisoblanadi. (*Radiodan*) 2. Men esa, ehtimol, obro‘talab odamlar ixtiyoriga tariximizning shonli sahifalari bitilgan asarlarni tuhfa etmoqchiman. *(Gazetadan)* 3. Nashriyotlarimizda bolalarga xos keladigan badiiy kitoblar ham nashr qilinyapti. (*Suhbatdan*) 4. Avlodlarimizga bobolar ruhi etgan qimmatli kitoblar meros qolsin. *(Gazetadan)* 5. Kitoblarda aytilishicha, eng yaxshi odam og‘zi va qo‘li ochiq odamdir. *(Gazetadan)* 6. Bu xabarlarni kim tarqatayotganidan qat’iy nazar, og‘ir-vazminlikni qo‘ldan bermaylik. *(Radiodan)* 7. Kitobni bejizga oftobga qiyoslamaydilar. (*Suhbatdan*) 8. Televizor muruvvatining o‘rnini pult egalladi. *(Radiodan)*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. So‘zni anglash, tanlash va qo‘llashda nutq egasidan qanday xislatlar talab qilinadi?
2. O‘rinli va noo‘rin (o‘rinsiz) so‘zlarni aniqlashda nutqiy uslub xususiyatlari qay darajada muhim?
3. Berilgan fikrni o‘qib, o‘z mulohazangizni yozma bildiring: *„Bobokalonlarimiz kitob topishga qiynalar edilar, hozir esa biz kitob tanlashga qiynalamiz. Kitob yoki jurnalni Internet sahifalaridan ham o‘qisa bo‘ladi. Ammo Internetda kitobga xos hid yo‘q, sahifalarni varaqlashdek huzur yo‘q. Eng asosiysi, uni yostig‘ing tagiga qo‘yib bo‘lmaydi“. („@kitoblar_dunyosi“dan)*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

8.1-topshiriq. Matnda noo‘rin qo‘llangan so‘zlarni aniqlab, o‘rinli muqobillarini qo‘ying.

5–6 yoshlarimda cho‘milishni sevar edim-u, suzishni bilmas edim. Bir kuni bolalar qiyqirishib cho‘milayotgan anhorni ko‘rdim-u, yugura kelib o‘zimni suvga otdim. Anhor chuqur ekan. Tabiiyki, cho‘ka boshladim. Ulkan bolalar bir amallab qirg‘oqqa olib chiqib qo‘yishdi. Mening kitoblar jahoniga kirib kelishim ham shunga o‘xshash tarzda sodir bo‘lgan – hali o‘qishni o‘rganib-o‘rganmas, o‘zimni kitoblar ummoniga otganman. Bu ummon ham chuqur

ekan, lekin buni qarangki, bu ummonda cho‘kmay, hanuz sho‘ng‘ib yuribman. *(O. Sharafiddinov)*

Muqobilini tanlash uchun so‘zlar: *yaxshi ko‘rar, yoqtirar; buyuk, katta; olam, dunyo; suzib, cho‘milib.*

8.2-topshiriq. Birinchi marta o‘qigan badiiy kitobingizni eslay olasizmi? Bolalik taassurotingizni so‘zlab berishga tayyorlaning.

9-mavzu. NUTQDAGI „TAQIQ“LAR

9.1-mashq. Matn bilan tanishing. Ajratib ko‘rsatilgan ifodalarni izohlang. Ular o‘rniga hozirgi kunda so‘zlashuvda qaysi so‘zlar ishlatiladi.

...Qutidor yana tushunolmay taajjub bilan mehmonlarga qarab oldi.

– Tushunolmadim...

– Ya’ni Otabek bu kungacha salomat, – dedi Ziyo aka yana. – Ammo mundan keyingi **sog‘lig‘i sizning qo‘lingizda**...

– Menim qo‘limda?

– **Sizning ixtiyoringizda**.

– Otabek kabi bir yigitning sog‘lig‘i har bir aqlli kishi uchun maqsad bo‘lsa ham, – dedi taajjub bilan Qutidor, – lekin so‘zingizning shunisi qiziqdirkim, **bir yigitning sog‘lig‘i ikkinchi bir kishining ixtiyorida bo‘lsin.**

Ziyo aka boyag‘i vaziyatini buzmadi:

– **Ajablanmangiz**, o‘rtoq, – dedi, – bekning mundan keyingi sog‘lig‘i sizning ixtiyoringizda; bu o‘yin emas – to‘g‘ri gap.

Qutidor to‘sindan muddaoning kim va nima to‘g‘risida bo‘lg‘anlig‘ini payqab qoldi va o‘zida bir turlik **o‘ng‘aysizlik sezdi**…

Ziyo shohichi o‘z tomonidan ham yana bir muncha gaplarni qo‘shib-chatib, so‘zini tugatdi. Qutidor yaxshig‘ina o‘ng‘aysizlangan edi. Qutidorgina emas, sovchilar ham o‘ng‘aysizlangan edilar. **Masalaning noziklig‘iga** uchavlari ham tushunarlar va shuning uchun ittifoq qilgandek **chuqur bir sukutka ketgan edilar**…

Garchi muddao kun kabi oshkora bo‘lgan bo‘lsa ham, nima uchundir qutidor yana o‘zini tag‘ofilga solib so‘radi:

– U kimning qizi emish?

Ziyo shohichi qutidor tarafidan o‘ziga beriladirgan shu savolni kutib turg‘an edi.

– **Sizning karimangiz**, – dedi.

Qutidor o‘zining joysiz savolidan o‘kinib yerga qaradi. O‘rtada tag‘in so‘zsizlik, o‘ng‘aysizlik boshlandi. Bir necha fursat shu yo‘sun jimgina o‘lturishkandan keyin yana Ziyo shohichining o‘ziga gapirishka to‘g‘ri keldi:

– Biz o‘zimizning bu kelishimizda sizning uchun **dunyoga orzug‘uliq bir o‘g‘ul hadiya etkanimizdek**, inshoolloh, qaytishimizda ham Otabek uchun **mujassamai iffat (hayo, ibo mujassam) bo‘lg‘an bir rafiqa tuhfa qilarmiz**. *(Abdulla Qodiriy)*

9.2- mashq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rniga qavs ichidagilardan mosini tanlab qo‘ying va sabablarini izohlang.

1. Ukam ... (sariq, sarg‘ayma, gepatit) bo‘lib qoldi, shuning uchun na’matak damlab ichiryapmiz.
2. Xayri xola ... (qizil gul, qizamiq, chechak) bo‘lib, tashqariga chiqolmay qolibdi.
3. Nihoyat, afting qurg‘ur ... (asfalasofilinga ravona bo‘libdi, qazo qilibdi, o‘libdi).
4. Devor eski, ehtiyot bo‘ling: orasida ... (chayon, gajak, oti yo‘q) bo‘lmasin yana.
5. Qarasam, chuqur to‘la ... (arg‘amchi, ilon, uzun opa)! Vashillab yotibdi!

Nazariy matn

Madaniy nutqning o‘z qoidalari bor. Nutqda ayrim tushunchalarni jamiyat madaniy me’yorlariga ko‘ra ochiq aytish mumkin emas. Bu nutqiy „taqiq“ (u fanda polineziya tilidan olingan „tabu“ so‘zi bilan nomlanadi) deyiladi. Ular o‘rniga „yumshoq“, „qog‘ozga o‘ralgan“, ya’ni madaniy ifodalar qo‘llanadi. Nutqdagi „taqiq“lar qo‘rquv asosida (*chayon* so‘zi o‘rnida *gajak, o‘lmoq* so‘zi o‘rnida *ketmoq* so‘zlari qo‘llanishi), uyat asosida (*tug‘moq – farzandli bo‘lmoq*, hurmat asosida (*sen-siz, bor-boring* kabi) bo‘ladi.

9.3- mashq. Nutqdagi „taqiq“larga ishtirok etgan maqollar bilan tanishing. Ular ishtirokida matn yarating.

1. Ko‘r ko‘rni qorong‘ida topadi.
2. Dardingning vaqti o‘tsa,
   Tabibdan o‘pkalama.
3. Bukrini go‘r to‘g‘rilaydi.

4. Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi.
5. It izzatni bilmas,
Eshak – tarbiyatni.
6. Olmaning tagiga olma tushadi.

9.4-mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Berilgan matndagi ajratilgan so‘zlar qaysi nutqiy „taqiq“ asosida ekanligini aniqlang va tushuntiring:

Qoplon chalqanchadan yonbosh bo‘ldi.
– Havo sevalab o‘tadi, **momosi**, – dedi.
– **Bu kishi** qayerdan biladi? – dedi ayoli.
Qoplon u yog‘ini aytmadi. *(Tog‘ay Murod)*

A. Qo‘rquv asosidagi.
B. Mensimaslik asosidagi.
C. Andisha asosidagi.
D. Hurmat asosidagi.

2. Quyida berilgan matndagi qaysi gap(lar)da fikr ochiq ifodalanmagan?

Sovchilar odatlari bo‘yicha u yoq-bu yoqdan gapirishib o‘tirdi.
Eson qassobni haminqadar eladi. Keyin maqsadga o‘tdi.
– Singlingning boshiga baxt qushi qo‘nib turibdi, uchirib yubormasang bo‘ldi, qassob, – dedi.
– Aslini bilmay, so‘z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar, – dedi qassob.
– Kim ekan u? *(Tog‘ay Murod)*

A. Sovchilar odatlari bo‘yicha u yoq-bu yoqdan gapirishib o‘tirdi.
B. Singlingning boshiga baxt qushi qo‘nib turibdi, uchirib yubormasang bo‘ldi.
C. Aslini bilmay, so‘z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar.
D. Eson qassobni haminqadar eladi.

9.5-mashq. Ajratilgan so‘zlarning salbiy yoki ijobiy mazmundagi „taqiq“ asosida qo‘llanganiga aniqlik kiriting. Bu so‘zlarning umumiy belgisini topib, qatorni davom ettiring.

1. Yaxshikim, dunyoda oshna, og‘ayni degan kimsalar bor… Agar shular bo‘lmasa-chi, kishi allaqachon **dunyodan chiqib ketadir**. 2. Sizdan bir kun so‘ng Homid o‘ldi. Haytovur, bir og‘iz so‘zsiz **to‘ng‘iz qo‘pibdi**. 3. Umri qisqa ekan, **peshanamizga sig‘madi**. 4. – Oyi…, dada… – so‘ngra, – begim, –

deb ingrandi… Erining yuzini yuziga qo‘ydi, uyalg‘ansumon **ko‘zini yumdi**… 5. Olmaota ustidagi o‘rus bilan to‘qunishmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib **shahid bo‘ldi**. 6. Yodgorbek ushbu asrning o‘n to‘qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o‘g‘ul qolibdir. *(A.Qodiriy)*

9.6- mashq. Matnni nutqiy „taqiq“larga tayangan holda qo‘pol so‘zlar o‘rniga madaniy nutq so‘zlarini qo‘yib o‘qishni mashq qiling. O‘g‘rilar nutqida ochiq ma’noli so‘z va iboralarni ma’noni yashiradiganlariga almashtirib qo‘llash nima uchun kerak? Ajratib berilgan gap xususida o‘z fikringizni yozma ifodalang.

– Bu yerdagilarning hammasi o‘zini *passajir* deb hisoblaydi. Seni bu yerga tuhmat boshlab kelmagan. Xasislik qilgansan. Pupkarlarni vaqtida moylash kerak edi.

– Kimni?

– Milisani! Nima, bunaqa so‘zlarga tushunmaysanmi?

– Ularni... rosa moylaganman. Bekorga yeb ketishdi.

– Yetarli moylamagansan. **Molning chanqog‘ini tomizg‘ichdagi tomchi suv bilan qondirib bo‘ladimi?**

– Shoshilsam-shoshilmasam, menga suyanadigan bir *tog‘* kerak-ku?

– Tog‘, dedingmi? Yaxshi aytding. Sen suyanadigan tog‘ bor. Ammo... – Tengiz jilmaydi. Bu jilmayish avvalgiday beg‘ubor emas, balki ayyorlik yeli bor edi unda.

– Ammo suyanish uchun tog‘ haqini to‘lashing kerak. Ochiqlikda har oy maosh olardingmi? Ha, olarding. Xuddi shunga o‘xshab, suyanadigan tog‘ haqini har oyda to‘lab turasan. Sen bugun *biksa*ngga bir *malyava* yozasan. Har oyda pul yuborib turadi. *(Tohir Malik)*

Passajir – tasodifan qamalgan odam; *tog‘* – himoyachi; *biksa* – xotin; *malyava* – xat.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. „Taqiq“ so‘zlar til odobi uchun qanday ahamiyatga ega?

2. „Taqiq“lardagi „parda“lab gapirish va qo‘pol ifodalash xususiyati hayotdagi qanday vaziyatlarda uchraydi?

3. Quyidagi rivoyat bilan tanishib, o‘z fikringizni bildiring.

Husayn Boyqaro safardaligida sevimli xotini vafot qiladi. Xabarchi shohga borib: „Xotiningiz o‘ldi“, deya olmasligini aytib, Navoiyga maslahatga keladi. Navoiy: „Sarvigulning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?“ jumlasi bilan murojaat qilishni o‘rgatadi. Xabarni eshitgan shoh osoyishtalik bilan „Sarvdin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak“ degan nozik va yumshoq javobni berib, buni Navoiyga yetkazishni topshiradi. *(J. Omonturdiyevdan)*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

9.1-topshiriq. Tibbiyot tilida qo‘llanuvchi tushunchani yumshatib ifodalaydigan so‘zlar jadvali mazmunini matnga aylantiring.

„Yumshoq“ ifodalar	Ochiq ma’nosi
yomon kasal, olib ketadigan, davosiz dard	saraton
suyakqizima	suyak sili
behud	jinni
terlama	bezgak
xushka	temiratki
bemorni berib qo‘ydik, bandalikni bajo keltirdi	o‘ldi

9.2-topshiriq. Tuzgan matningizni sinfdoshlaringizga audiomatn shaklida eshittirishga tayyorlaning.

10-mavzu. EVFEMIZM VA DISFEMIZMLAR

10.1-mashq. Parchalarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan birliklarni ikki guruhga bo‘linib ko‘chiring.

1-guruh: kishiga ijobiy ta’sir qiladigan so‘zlar;
2- guruh: kishiga salbiy ta’sir qiladigan so‘zlar.

I. Qimmat momo onamizni mazammat (malomat, ta’na) qildi.

– Men senga biron yomon gap gapirdimmi, it!!.– deya shang‘illadi. – Ichim kuyganidan, ichim achiganidan gapiraman-da! **Peshanang nimaga bundayin sho‘r** desam, gap bu yoqda ekan-da!

– Bedana tezotar bo‘lsa, o‘z boshini o‘zi yoradi! – dedi bir ayol.

Qimmat momo kaftlarini katta ochdi.

– Omin! – dedi, – mendayin bir begunoh momoni, **sochimning oqiga qaramayin**, urgan bo‘lsang, iloyo, **olamdan bepusht o‘tgin**! Mening yoshimga yetolmayin **juvonmarg o‘lgin**, Olloh akbar! – dedi.

Ayollar bosh chayqadi. Barchin xola chiday olmadi.

– Iloyo, **og‘zingdan chiqib**, **yoqangga yopishsin**! – dedi Barchin xola. *(T. Murod)*

II. – Siz... gruzinmisiz?

– Yo‘q... – Tengiz miyig‘ida kuldi: – Men – avarman! – Tengiz bu gapni iftixor bilan aytdi. – Avar degan xalq bor bu dunyoda, eshitganmisan?

Nuriddin eshitmagan edi. Biroz xijolat bo‘lgani holda bu haqiqatni tan oldi.

– Sen meni gurjiga o‘xshatma. Ular **Qofqazni sotishgan**. Mening bobolarim esa Qofqazimizni **kofir to‘ng‘izlardan himoya qilgan**. Imom Hamzat, imom Shomil, Hojimurodlarni eshitganmisan? Ha, eshitmagansan.

– Men... o‘qimaganman. Sakkizinchini bitirib, dalaga chiqib ketganman. Keyin harbiyga chaqirishib, Afg‘onga tashlashdi. Keyin bu yerlar... Qo‘limga bitta kitob olib o‘qimaganman sira.

– Unda seni „**eshak**“ deganlari to‘g‘ri ekan. Qaysarliging uchun emas, o‘qimaganing sababli eshaksan. O‘qimagan odamning eshakdan nima farqi bor? *(T. Malik)*

III. – Ay hamsoya, **esim qursin**, xiyol bo‘lmasa esimdan chiqayin debdi, – dedi. – Xoldon momonikiga sumalakka boring. Ayollar sizni **kayvoni** bo‘lsin deyapti, vaqtliroq boring.

Oymomo onamiz ich-ichidan suyundi. Boisi sumalak qo‘yuvchi-da, sumalakka kayvonilik qiluvchi-da g‘oyat pokiza ayol bo‘lmog‘i lozim bo‘ladi.

„Meni lozim ko‘ribdilarmi... **menginani lozim ko‘ribdilarmi**, demak, el nazarida **farishtali ayol** bo‘libman-da? – deya xayollandi onamiz. – Shukur, Yaratganning o‘ziga shukur, ishqilib, el savobini olar bo‘libman...“

Oymomo onamiz sumalak kayfiyatida eshik-orani supurdi. Sumalak zavqida tirikchiligini qildi. *(T. Murod)*

1. Parchalarda Surxon vohasiga xos qanday so‘z birikmasi, ibora va jumlalar qo‘llangan?

2. Ijodkorlarga xos xalqona ruh qaysi ifodalarda ko‘proq uchragan deb o‘ylaysiz?

10.2-mashq. *„Kim chaqqon?“* musobaqasini uyushtiring. Berilgan so‘zlarni jadvalga to‘g‘ri joylashtiring.

Yostiqdosh, ojiza, turmush o‘rtog‘i, jufti halol, umr yo‘ldoshi, zavj(a), rafiq(a), xotin (er), onasi, dadasi, bu kishim; farzandlik bo‘ldi, yengillashib oldi, ko‘zi yoridi, qutulib oldi; „holva“, „qo‘chqor“, davomchili bo‘ldi; qazo qildi, halok bo‘ldi, jon taslim qildi, o‘ldi, joni uzildi, u dunyoga rihlat qildi, omonatini topshirdi, egasiga kerak bo‘ldi, yer tishladi, to‘ng‘iz qo‘pti, yer yutdi.

„Yumshoq“ ifoda	Betaraf ifoda	Qo‘pol ifoda

10.3- mashq. Qavs ichidagi so‘zlardan nuqtalar o‘rniga mosini tanlang.

1. – Uyqungiz o‘chdimi, … (otasi, erim, yostiqdoshim, zavjim)? – Ha... O‘zingchi, yana xastalik azob beryaptimi? *(O. Yoqubov)* 2. Shu turishida opasi Boburga onasining endi … (tul, beva, eri o‘lib) qolgan o‘ttiz yetti-o‘ttiz sakkiz yasharli paytlarini eslatib yubordi. *(P. Qodirov)* 3. Yana, albatta, ko‘rishmoqqa umidim bor, hozircha … (xayr, alvido, xudoning panohiga, ko‘rishguncha). (*„Onalar_kanali“dan*) 4. Bu amakining o‘g‘li urushdan … (oyog‘idan ayrilib, cho‘loq bo‘lib, oyoqsiz bo‘lib, oqsoq bo‘lib) keldi. (*„Suhbat“dan*) 5. Qo‘shnimiz … (aynigan, tentak, sal bunday-roq, jinni), lekin hech kimga zarari tegmaydi. *(T. Murod)* 6. Qarang-a, bu odam o‘zi … (kal, sochi to‘kilgan, yaltirbosh, sochi yo‘q) bo‘lsa ham, dimog‘i balandni ko‘zlarkanmi? *(O. Bobojonov)*

Nazariy matn

Madaniy nutq sohibi o‘z fikrini chiroyli va kishi ko‘ngliga og‘ir botmaydigan qilib ifoda etadi. Fikrni og‘ir botmaydigan, tinglovchiga malol kelmaydigan qilib ifodalash vositalari ***evfemizm*** (grek tilida bu so‘z „yumshoq gapirmoq“ ma’nosida qo‘llangan) deyiladi. Masalan, *yomon bo‘libdi* degandan ko‘ra *yaxshi bo‘lmabdi* deyish, *kasal* ifodasidan ko‘ra *mazasi yo‘q* deyilsa, kishi ko‘ngliga qattiq botmaydi. Evfemizmni o‘rinli qo‘llash kishining madaniyatliligini bildiradi. Turmush o‘rtog‘ining ismini aytmaslik (masalan, *dadasi*, *dadajonisi*, *oyisi* deyish yoki katta farzandining ismi bilan chaqirish), sizlash kabilarni ham evfemizmga misol qilish mumkin.

Evfemizmning aksi ***disfemizm*** (grek tilida bu so‘z „qo‘pol gapirmoq“ ma’nosida qo‘llangan) deyiladi. Masalan, *yomon bo‘libdi* tushunchasi uchun qo‘llangan *rasvo bo‘libdi*, *kasal* tushunchasi uchun qo‘llangan *dard uribdi* ifodalari disfemizmga misol. Nutqda disfemizmni ko‘p qo‘llash kishining madaniyatsiz ekanini ko‘rsatadi.

Demak, disfemizm va evfemizm ikki chekkada, betaraf ifoda esa ular o‘rtasida turadi: *joni chiqdi – o‘ldi – uzildi* kabi.

10.4- mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. „Bir tonnalik beton plita shunchaki o‘z og‘irligini ko‘tarolmay chokidan uzilib ketdi, bir emas, uch qavatni bosib qoldi. Yaxshiyamki, kechasi bo‘lgan. Agar shu falokat ertalab, maktab bolasi o‘qishga ketayotganida yoki kechqurun odamlar ishdan qaytayotganida ro‘y bersa …“ (*O‘.Hoshimov*)

Nuqtalar o‘rnida muallif nazarda tutgan fikrni qo‘ying:

A. Zudlik bilan yangisini qurishga buyurtma berilardi.
B. Talafot juda katta bo‘lardi.
C. Odamlar beton tagida qolib o‘lardi.
D. Katta yo‘l to‘silib qolardi.

2. „Xato qilyapsiz!“ murojaati ijobiy ma’noda qo‘llangan qatorni toping.
A. Siz yanglishyapsiz.
B. Fikringiz mutlaqo noto‘g‘ri.
C. Noo‘rin gapirmang.
D. Haqiqatdan juda uzoqlashyapsiz.

10.5-mashq. Yoshi ulug‘ odamlarga nisbatan qo‘llanadigan evfemizmlarni uslubiy bo‘yog‘iga ko‘ra tartiblang.

Sochlari oqargan; sochiga oq oralagan; yuzlarini ajin bosgan; belidan quvvat ketgan; sharti ketib, parti qolgan; ko‘zidan nur ketgan; so‘nggi manzilga tayyorgarlik ko‘rayotgan; yoshi o‘tgan; yoshi bir joyga yetgan; yoshi ulg‘aygan; qarigan; keksalik nuqsi urgan; to‘ridan go‘ri yaqin; o‘limi yaqin; umrining kuzagi o‘tib, qishi boshlangan; qartayib qolgan; umri poyoniga yetib qolgan; pishib qolgan; yo‘li oxirlagan.

10.6-mashq. Berilgan so‘zlar qatorini davom ettirish bo‘yicha musobaqa uyushtiring:

1) boshi ochiq – uylanmagan, ro‘zg‘or qilmagan, …
2) sergap – mahmadona, ...
3) semiz – to‘ladan kelgan, …
4) yengiltak – oyog‘i yengil, …

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Evfemizm va disfemizmlar, asosan, qaysi uslublarda qo‘llanadi? 2. Mehmondorchilik bilan bog‘liq qanday evfemizmlarni bilasiz? Rolli o‘yin (dialog) shaklida namoyish qilishga urinib ko‘ring. 3. Masallarni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarning o‘rnida quyida berilgan evfemizm va disfemizmlarni qo‘llab, yuzaga kelgan farqni izohlang:

– Odamlar **g‘alati**da, devorning qulog‘i bor, sekin gapiringlar, deb meni **gunohkor** qilishadi, – debdi Devor. – E’tibor berma, ular bir-birlaridan shubhalanib, sendan xavotirlanishadi, – debdi Shift.

***

– Namuncha yerga **yopishmasang**, – debdi Shamol.
– Yerning mehri o‘ziga tortadi-da, – debdi Qor.

***

– Toshko‘mir buncha qop-qora, **xunuk** bo‘lmasa, – debdi Kesak.
– Sirtdan baho berma, uning bag‘ri naqadar issiq, – debdi Tosh.

(„Onalar_kanali“dan)

Tavsiya etilgan so‘zlar: *ajoyib, betayin; aybdor, jinoyatchi; qapishmasang, tutashmasang; ko‘rimsiz, badbashara.*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

10.1-topshiriq. *„Kishining qalbi shishadek nozik“* mavzusida evfemizm va disfemizmlar haqida matn yarating.

10.2-topshiriq. Matnni audionutq shaklida taqdimot qiling.

11-mavzu. OLMOSHLAR USLUBIYATI

11.1-mashq. She’riy parchalar bilan tanishing. Olmoshlarni topib, ularning badiiy matnlarda qo‘llanishiga e’tibor bering. She’rlarda olmoshlar nima maqsadda takror qo‘llangan deb o‘ylaysiz?

I. Kimki sening aybingni aytur sanga,
Shafqat ila lutf-u karam qil anga.

(Poshshoxoja)

II. Kim ko‘ribdir, ey ko‘ngil, ahli jahondin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘.

(Bobur)

III. Hayot ummonida bir-birin bilmay,
Shunday, biz to‘qnashib qoldik daf’atan.
O‘zing ayt, ne qilay, aytgil, ne qilay,
Qanday ayrilayin endi men sandan?

(R. Parfi)

IV. O‘chib borayotir qanchalar kalom,
Ne-ne bitiklar ham yo‘qdir, vassalom.
Dunyoda faqat bir sobit suxan bor:
U – o‘z farzandingga o‘zing qo‘ygan nom.

(A. Oripov)

11.2- mashq. Berilgan matnlardan olmoshlarni aniqlab, uslubiy qo‘llanishi yuzasidan „*Muhokama daqiqalari*“ ni uyushtiring.

1. – Domlajon, shugina o‘qisin, odam bo‘lsin, deymiz-da. Otasi ham, men ham bundan hech narsamizni ayamaymiz. Xudoga shukur, bu ham yuzimizni yerga qaratmay kelyapti. *(O. Hoshimov)*

2. Bu atrofda o‘zlaridan boshqa hech kim yashamas ekan-da? Qo‘rqmaysizmi? Tog‘lik joy… *(O. Husanov)*

3. Shunda qayerdandir juda tanish bir ovoz keldi. Birdan sergaklanib alangladi.

– Nahotki… bu Sizmi? Qayerdan paydo bo‘ldingiz? Qanchalar kutganimni bilasizmi Sizni? *(Sh.Isaxonova)*

4. – E, odammisan o‘zi?! – To‘rayev uning tirsagidan ushlab o‘ziga qaratdi.

– Nima bo‘ldi? Tanimayapsanmi? *(Sh.Xolmirzayev)*

5. – Yana men, mengina jonim achiydi, qachongacha shuning ortidan yurmoqchisan-a? *(O. Hojiyeva)*

6. – Tag‘in noto‘g‘ri xayolga borma. U-bu deb qo‘ygan bo‘lsam, aybga buyurma, uka. *(S. Ahmad)*

11.3- mashq. Said Ahmadning ijodkor O‘tkir Hoshimov haqidagi fikrlari bilan tanishing. Matndagi ko‘rsatish olmoshlari uslubiyatiga diqqat qiling. Sizningcha, ijodkorning baxti nimada?

IJODKORNING BAXTI

Men O‘tkir Hoshimov bilan jumhuriyatimizning hamma viloyatlarini, tumanlarini necha martalab aylanib chiqqanman. Qayerga bormaylik, uni odamlar o‘rab oladi, kitoblaridan olgan taassurotlarini to‘lib-toshib gapirib beradilar va albatta, u bilan do‘st-qadrdon bo‘lib qoladilar. Ayniqsa, yosh kitobxonlarning shundoq mashhur yozuvchi bilan suhbatlashganlaridan ko‘zlari yashnab ketadi.

1986- yili O‘tkir Hoshimov shoir Erkin Vohidov bilan Qashqadaryo viloyati tumanlarida kitobxonlar bilan uchrashuvga boradi. Shunday uchrashuvlardan biri Miroqida bo‘ladi. Qo‘llari mehnatda qadoq bo‘lib ketgan bir ayol o‘rnidan turib, yig‘lab-yig‘lab shunday deydi:

– Hozir xudodan vahiy kelsa-yu, „Sening peshanangda yana yigirma yil yashash bor, mabodo umringning qolgan qismini birovga berishga tayyormisan?“ deb so‘rasa, o‘sha yigirma yil umrimni shu ukalarimga bo‘lib berishga tayyorman, deb javob qilardim.

O‘sha ayolning qo‘lida muqovalari qiyshayib, sahifalari sarg‘ayib ketgan „Dunyoning ishlari“ qissasi bor edi. Aftidan, u qissani shu bugun o‘qib tugatgan. So‘nggi sahifalarini o‘qigan-u, yig‘inga kelgan.

… Quva tumanida kitobxonlar bilan uchrashuv bo‘lgandi. O‘shanda Musharrafxon degan qora kiyingan bir ayol O‘tkirning oldiga keldi.

– Bolam, men hu anavi maktabda farroshman. Go‘daklar ivirsitgan sinflarni yuvib tozalayman. Sening onang Poshsha opa ham farrosh bo‘lgan ekanlar, iloyo, joylari jannatda bo‘lsin. Buni men maktab kutubxonasidan olgan manavi kitobni o‘qib bildim. – U qo‘lida ushlab turgan „Dunyoning ishlari“ kitobini ko‘rsatdi.

– Insonning boshi toshdan bo‘lar ekan, bir o‘g‘lim Afg‘on urushida nobud bo‘ldi – chidadim, chidamay ilojim qancha… Kel, bolam, o‘g‘lim o‘rniga o‘g‘il bo‘l. Yozuvchi o‘g‘lim bor, deb yupanib yuray…

U shunday deya nimchasining qo‘ynidan marg‘ilonnusxa do‘ppini oldi va boshing omon bo‘lsin, deb O‘tkirga kiydirdi. (*Said Ahmad*)

Nazariy matn

Ayrim olmoshlar evfemizm sifatida qo‘llanadi.

1. *Men, sen* kabi kishilik olmoshlari vazifasini gap kesimi tarkibidagi shaxsson shakli anglatib turgani uchun so‘zlashuvda (ta’kid ma’nosi bo‘lmasa) bu olmoshlarni qo‘llash unchalik o‘rinli emas.

2. *Biz* olmoshining o‘z-o‘zini ta’kidlamaslik, manmanlik kabi uslubiy xususiyatlarini anglab, to‘g‘ri qo‘llash so‘zlovchi madaniyatidan darak beradi.

Misol: *Bu ishni men qildim. – Bu ishni biz qildik. Siz bizni kim deb o‘ylaysiz?*

3. *Siz* olmoshini qo‘llash, yozuvda gap orasida uni bosh harf bilan yozish ham suhbatdoshga hurmat ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi: *Hazrat, Sizga ixlosim baland.*

4. Kishining ismini aytmay, ba’zan *ular*, o‘*z(lar)i* kabi olmoshlarni qo‘llaymiz. Misol: *Ular (*dadam*) keldilarmi? O‘zi* (Alloh) *biladi*.

Badiiy uslubda, ayniqsa, badiiy matnlarda kishilik olmoshlarining ortiqcha qo‘llanishi matn uslubiyatiga ta’sir qiladi, saviyasini tushiradi.

11.4- mashq. Gaplarni ko‘chiring. Olmoshlarning uslubiy vazifalarini izohlang.

1. – Kelinposhsha, ovqatni suzdingizmi? – Suzdim, oyijon. Bularnikini alohida olib qo‘ydim. *(So‘zlashuv)* 2. – E, Qalashboyevmi? Chayqovchi u, bizning molni

qishlog‘idagi do‘konga oborib ikki hissa qimmatiga sotadi. Bular o‘ziga oladi, hojatlarini chiqarish kerak. *(F. Musajonov)* 3. Bu kishim namuncha tez arazlamasa? *(O. Hojiyeva)* 4. Ishni senlar buzdingmi, hammasi uchun endi o‘zlaring javob berasanlar! *(A.Ilhomov)* 5. Rahmat, muxbir uka, umid qilamanki, hujjatlarimizni ko‘rib chiqib, o‘sha fisq-u fasodchilarning yozganiga yana qaytib ishonmaysiz! *(O. Yoqubov)* 6. – Bu bog‘ni kim barpo qilibdi o‘zi? – Biz-da, xo‘jayin, qo‘ldan kelgancha… *(T. Malik)*

11.5- mashq. Testni yeching va javobingizni izohlang.

1. Qaysi gapda *biz* olmoshi kamtarlik ma’nosida qo‘llangan?

A. Biz baxtli bo‘lamiz, xudo xohlasa.
Xudo xohlamasa, uchrasharmidik.
(M. Yusuf)

B. Mehnatsiz bir nafas yo‘q, biz ilhomga shaydoyi.
(*Mirtemir)*

C. Tavba, bundoq o‘ylab qarasam, bizning uydagilarning hammasi qaribdi. (*S. Ahmad*)

D. Biz shunaqa odammiz, „hayot“ni bilamiz-u, „mamot“ni bilmaymiz, tushundingmi, ziqna? *(T. Malik)*

2. Berilgan gaplarning qaysi birida *Uyda hech kim yo‘q, bular ham ishga ketganlar* gapidagi *bular* olmoshi o‘rnida uning „qattiq“ ifodasi qo‘llangan?

A. Uyda hech kim yo‘q, turmush o‘rtog‘im ham ishga ketgan.
B. Uyda hech kim yo‘q, erim ham ishga ketgan.
C. Uyda hech kim yo‘q, adasi ham ishga ketganlar.
D. Uyda hech kim yo‘q, jufti halolim ham ishga ketganlar.

11.6- mashq. Matnlardagi noodatiy qo‘llangan olmoshlarni aniqlang.

1. – Sen gapir, – dedi kuyov.
– O‘zi gapirsin-da, – dedi qayliq.
– Nimani gapirayin?
– O‘zimizning oqshomlardan gapirsin. Qirdagi bug‘doy o‘rimidan gapirsin.
– Sen gapir... Men senga zardoli terib berganimni.
– O‘zi gapirsin, qo‘llari zardoli shoxlarida bo‘lsa-da, ko‘zlari qayda ekanini... *(T. Murod)*

2. – O‘zi beraman desa, qo‘shqo‘llab beradi. Sendan-mendan so‘rab o‘tirmaydi. Ma, ol, qulim, deydi. Mana ko‘rasan...

– Aytganingiz kelsin, otasi. *(T. Malik)*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Evfemizmlarni qo‘llash oilaviy muhitga qanday ta’sir ko‘rsata oladi?
2. Er-xotin munosabatlarida III shaxs ko‘plik olmoshi qo‘llanadi. Bu odatning sof milliy ildizi haqida o‘ylab ko‘ring.
3. She’riy parchalarni o‘qing. Noo‘rin qo‘llangan kishilik olmoshlarining uslubiyati haqida fikrlashing.

1. Yurakka yoqadi har so‘zing,
Shaydo aylagan meni ko‘zing,
Mening butun boyligim o‘zing,
Kim uchundir bir inondirsan,
Lek men uchun butun dunyosan.

(*Zafar Sobitov*)

2. Seni deb yashayman ikki dunyoda,
Faqat sen yashaysan mitti yurakda.
Baxtimga doimo bo‘lgin deb omon,
Men seni yo‘qotgim kelmas hech qachon.

(*Shamshod Safar*)

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

11.1-topshiriq. Olmoshlarning qaysi ma’noviy turlari uslubiy vazifa bajarishi xususida nutq tayyorlang.

11.2-topshiriq. Nutqingizni audionutq shaklida taqdimot qiling.

MUSTAHKAMLASH DARSI

1-topshiriq. Matn bilan tanishing. Ajratilgan olmoshlar uslubiyatini izohlang.

„Hammaning kelini abitta o‘tiriib kashta tiksa, **meniki** kitobga termiladi! Olima-da!“ Qudasi Qurbon kampirning ma’rakada katta-kichikka eshittirib va atayin **unga** tegizib shang‘illashi Sobira xolaga og‘ir botdi. **U** ma’rakadan so‘ng boshda tuguni bilan qudasinikiga o‘tdi.

– Quda, – dedi. – Mana **siz** kelin-kevat ko‘rgan kayvoni xotinsiz. **Mangina shu** yosh, nodon qizimni **sizga** topshirganmanki, bilmaganini o‘rgatar, **o‘zi** bovlab olar deb. Lekin, haligi, ma’rakadagi gapingiz teshib ketdi-da **meni**, quda!

Shunday dedi-yu, ovozi titrab, ko‘ziga yosh keldi. Qurbon kampir kesatig‘i qudasiga alam qilganini sezdi-da, ichidan yayrab ketdi. „O‘l-a, achitibdi-ku gapim“, – deb xayolidan o‘tkazdi va yumshoq ohangda:

– Ha, endi, og‘izning darvozasi yo‘q, bir chiqib ketgandir-da, bunga xafa bo‘lmang, – dedi. – To‘g‘ri, Ma’sumaxon yaxshi, mehnatkash, qobil juvon. Kelinim bor, desa arzigulik. Odobi ham joyida. Ammo... shu, bo‘sh qoldimi, o‘quvradi-o‘quvradi... Yuraklarim siqilib ketadi, **shuginaga** qarab! Hoy, deyman, kelin, **siz o‘zingiz** bir kolxozchi bo‘lsangiz, o‘qib, nima, shahar olib berarmidingiz eringizga! Undan ko‘ra kashta tiking, ko‘rpa-yostiq qoplang. Bekordan xudo bezor, deb **mundoq** nasihat qilsam, bezrayib turaveradi. Miq etmay uyiga kirib yana kitobga termiladi. Ana, innakeyin **menikiyam** alanga oladi-da, quda! *(A.Ibodinov)*

2-topshiriq. Berilgan iboralar va maqollarga mos izohlarni tanlang.

1. Ot tepkisini ot ko‘tarar.
2. Oyog‘i uzangiga yetmagan, qo‘yniga yarimta non ketmagan.
3. Zamonaning ozgani – otdan eshakning o‘zgani.
4. Yaxshi it o‘ligini ko‘rsatmas.
5. Bozor ko‘rgan echkidan qo‘rq.
6. Turkistonda qo‘y bir so‘m, kela-kela o‘n bir so‘m.

Izohlar: *a) aqlli odam o‘z g‘amini o‘zi yeb, birovga og‘irligini tushirmaydi; b) narx-navoning oshishi, qimmatchilik; d) mardga mardlik qilmoq, mard xatoni kechira oladi, nomard bunga qodir emas; e) noshud, nodon, bo‘lmas odam; f) ayyor, tullak odam hamisha xavfli; j) donolar ustidan nodonlarning g‘olib kelishi.*

3-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘zni tanlang.

1. Aylanayin So‘fi Olloyor hazratim, sadag‘angiz ketayin, hazratim, menga shafqat qiling. Ko‘pga bergan tirnoqni mendan-da … (ayamang, darig‘ tutmang, qizg‘anmang). (*T. Murod*) 2. … (Basir, Ko‘zi ojiz, Ko‘r) ham hassasini bir marta yo‘qotadi. (*Maqol*) 3. Bu libos yoshingizni … (katta, qari, keksa) ko‘rsatyapti. (*So‘zlashuvdan*) 4. Onasi, shu yerdamisan, fotihaga kelganlarga

… (daraxt, nihol, ko‘chat)ning hammasini ulashinglar, ikkitadan, uchtadan beringlar. Jannatdan chiqqan mevalar bular, denglar. (*X. To‘xtaboyev*) 5. Ma’lum bo‘lishicha, Oyqiz Bahodirga bolaligidayoq … (beshikkerti qilingan, atalgan, qulog‘i tishlatilgan) ekan. (*Sh.Xolmirzayev*) 6. Malika …. (balog‘atga yetgan, voyaga yetgan, bo‘y yetgan)da husni jamolining ovozasi yetti iqlimga yoyilibdi. *(Ertakdan)*

4-topshiriq. Qatorni davom ettiring:

1) harbiy sir talabiga ko‘ra harbiy qismlar, hududlarning shartli belgilari: „A“ punkti, „OMON“chilar…;

2) kasallik nomlarini oshkor etmaslik tabulari: gul, to‘qson to‘qqiz,…;

3) katta yig‘inlarda, obro‘li odamlar ichida etikani saqlash nuqtayi nazaridan qo‘llaniladigan tabular: yuqori, hurmatli boshlig‘imiz,…;

4) murojaat bilan bog‘liq evfemik vositalar: taqsir, menga qarang,…;

5) an’analar bilan bog‘liq evfemik vositalar: „chilla saqlash“, „otako‘rdi“,...

5-topshiriq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

I. 1. Ayiq; 2. Kenguru; 3. Bug‘u; 4. Sigir; 5. Humo. Ushbu „muqaddas“ nomlar qaysi davlatlarda inson himoyachisi sifatida talqin qilinadi?

A. AQSHda – ayiq, Avstraliyada – kenguru, Kanadada – bug‘u, Hindistonda – sigir, O‘zbekistonda – humo.

B. AQSHda – bug‘u, Avstraliyada – kenguru, Kanadada – ayiq, Hindistonda – sigir, O‘zbekistonda – humo.

C. AQSHda va Avstraliyada – kenguru, Kanadada – bug‘u, Hindistonda – humo, O‘zbekistonda – sigir.

D. AQSHda va Kanadada – bug‘u, Avstraliyada – kenguru, Hindistonda – sigir, O‘zbekistonda – humo.

II. Qaysi gapda olmosh evfemizm sanaladi:

A. O‘zlari ijozat bersalar, mashg‘ul bo‘lur edik.

B. Odam ham o‘z-o‘ziga dushman bo‘lishi mumkinmi?

C. O‘shalarning gapiga kirib, ayniding-qo‘yding.

D. Bugungi ishimiz sizga ajoyib tuyilayotgandir.

6-topshiriq. Quyidagi fikrni davom ettiring, matnda qo‘llangan olmoshlar uslubiyatini izohlang. *Shuni unutmangki, hayotdagi sinovlar insonni yengib qo‘ymasligi kerak, chunki ular...*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Narsa-voqea va joylarni muqaddaslashtirish qanday omillarga bog‘liq?
2. Bugungi kunimizda olovga sig‘inish e’tiqodining qaysi qoldiqlari yashab kelmoqda?
3. Matnni o‘qing. Yashirin so‘zlarni qo‘llash zaruriyati nima uchun kerak?

– „Lochin“, „Lochin“, meni eshityapsizmi? „Shunqor“man, zudlik bilan aloqaga chiqing.

– „Shunqor“, men „Lochin“man, sizni yaxshi tushundim. „Ov“ga chiqqan K.R.ning iziga tushdim.

– Yaxshi, „Lochin“, vaziyatga qarab ish tuting. Agar yordam kerak bo‘lsa, men „G“ nuqtadaman.

– Tushundim. Aloqa tugadi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-vazifa. Matnni o‘qing. So‘z qo‘llash bilan bog‘liq xulosangizni yozing.

Har xil sabablarga ko‘ra taom tanovul qilinayotganda davra ahlidan birortasining tomog‘ida ovqat qolib (bu tabiiy holat) yo‘talishi mumkin. Shunda „Shoshilmay yeng“, „Sekin yeng-da“ degan qo‘pol gaplar aytilmay, aksincha, „Osh-osh“ (*osh bo‘lsin* ma’nosida), „Razzoq“ yoki „Razzoq-razzoq“ (*rizq beruvchi O‘zi* ma’nosida) iboralaridan foydalanilgan holda yo‘taluvchini xijolatdan chiqarish madaniyat hisoblanadi. Yo‘taluvchi yosh bola bo‘lsa, yuqoridagi so‘zlar aytilib, yelkasiga qoqib qo‘yiladi.

Ba’zan davra ahlidan birortasini hiqichoq tutganda „Kimning haqini yedingiz?“ deyiladi. Bu noo‘rin ibora o‘rniga odatimizga ko‘ra „Uzoq nafas olmay turing“ yoki „Yetti qultum suv iching, o‘tib ketadi“ deyish jo‘yali hisoblanadi. *(J. Omonturdiyev)*

2-vazifa. „*Tig‘ yarasi bitar, til yarasi bitmas*“ maqoli asosida ijodiy matn yarating.

NAZORAT ISHI

12-mavzu. MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

12.1-mashq. Matn bilan tanishing.

Turkiston xonlig‘i tarixidan xabardor kishilarga ma’lumdirki, Amir Umarxon oxir umrida o‘z saroyidagi yosh kanizlardan biriga **muhabbat qo‘yadir**. Kaniz yosh bo‘lg‘anligi va **balog‘atka yetmaganligi** uchun uni **nikohiga ololmay** vaqt kutadir. Shu kutib yurish yillarida Umarxon murodiga yetolmay **vafot qiladir**, taxtka o‘g‘li Madalixon **minadir**.

Oradan bir necha yillar o‘tib, boyag‘i kaniz qiz balog‘atka erishadir va bir husniga o‘n husn qo‘shulib, otaning bolasi bo‘lg‘an Madalixonni ham o‘ziga oshiq qiladir. O‘z saroyida o‘skan bu qizni yosh xon hamisha **ko‘z o‘ngida yuritsa** ham, **biroq**... **tarixning** bizga xabar berishiga **qarag‘anda,** Madalixon shu qizning dardida necha yillar yonadir. Chunki ulamolar bu go‘zalni Madaliga ona maqomida hisoblab, nima uchundir xonning **orzusig‘a ko‘ndalang keladirlar**: „Otangiz, agarchandi kanizni o‘z nikohlariga olmag‘an bo‘lsalar ham, lekin balog‘atka erishgach olarman, deb niyat qilganlar. Binobarin, bu kaniz sizga ona maqomida, **shari’at ruxsat bermaydir**!“ *(A.Qodiriy)*

12.2-mashq. „Mehrobdan chayon“ asaridan olingan ushbu parchaning davomi bilan qiziqib ko‘ring. Voqea qaysi ayanchli hodisa bilan tugaydi?

12.3-mashq. Matnga sarlavha toping va reja tuzing.

12.4-mashq. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan evfemizmlar o‘rniga quyida berilgan so‘zlarni qo‘yib, qayta o‘qing va xulosangizni ikki jumlada bayon qiling.

Sevmoq, yetilmaganlik, uylanmoq, o‘lmoq, podsho bo‘lmoq, saqlamoq, to‘siq bo‘lmoq, chiqmoq, xotin qilib olishga qarshi.

12.5-mashq. Ikki guruhga bo‘linib, matnda qo‘llangan ko‘hna so‘zlarning bugungi muqobili bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.

Xonlig‘i	Xonligi

12.6- mashq. Izohli lug‘at yordamida quyidagi so‘zlarning ma’nosini tushuntiring: *kaniz, ulamo, maqom, shariat.*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

12.1- topshiriq. Matnni o‘qing. Usta nima uchun „adashgan“i haqida fikr-mulohaza yuriting.

Aka-uka otalaridan qolgan hovlida kun kechirar edilar. Bir tushunmovchilik sabab oralariga sovuqchilik tushdi. Kunlar o‘tgani sayin o‘rtadagi jarlik kattalashib bordi. Oxir-oqibat hovlining qarama-qarshi tomonlariga uy solib yashay boshlashdi.

Bir kuni akaning eshigi taqilladi. Ostonada katta yoshlardagi odam turardi.

– Men ustaman, – dedi u, – ish qidirib yuribman. Balki, hovlingizda menbop yumush topilib qolar.

– Ha, albatta! Hovlini kesib o‘tgan ariqni ko‘ryapsizmi? O‘tgan haftada ukam kavlatdi, o‘zicha hovlini ikkiga ajratib, yerni chegaralab qo‘ydi. Bu yerda yetarlicha taxta bor, – dedi aka omborxonasiga ishora qilib. – Siz hovlini butkul ajratish uchun o‘sha ariq bo‘ylab to‘siq qurib bering.

Usta darhol ishga kirishdi. Taxtalarni olib chiqdi, o‘lchab kesdi, randaladi. Bu orada ohorli kiyimlarini kiyib olgan aka uyidan chiqib kelib so‘radi:

– Men shaharga bozorga ketyapman. To‘siq uchun yana biror narsa kerak emasmi?

– Rahmat, hamma narsa yetarli, – javob berdi usta.

Kechga yaqin shahardan qaytgan akaning jahli chiqdi, chunki usta ariq ustiga ko‘prik qurib qo‘ygandi.

– Men sizga to‘siq quring, degandim-ku! – dedi g‘azab bilan ustaga qarab. Usta javob berishga ulgurmasidan ko‘prikni ko‘rgan uka ular tomonga yura boshladi. Akasining xohishi bilan qurildi, deb o‘ylab xursand bo‘ldi. Shoshib ko‘prikdan o‘tdi va akasini quchoqladi. Ariq qazdirgani, qo‘pol muomalasi uchun uzr so‘radi. Ikkovlari suhbatga kirishib ketishdi. Bu orada anjomlarini yig‘ishtirib, ketishga hozirlanayotgan ustaga aka: „Shoshilmang, mehmonimiz bo‘ling“, – deb taklif qildi. U esa:

– Rahmat, qololmayman. Men hali juda ko‘p ko‘priklar qurishim kerak, – dedi tabassum bilan va yo‘lida davom etdi.

12.2- topshiriq. Fikringizni asoslab beruvchi maqollar topib yozing.

13-mavzu. SO‘Z VA IBORA TENG EMAS

13.1-mashq. Matnni tinglang. Iboralarni aniqlab, ularga mos izohlar toping. Asar tilining hissiy ta’sir kuchida iboralarning qanday ahamiyatga ega ekaniga diqqat qiling.

Qobiljon direktorning kabinetidan lattadek bo‘shashib chiqdi. U qabulxonada o‘tirganlarga loqayd nazar tashladi-yu, tez yurib koridorga burildi.

– Siylaganni sigir bilmas, deb shuni aytadi-da. Ishga yangi kelganda idoraning past-balandini tanishtirgan kim edi, shuni bilmadi-ya. Uyalmaganini qarang, uni odam qilguncha qoqqanda qozig‘im, osganda cho‘michim qolmadi!

Qobiljon tepa sochi tikka bo‘lib, koridorning u boshidan bu boshiga o‘zidan o‘zi g‘o‘ldirab, shu tarzda borib-kelib turardi. Kadrlar bo‘limining eshigi ochilib, qo‘sh ko‘zoynak taqqan o‘rta yoshli bir kishi chiqdi.

– E Qobiljon, nima qilib yuribsiz, hujjatlaringizni qachon rasmiylashtirasiz?

… Qobiljonning ko‘zidan o‘t chaqnab ketdi. Direktorning boyagi „Ishni eplay olmayotibsiz, bo‘shatishga to‘g‘ri keladi“ degan gaplari esiga tushdi. „Yegan yog‘-u go‘shtlaring ko‘r qiladi hali seni, shuncha sovg‘a-salomlarni ham andisha qilmading!“ deb, ko‘zoynakli kishiga qarab:

– Harqalay, zakon biladigan kishisiz, bir yo‘l ko‘rsating, – dedi. *(S.Ahmad)*

13.2-mashq. Gaplardagi iboralarni aniqlab, ularni berilgan so‘z va birikmalar bilan almashtiring. Qaysi birida bo‘yoqdorlik kuchli ekanini izohlang.

Shved olimlari yaqinda tabassum vaqtida ajralib chiqadigan baxt gormonlarini hisoblab chiqishibdi.

Ochiq yuz bilan birgina tabassum qilish 400 dona plitka shokoladni iste’mol qilganchalik samara berar ekan. Endi lotereyada omadingiz kelmasa ham, **qulfi dilingizni ochadigan** latifa tinglamasangiz ham, **do‘ppingizni osmonga otavering. Ko‘nglingiz xush bo‘lsin**, axir tabassum tekin-ku! Buning ustiga **qora terga botgulik** hech qanday quvvat sarflamaysiz.

Qarang-a, mana man degan shved olimlari kulgi kuchini endigina aniqlagan bo‘lsalar, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) bir necha yuz yillar oldin **tabassum hadya etishning** yashirin sirlaridan boxabar bo‘lganlar va doimo tabassumda yurishni maslahat berganlar. *(„Norbekov.uz“ saytidan)*

Tavsiya qilingan izohlar: *mamnun qiladigan; xursand bo‘lavering; shod bo‘ling; nihoyatda charchash; kulib qarash.*

Nazariy matn

So‘zlar uslubiy bo‘yoqli yoki bo‘yoqsiz bo‘ladi. Iboralar esa har doim bo‘yoqdor. Ibora o‘zi ifodalayotgan tushuncha bilan so‘zga teng, lekin bo‘yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Shuning uchun iborani so‘z bilan har doim ham almashtirib bo‘lmaydi.

Ibora boshqa tilda aynan muqobilga ega emas. O‘zlashma ibora bo‘lmaydi.

Iboralarni ko‘p qo‘llash til bilimi va nutqiy salohiyat yuqoriligidan dalolat beradi.

13.3-mashq. Gaplardagi ajratilgan so‘zlarni berilgan iboralar sirasidan mosi bilan almashtiring.

1. Siz **quvonganingizda** o‘zingizdan quvonch energiyasini tarqatasiz, **kayfiyatingiz yaxshilanadi** va uni qayerga yubormang, sizga quvonchli tuyg‘ular, quvonchli vaziyatlar **quvnoq** odamlar bilan qaytib keladi. Masalan, radiodan **yoqtirgan** kuyingizni tinglab **xursand bo‘lsangiz**, **kutilmaganda** hayotning tuhfasiga ega bo‘lasiz, kayfiyatingiz chog‘ bo‘ladi – bularning hammasi tortishish qonunining kuchidir. *(Deyl Karnegi)*

Iboralar: *ko‘ngil chog‘ligingizda, ko‘ngil ravshanligingizda; bahri dilingiz ochiladi, ko‘nglingiz ko‘tariladi; labidan kulgi arimaydigan, chehrasi ochiq; ko‘ngilni ko‘taradigan, ko‘ngilga xush keladigan; boshingiz ko‘kka yetsa, dimog‘ingiz chog‘ bo‘lsa; hash-pash deguncha, ko‘z ochib yumguncha.*

13.4-mashq. Quyidagi iboralar asosida og‘zaki gaplar tuzing.

Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan; nomi ulug‘, suprasi quruq; katta boshini kichik qilmoq; dami ichida qolmoq; suvdan quruq chiqmoq.

13.5-mashq. Ikki guruhga bo‘linib, *„Bu so‘z bizniki“* musobaqasini o‘tkazing. Berilgan iboralarni 1-guruh sinonimik juftlik, 2-guruh antonimik juftlik shaklida yozsin.

Yerga urmoq; ko‘kka ko‘tarmoq; yuragi keng; yuragi tor; ko‘ngli joyiga tushdi; yuragiga g‘ulg‘ula tushdi; almisoqdan beri; almisoqdan qolgan; ammamning buzog‘i; og‘zing qani desa, qulog‘ini ko‘rsatadi; anqoga shafe; anqoning urug‘i; jag‘ida jag‘ qolmadi; og‘ziga mum solgan; jag‘i tinmadi; labi labiga tegmaydi; og‘ziga muhr bosilgan; og‘zida osh damlamoq.

13.6- mashq. Omonim ibora qatnashgan gap juftliklariga diqqat qiling. Ularning ma'nosini izohlang.

1. Bugun, nihoyat, askarlarga dam berildi. Mashina balloniga nasos bilan dam berildi. 2. Haziling bor bo'lsin, kulaverib ichaklarim uzilayozdi. Uzoq vaqt ovqat yemay ochiqqanimdan ichaklarim uzilayozdi. 3. Uzumingiz boshini yeb solibdi-ku. Ocharchilik ancha odamning boshini yeb ketdi. 4. Bu qiz shuncha qilgan yaxshiliklaringizni bilmay, sizdan yuz o'girdi. Endigina chaqirish uchun og'iz juftlamoqchi edim, o'zi men tomonga yuz o'girdi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Metafora yo'li bilan hosil qilingan iboralarga misol keltiring.

2. *Kalima keltirmoq va kalima o'girmoq* iboralari orasida qanday farq bor? Misollar bilan tushuntirishga harakat qiling.

3. Suhbat matnini o'qing. Unda qo'llangan iboralarning izohli lug'atini tayyorlang.

– Anavi xolang jag'i tinmay biram sayradi, biram sayradi. Eshitib o'tiraverib bag'riginam xun bo'ldi.

– Tavba, aravani quruq olib qochganini qarang. Suprasida chaksa un yo'q, uyida sichqonlar hassa tayanib qolgan, lekin tom boshida qo'sh tandir, deb shunaqalarni aytishadi-da.

– Lom-mim demay, hammasini ichimga yutdim. Bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda odam bilan tortishib, nima baraka topdim?

– Ha, burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirganingiz qolardi. Tortishmay yaxshi qilibsiz. Bir kuni insofga kelib qolar.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

13.1- topshiriq. Berilgan sinonim iboralardan tanlab, matn tuzing.

Yer bilan yakson bo'lmoq – kuli ko'kka sovrilmoq;
avzoyi buzilmoq – kayfi buzilmoq;
ichidan pishgan – yutsa, dumini ko'rsatmaydi;
kun og'di – qosh qoraydi;
olinmagan buzoqqa qoziq qoqmoq – tug'ilmagan bolaga ism qo'ymoq.

13.2- topshiriq. „Iboralarning nutqimizdagi ahamiyati" mavzusida bahs-munozaraga tayyorlaning.

14-mavzu. MAQOLNI O‘RINLI QO‘LLASH

14.1-mashq. Matn bilan tanishing. Maqollarni aniqlang va matn badiiyligida maqollarning qanday o‘rni borligi xususida fikrlashing.

„Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin“, – deganlari shu-da…

El og‘zida „Ot bosgan joyni toy bosadi“, degan naql yuradi. Shunga ko‘ra Tursunali ot bo‘lsa, shogirdi toy misol edi. Qo‘polroq tarzda tavsif berilsa, Tursunali tupurgan-u, u yalagan edi. Ustozi qamalganida uning ham paytavasiga qurt tushdi. Har holda ustozi oshni o‘zi oshalagani bilan unga yalatib turardi. Yangi direktor Yaratganga emas, rahbarlariga shukur qiladi: hartugul o‘sha laganlarni olishdi-yu, yalaganlarga marhamat darvozalarini ochishdi. Ular anglashmadiki, yaloqxo‘rlarning nafsi o‘sha laganlardan ham buzuqroq bo‘ladi. „Oshalagan qorni to‘ygunicha yeydi, yaloqxo‘r esa ko‘zi to‘ygunicha“. Ko‘zning hech qachon to‘ymasligi esa barchaga ayon. Xususan, kattalarning xizmatini qilib yurib, fe’l-atvorlarini bilib olgan Toshboltaga ham ma’lum bu. Shu sababli qizi tilga olinganda uning ko‘zlarini o‘yib olgisi kelgan bo‘lsa-da, o‘z aravasini o‘zi tortib ketishga qurbi yetmasligini bilgani uchun o‘zini tiydi. „Yaloqxo‘r“ deb yangi direktordan nafratlangani bilan tirjayib, unga qulluq qilib turishga majbur edi…

– Ming qilsayam, urug‘ urug‘-da, – dedi. – Et bilan tirnoqni ayirib bo‘lmaydi... *(T. Malik)*

14.2-mashq. Matnlardagi maqollarni aniqlab, oddiy gaplar bilan almashtiring.

I. – O‘rtoq direktor, menga tuhmat qilyaptilar. Sakkiz yildan beri shu idorada ishlayman. Shu sakkiz yil ichida uch direktor o‘zgardi. Hammasi bilan juda totuv ishladik, birortasi menga na ogohlantirish, na vigovor bergan! Odamning olasi ichida bo‘ladi, deb shuni aytishgan-da. Direktorga qilgan yordamlarimning birortasini boshqa odamga qilganimda, itining tuvagi oltindan bo‘lib ketar edi. Bu kishi yaxshiligimni bilmayaptilar. Uyalish kerak, o‘rtoq direktor, menday, musichaday beozor kishini ranjitgani qanday ko‘nglingiz bo‘ldi? *(S. Ahmad)*

II. Ha, endi aqlim kirgan, endi hamma narsaga tushungan edim. Muhabbat – muqaddas tuyg‘u. U soflikni talab etadi. Muqaddas mening o‘zimni ham, sevgimni ham tark etib, ko‘zimni ochgan edi. Xalqning „Insofli odam oshini yer, insofsiz – boshini“ degan maqolida mujassamlangan hayotning eng ulug‘ qonunlaridan biri menga o‘zining shafqatsiz, lekin adolatli kuchini ko‘rsatgan edi. *(O. Yoqubov)*

III. Egachisining beg‘am, beparvo o‘g‘liga qilgan bunday beozor muomalasini hazm qilolmagan Lazokatxon:

– Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. To‘g‘risini aytavermaysizmi, egachi! – deb zarda qildi. Keyin O‘ktamga yuzlandi:

– Salgina tobi qochganmas. Oldindan silqovlanib yurardi onang. Endi rasmona kasal bo‘pti. Bod. Xafaqon. Ha, bu kasallari oldindan bezovta qilib yurganini bilmasmiding? Ona rozi – xudo rozi. Shu yarimjon onani yolg‘iz tashlab ketishni qanday vijdonlaring qabul qildi-ya?! Borib turgan oqibatsizlik emasmi bu?! *(H. Nazir)*

IV. „Kimga aza, kimga to‘y? Bularning gapiga o‘laymi, qolaymi, tavba. Shanbada bichma, jumada ko‘chma, derdi onam. Sichqonning ini ming tanga bo‘lmaydimi menga desa“. Shu xayolda jahli chiqib o‘tirgan edi, eshik ochildi. Ichkari kirgan Latifjon ko‘zlarini uqalab, ancha jim turdi. Keyin:

– Shu, shu... volidamiz... haligiday … bandalikni bajo qildilar yangitda, – dedi sekin. – Omonatini topshirdi.

Xursanali ko‘z va og‘zini katta ochib, taxta bo‘lib qotib qoldi. Latifjon qalqib chiqqan ko‘z yoshlarini yashirish uchun yuzini chetga burdi. *(A.Muqimov)*

Nazariy matn

Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri, shu bilan birga, til birligi ham. U – ixcham, mazmuniy va ta’sirchanlik ko‘lami baland ifoda. Maqollar biror nutq vaziyatiga xos bo‘ladi, shuning uchun, ko‘pincha, bir-birini inkor etadi. *Yaxshilik qil, umidvor bo‘l. – Yaxshilik qil – unut.*

Maqollar evfemizm vazifasini ham bajaradi.

14.3- mashq. Matnlardagi tegishli gaplarni berilgan maqollarning mosi bilan almashtiring. Fikr mazmunida yuzaga kelgan farqni izohlang.

1. – Yolg‘izligim, yakkaligim kimga xalal beryapti, ena?

– **Ko‘pchilikdan ayrilib, nima karomat toparding**, bolam, bunday shumshayib o‘tiraverganing bilan ish o‘z-o‘zidan yurishib qolmaydi-ku. Oshna-og‘aynilaring, yor-do‘stlaring bilan kengash, birgalikda harakat qil.

Yolg‘iz tuya baqiroq bo‘lar, yolg‘iz bola yig‘loq bo‘lar.

Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas.

Yolg‘iz daraxt o‘rmon bo‘lmas.

2. Bir o‘rmonda bolta paydo bo‘lib, daraxtlarga qirg‘in keltiribdi. Og‘ochlar unga qarshi chora topolmay, qari Emandan maslahat so‘rashibdi. „Bolta deganla-

ring nima o‘zi? U nimadan ishlangan?“ – deb so‘rabdi Eman. „Bolta – temirdan yasalgan bir matoh“, – deb javob beribdilar. „O‘zi-ku, temir ekan, dastasi-chi? Dastasi ham temirdanmi?“ – deb so‘rabdi Eman. „Yo‘q, – debdilar, – dastasi – og‘ochdan, o‘zimizdan“. **„Dastasi o‘zimizdan bo‘lsa, unga chora yo‘q“,** – degan ekan Eman.

O‘zingdan chiqqan baloga qayga borasan da’voga.

Manglayingga uradigan toshing ham o‘zingdan bo‘lsin.

O‘zingdan o‘tganni o‘zaging bilar.

3. Jolinus hakim bir kimsa donishmand bir zotning yoqasidan tutib, uni haqorat qilayotganini ko‘rdi va shunday dedi:

– **Agar bu odam chindan ham dono bo‘lganida, uning bir nodon bilan ishi shu darajaga bormas edi**.

Dono bilan nodon bir buloqdan suv ichmas.

Dono qarisa ham, donoligi qarimas.

Nodon so‘zlar – dono ibrat olar.

14.4-mashq. Maqollar juftligini o‘qing. Ularning bir-birini inkor etishi yuzasidan „Fikrlar jangi“ni tashkil qiling va o‘z mulohazangizni bayon eting.

1. Gap bilan kerilma, ish bilan keril. ⟷ Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga.

2. Tekin bo‘lsa, mix yut. ⟷ Tekin tomoq tish sindirar.

3. Yomon ko‘rgan kishingga yomon narsangni ber. ⟷ Yomonlikka yaxshilik mard kishining ishidir.

4. Har kim boshiga yog‘gan qorni o‘zi kuraydi. ⟷ Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.

14.5-mashq. Rasmlar asosida yil fasllari bilan bog‘liq maqollar topib yozing.

1.

—

2.

—

14.6- mashq. „Mening taqdimotim“ tanlovini uyushtiring. Berilgan maqollarning qanday vaziyatlarda qo‘llanishi borasida o‘zaro fikr almashing.

1. Uzoq bo‘lsa ham, yo‘l yaxshi, yomon bo‘lsa ham, el yaxshi.
2. Hayronman Shoniyozning ishiga, etik sotib, paytava olib yurishiga.
3. Sulaymon o‘ldi – devlar qutuldi.
4. Tuyaning tashigani – tilla, yegani – yantoq.
5. Dum tilab, quloqdan ajrabdi.
6. Tosh qattiqmi, bosh qattiqmi?

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutq jarayonida maqollar va hikmatli so‘zlarni qo‘llash qanday ahamiyat kasb etadi? Ular nutq vaziyatini yumshatishga qay darajada xizmat qiladi?

2. Mumtoz adabiyotda maqol qo‘llash bilan bog‘liq qanday she’riy san’at yaratiladi? Misollar keltiring.

3. Berilgan parchani o‘qing. Undagi maqollarning izohini tayyorlang.

– „Ro‘zg‘or – g‘or“, – degan eskilar. Yangi uyga borib olib, rul o‘zimga tegdi deb, tag‘in har tomonga yo‘rg‘alamang, – dedi qaynanam ko‘chishimizdan oldin. – „Ro‘zg‘or tushdi boshga – qo‘l tegmadi oshga“. Tong sahardan bilib-bilib ishingizni qiling. „Erta turganga rizq qo‘sha, erta turmasang, barmog‘ingni osha!“

Qaynanam o‘g‘liga yuzlandi:

– „Hovli olma, qo‘shni ol“, – deyishgan. Senga ming tayinladim, qo‘shnilaringni surishtirdingmi? Qo‘shning yaxshi bo‘lsa, bir umr xotirjam yashaysan. „Gilam sotsang, qo‘shniga sot: bir chetida o‘zing o‘tirasan“.

Endi qaynanamning maslahatlari kunda kerak bo‘lyapti. „Qari bilganni pari bilmas“ deganlari rost chiqdi. *(„Ibratli hikoyatlar“dan)*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

14.1- topshiriq. Berilgan sinonim maqollardan tanlab, matn tuzing va unga shu maqollardan biri asosida sarlavha tanlang.

1. Qo‘shni qo‘shnidan erta turishni o‘rganar.
2. Qo‘shnida pishar, bizga ham tushar.
3. Qo‘shningga yomonlik sog‘inma.

4. Qo‘shning yomon bo‘lsa, yomonlik kelar,
   Qo‘shning yaxshi bo‘lsa, omonlik kelar.
5. Qo‘shnimning bilgani – olamning bilgani.
6. Qo‘shniga yalinma, kinoya so‘z dog‘ etar,
   Qurbing yetsa, ko‘maklash, eshigingni bog‘ etar.

14.2- topshiriq. Tuzgan matningizni audionutqqa aylantirib, maktab vebsahifasiga taqdim qiling.

15- mavzu. TASVIRIY IFODA – KO‘TARINKI NUTQ VOSITASI

15.1- mashq. Matnni o‘qing va unga sarlavha tanlang. Matn mazmunini uch jumlada bayon eting. Ajratilgan ifodalarni mos so‘zlar bilan almashtiring.

Bolaligimda bir kuni onam mendan so‘radi: „Halol“ so‘zini ikki labing ochiq holda ayta olasanmi?“ „Halol“ kalimasini aytishga harakat qilib, ikki labimni bir-biriga yopishtirmay aytdim. Onam ma’qullab, „Endi „harom“ so‘zini ham ikki labing ochiq holda ayt-chi“, – dedi. Bu so‘zni talaffuz qilarkanman, oxirida ikki labim bir-biriga tegib qolaverdi. Shunda onam dedi: „O‘g‘lim, bu – halol va harom orasidagi farq. Halol odamning yo‘li doimo ochiq, **ikki dunyosi** obod bo‘ladi. Harom ishlar esa illatdir, ular hayotingni oxir-oqibat xarob qiladi“.

Darhaqiqat, shunday illatlar borki, ular harom: jamiyatning olg‘a qadam qo‘yishiga to‘sqinlik qiladi. Barcha **yomonliklar kaliti** va odam umrining kushandasi – „**oq ajal**“ga ruju qo‘yish qanchadan qancha oilalarning buzilib, farzandlarning yetim qolishiga sababchi bo‘ladi. Hali **balog‘at ostonasidan o‘tmagan** bolalarning qing‘ir ish va bezorilikka qo‘l urishi esa ota-onalar qaddini egib, sha’nini toptaydi. Bugun raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonining tezlashishi natijasida **taraqqiyot kushandasi**ning **payi qirqilmoqda**. Yoshlarning halol va haromni farqlab olishlari, shubhasiz, **jamiyatga tushgan qurtlar** olamining kamayishiga olib keladi. Insoniyat kelajagiga qora tamg‘a bo‘lgan bu illatlarni **oynayi jahon va hayot ko‘zgusi** orqali ayovsiz fosh qilish, **adolat qo‘rg‘oni** hukmiga topshirish davr talabidir. (*Gazetadan*)

Tavsiya etilgan so‘zlar: *buguni va ertasi; ichkilikbozlik, giyohvandlik, voyaga yetmagan, korrupsiya, tugatilmoqda, jinoyatchilar, televizor, gazeta, sud.*

15.2- mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan ifodalarga mos so‘zlar qo‘ying.

1. Xotira va qadrlash kuni arafasida Toshkentdagi G‘alaba bog‘ida barpo etilgan „Shon-sharaf muzeyi“da birinchi o‘zbek generali – ... ning o‘n tonnalik haykali qad rostladi. 2. Bu kun nafaqat II jahon urushi qatnashchilari, balki ... – afg‘onchilar holidan ham xabar olindi. 3. Insoniyat tinchligi uchun jonini qurbon qilganlar poyiga kelajak bunyodkorlari – ... gulchambarlar qo‘yishdi. 4. Davlatimiz sarhadlarida tinim bilmay sergak turgan tinchlik himoyachilari – ... va kun-u tun halovatimizni ta’minlayotgan osoyishtalik posbonlari – ... hamisha hurmat-e’tiborga loyiqdirlar. 5. Yurtimiz tinch ekan, musaffo osmonda tinchlik elchilari – ... qanot qoqib uchaveradilar.

Tavsiya etilgan so‘zlar: *Sobir Rahimov, baynalmilal jangchilar, yoshlar, harbiylar, ichki ishlar xodimlari, kabutarlar.*

15.3- mashq. Adabiy bilimingizga tayanib, berilgan ifodalarga mos ijodkorlar nomini aniqlang. Ro‘yxatni davom ettirish bo‘yicha musobaqalashing.

1) g‘azal mulkining sultoni;
2) millatni birlikka chorlagan shoir;
3) o‘zbek romanchiligi maktabining asoschisi;
4) o‘zbek she’riyatida vafo va sadoqat timsoli;
5) qisqa hikoyalar ustasi;
6) vaqtga haykal qo‘ygan shoir.

Nazariy matn

Tasviriy ifoda – narsalar nomining bo‘yoqdor muqobili bo‘lgan birikma. U uslubiy chegaralangan, ko‘proq publitsistikaga xos: *1. Yoshlarning **aql gimnastikasi**ga qiziqishlari ortib bormoqda. 2. **Oltin qanot qushlar** uchsin.* Tasviriy ifoda tushunchani bildirishi bilan so‘zga teng, lekin bo‘yoqdorligi bilan farqlanadi.

Tasviriy ifodaga ham omonimlik xos.

15.4- mashq. Ikki guruhga bo‘lining va *„Kim topqir?“* bellashuvini tashkil qilib, jadvalni to‘ldiring.

Bitta predmetga ikki va undan ortiq tasviriy ifoda qo‘llanishiga doir misollar	Ikki predmetga bitta tasviriy ifoda qo‘llanishiga doir misollar
Maqol *– so‘z ko‘rki, otalar so‘zi, fikr qaymog‘i.*	***Bahor elchisi*** *– qaldirg‘och, boychechak.*

15.5- mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. She'riy parchadagi tasviriy ifodaning sinonimlari berilgan qatorni toping.

Onaginam!
O'zing tortma davralardan el chorlaganda,
„Tiriklikning bayrami", deb sozlanganda tor.
O'zing so'lg'in lablar bilan pichirlaganday:
„Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor".
(H. Xudoyberdiyeva)

A. Volidayi muhtaramam, onajonim, boshimdagi parvonam.
B. Fasllar kelinchagi, uyg'onish fasli, yasharish fasli.
C. Xalqdan yashirinma, boshqalardan berkinma, panaga chekinma.
D. Orzu-armonlar, dunyoda bor-yo'qlar, ajdod-avlodlar.

2. Gapda ajratib ko'rsatilgan tasviriy ifodalar qaysi so'zlarga to'g'ri keladi?

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahonda tinchlikni saqlash, tabiatni muhofaza qilish jamg'armalariga eng ko'p xayriya mablag'i *futbol qiroli va „temir musht" egasi* tomonidan amalga oshirilgan ekan. *(Gazetadan)*

A. Messi, Muhammad Ali.
B. Maradona, Klichko.
C. Pele, Tayson.
D. Ronaldo, Pakyao.

15.6- mashq. Tasviriy ifodalar uchun bir umumiy nom topishga harakat qiling. O'zingiz yashaydigan hududda shunga o'xshash joy nomlarini ayting.

Toponimika haqida eshitganmisiz? Bu fan geografik nomlarning kelib chiqishi va lug'aviy ma'nosi haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Ayrimlari bilan tanishing: Albaniya – „Tog'lilar yeri", Argentina – „Kumush", Koreya – „Tonggi tarovat", Dublin – „Qora moy", Addis-Abeba – „Bahor guli". *(„Qiziqarli geografiya" kitobidan)*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutq jarayonida takror va qaytariqdan qochish imkonini yaratishda tasviriy ifoda qanday ahamiyatga ega? Odatda, qaysi so‘z turkumlarida ko‘proq tasvirlab ifodalash uchraydi?

2. *„Osmonning ko‘z yoshlari qalbimga tomchilaydi“* gapi misolida tasviriy ifodaning inson ruhiyati bilan bog‘liq jihatini izohlashga urining.

3. Quyidagi tasviriy ifodalar qatorini davom ettiring.

Yaylov bahodirlari, sportimiz malikalari, asr vabosi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

15.1-topshiriq. Berilgan ma’nodosh tasviriy ifodalardan tanlab, matn tuzing.

1. Salomatlik posbonlari, Gippokrat qasamiga sodiqlar, Ibn Sino izdoshlari.
2. Kunchiqar diyor, samuraylar yurti, orollar mamlakati.
3. Bilim manbayi, aql qayrog‘i, ilm bulog‘i.
4. Ma’rifat nurxonasi, kitoblar qasri, ziyo maskani.

15.2- topshiriq. Rasm asosida tasviriy ifodalar ro‘yxatini tuzing va davom ettiring.

NAZORAT ISHI

IV FASL. MADANIY NUTQNING GRAMMATIK VA PUNKTUATSION ME'YORLARI

16-mavzu. ORTIQCHA QO'SHIMCHALAR

16.1-mashq. Matnni tinglang. Siz matnga qanday sarlavha qo'ygan bo'lar edingiz? Ikkinchi tinglashda ortiqcha qo'shimchalarni aniqlang.

RIVOYAT

Keksa donishmand o'z nabirasiga shunday hayotiy haqiqatini so'zlab berdi:

– Har bir inson qalbida ikki kuch doimiy kurashishadi. Bu xuddi ikkita bo'rining olishuvisiga o'xshaydi. Bo'rilarning birisini bejizga yovuzlik timsoli deyilmaydi: unda hasad, xusumat, g'araz, alam, adovatsizlik, behurmatsizlik, xudbinlik, yolg'on kabi illatlari mujassam. Ikkinchi bo'ri esa ezgulik va yaxshilikning timsoli: unda mehr, muhabbat, saxovat, sadoqat, umid va ishonch kabi fazilatlar jamlangan. Har ikkisi o'zaro murosasiz, betinimsiz olishadi.

Bobosining so'zlaridan g'oyat ta'sirlangan nabira biroz o'ylanib turgach, so'raydi:

– Oxirisida qaysi bo'rini yengadi?

Donishmand tabassum bilan shunday javobni berdi:

– Qalbingdagi qaysi bo'rining ko'proq parvarishlasang, o'sha yengib chiqadi.

16.2-mashq. Nuqtalar o'rniga zaruratga qarab qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'ying.

Mamlakat ishi…(-ga, -da, -dan) nafi eng ko'p tegadigan toifa uch xildir: birinchi…(-dan, -si, -ga) bilimli, donishmand kishilar, turli kasb egalari bo'lsa, ikkinchi…(-dan, -si, -ga) botir, sheryuraklardir. Ular bo'ri – yov…(-ni, -ga, -da) qarshi kurash paytida asqatadi. Nihoyat, uchinchi guruh…(-dan, -ni, -ga) so'zamol kotiblar tashkil etadi.

Dono, zakovat…(-mand, -li, -dor) kishilar qiyin muammolar…(-da, -ni, -ga) hal etishda yordamga keladi.

Botirlar qo'li…(-da, -ni, -dan) qilich tutguday bo'lsa, yov titroq…(-ga, -ka, -qa) tushadi. Yozuvchi-kotib esa el ishi…(-ning, -ni, -da) osonlashtiradi. Undan mashaqqat tugunlari yech…(-in, -il, -ish)adi. *(Yusuf Xos Hojib)*

16.3- mashq. Har bir qatorni nomlab, undagi ortiqcha qo‘shimcha(lar)ni olib tashlang.

Namuna: 1) kelishik shakllari: -ga, -ning, -dan, -da, -ni, -ka.

1) -ga, -ning, -(i)m, -dan, -lar, -da, -ni, -ka;
2) -paz, -bon, -soz, -ish, -chi, -don, -zor, -kash;
3) -li, -(v)iy, -simon, -shunos, -siz, no-, -mand, -dor;
4) -ta, -da, -(i)nchi, -in, -tadan, -ala, -incha, -ov;
5) -ar, -giz, -(i)n, -cha, -t, -(i)l, -loq, -tir;
6) -lab, -larcha, -goh, -cha, -ona, -b, -an, -chasiga.

Nazariy matn

Qo‘shimchalarning ortiqchaligi nutq madaniyatiga salbiy ta’sir qiladi. Masalan, *o‘nta o‘quvchilar* birikmasida ko‘plik qo‘shimchasi ortiqcha. Yoki *qo‘llanib kelinmoqda* emas, *qo‘llanib kelmoqda* deyish to‘g‘ri. Qo‘shimchalarning takroriyligi, ortiqcha qo‘shimcha nutq uchun „yuk“ hisoblanadi.

Qo‘shimcha qo‘llashda ham nutqiy tejamkorlikka rioya qilish lozim.

16.4- mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. „Rivoyat“ matnida noto‘g‘ri qo‘llangan kelishik qo‘shimchalari to‘liq ko‘rsatilgan qatorni toping?

A. Qaratqich kelishigi, chiqish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi.
B. Qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi.
C. Tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, qaratqich kelishigi
D. Jo‘nalish kelishigi, tushum kelishigi, chiqish kelishigi.

2. Matn mazmuniga mos keladigan fikrni aniqlang.

A. Mening nafsim balodur, yonar o‘tga soladur.
B. Nafsini jilovlagan sulton bo‘lar.
C. Nafsning yomoni – baloning koni.
D. Olg‘irlik ofat keltirar, badnafslik – halokat.

16.5- mashq. Mumtoz she’riyat talabiga ko‘ra jo‘nalish kelishigi shakllarining qo‘llanilishiga e’tibor qiling. Bu shakllarni noto‘g‘ri qo‘llangan deya olasizmi?

1. Qayt, ko‘zlarimga qo‘y oyoq, ey dilfirib, ketma yiroq,
Ey nozanin, ko‘kka bu chog‘ oh-u fig‘onim boradur.

(*Sa’diy)*

2. Ey ko‘nglim olgan dilrabo, jonim fido bo‘lsin sanga,
Obi hayoti Xizr ila umre baqo bo‘lsin sanga.

(Atoyi)

3. Kezar erdim bu savdodin mushavvash ki,
Keldi ko‘ngluma bu sarzamin xush.

(Navoiy)

4. Qoshig‘a borg‘ali ko‘ngul o‘ziga kelmadi netay,
Yuziga tushgali ko‘zum ko‘ziga ilmadi netay.

(*Bobur)*

5. Qoshing savdosi men devona boshig‘a tushguncha,
Sirishkim seli tug‘yoni falak toqidin oshibdur.

(*Uvaysiy)*

6. Yel turar, yig‘lar falak, bu guldurak ham barq dema,
Dardi hijronimni o‘krab so‘zlar osmon har kima.

(E. Vohidov)

16.6- mashq. She’rlarni o‘qing. Badiiy asarlarda qo‘shimchalarni qo‘llash bilan sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga diqqat qilib, sababini izohlang.

1. Bu durlarkim ko‘zumni andin ochting,
Mening ilgim bila olamg‘a sochting.
Tamannosin ko‘nglumdin olma,
Sochilg‘on birla tufrog‘ ichra solma.

(*Alisher Navoiy)*

2. Nahot mening yuragimni zanglatguvchi – sen,
Ko‘klam oshiq gulzorimni sarg‘aytguvchi – sen.

(H. Xudoyberdiyeva)

3.Osmon ham bo‘lib g‘anim,
Qaytib tushsa – ne g‘amim!
Bir tosh tushsa tushibdi
Tog‘day boshimga manim.

(Usmon Azim)

4. Oydan yorug‘ sokin xayolim
Sezdirmayin olibmi ketding?
Dilginamga muhabbat shavqin
Uchqunlarin solibmi ketding?

(*Z. Mirzayeva)*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qo‘shimchalarni ba’zan takror qo‘llashning o‘ziga xosligi nimada? Sizningcha, bu to‘g‘rimi yo noto‘g‘rimi?

2. Qo‘shimchalarning tejalishi, asosan, qaysi nutqiy uslubda ko‘proq uchraydi?

3. Quyidagi jumlada qaysi qo‘shimcha bir marta ishlatilsa, uslubiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi? O‘*zDJTU xalqaro jurnalistika fakultetining 1-bosqich talabasi Muhayyo Usmonovaning amaliyot ishlari uchun tutgan daftari.*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

16.1- topshiriq. Berilgan matnni tahrir qiling.

HARBIY POLIGONGA SAYOHAT

„Harbiy poligonda bir kun“ shiori ostida Surxondaryo viloyatining Termiz shahri umumta’lim maktablarining bir guruh o‘quvchilari hududda joylashgan dala-o‘quv maydoniga tashriflarini buyurishdi. Mudofaa vazirligiga qarashlik qismda xizmat burchini o‘tayotgan oddiy askarchilarning poligondagi bir kunlik faoliyati, o‘tkazilayotgan jangovarlik ruhiyatidagi ma’naviy, axloqan-ruhan tayyorgarchilik mashg‘ulotlarini kuzatish, mashqlarga bevosita ishtirok etish uchun kelgan yoshlar dala-o‘quv maydonida iliq kutib olindi.

Yoshlardagi ilk harbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularga harbiylik sohasiga qiziqish uyg‘otish, Vatanning sarhadlarini himoya qilishning naqadar sharafli va mas’uliyatli vazifa ekanligini o‘g‘il-qizlar qalbiga singdirishdek ezgu maqsadlar ko‘zlangan sayohat sermazmunli o‘tdi. Harbiy poligondagi birgina kun o‘quvchilarga olam-olam taassurotni baxsh etdi. *(„Tong yulduzi“ gazetasidan)*

16.2- topshiriq. Matn tahririda aniqlangan nojo‘ya so‘z va ortiqcha qo‘shimchalarni izohlashga tayyorlaning.

17-mavzu. QO‘SHIMCHALAR TANLOVI

17.1-mashq. Matnni o‘qing. Xalqimizga xos milliy an’ana haqida o‘z fikringizni bayon qiling. Nuqtalar o‘rniga berilgan qo‘shimchalarni qo‘yib ko‘ring.

MEHMONDORCHILIK

Erta turib olganimni ko‘rgan onam hayron. Bugun biznikiga mehmon kelishini kechayoq opam telefonda ammamga aytayotgani…(-da, -dan) bilib olganman. Onam qo‘limga savat tutqazdi. Zing‘illab tomorqamiz ortidagi sayhonlikka o‘tdim. Bu yer…(-ga, -da) olmazor barpo qilganmiz. Biroz bog‘…(-ni, -da) aylandim. Uch yil oldin ekkan olma shoxlari mevasi ko‘pligi…(-ga, -dan) yerga tegay-tegay deydi. Qip-qizil pishganlari…(-ni, -dan) saralab, savatni to‘ldirdimda uyga qaytdim.

… Ana dasturxon-u mana dasturxon! Davra ham qizigandan qizidi. Otam ora-sira mulozamat qilib turibdi:

– Qani, osh…(-dan, -ni) olinglar, yozilishib-yozilishib o‘tiringlar. Bugun shu yerda qolasizlar, hech qayoqqa ketish yo‘q.

Kelganlar…(-dan, -ning) biri gapga ustaroq ekan:

– Gapingiz…(-ga, -ni) tushundik, aka, mehmonning kelishi o‘z ixtiyorida, ketishi esa mezbonning ixtiyorida, demoqchisiz-da.

– Ha, yashang! – xursand bo‘ladi otam. – Mana uy, anavi yerda bog‘ bor. Shu yerda turaver…(-asiz, -ing)lar.

– Nasib qilsa, ikki oy ichida maktabning yangi binosini qurib bitiramiz. Bizdan qishloq bolalariga esdalik bo‘lib qol…(-sin, -adi).

Eshitgan yangiliklarim…(-ni, -dan) jo‘ralarimga aytmasam bo‘lmaydi. Ko‘chaga otildim. Sentabr...(-dan, -da) yangi maktabda o‘qish boshlanadi!

17.2-mashq. Qo‘shimcha tanlashda nimalarga e’tibor qaratdingiz, uslubda qanday farq sezdingiz? Fikringizni izohlang.

17.3-mashq. Nuqtalar o‘rniga zaruratga qarab qavsdagi qo‘shimchalardan mosini qo‘ying.

1. Tanqidchi adabiyot bog‘ining bog‘bonidir, u butoqlar…(-ga, -ni) qaychilash…(-dan, -da) adashmasligi kerak. 2. Shoir va yozuvchilar… (-ning , -ni) asarlari…(-ga, -da) xalq…(-ning, -ga) yuragi urib turadi. 3. Yaxshi adiblar asar-

lari orqali inson qalbi ezgulikka to‘y (-in, -il)adi. 4. Qalam shun…(-dan, -day) qudrat…(-li, -dor) kuchki, uning haq so‘zini hech kim o‘chira olmaydi. 5. Iste’dodli ijod... (-kor, -chi), aslida, hayotdan zavq... (-lan, -lash)adi. 6. Yozuvchining asar mazmuniga o‘zi duch kelgan voqealar…(-ning, -ni) ham singdirib yuborishi hayotiy... (-li, -lik)ni ta’minlaydi.

17.4- mashq. She’riy misralarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalarni izohlang, ularning qo‘llanishidagi o‘ziga xoslik va shoirning topilmalari bo‘yicha bahs-munozara uyushtiring.

1. Huvullagan **odamzor** ichra, Hayot, seni juda sog‘indim. 2. Mendan nima ketdi – qo‘limdan kelar **Zamonsoz** yuzlarga nur sochib yashash. 3. **Menshunoslar** bilan nima ishim bor, Bu yo‘ldan ko‘z yumib o‘tgim yo‘q faqat. 4. Ko‘nglimni ozdirdi **ko‘ngilbozliklar**, Uzmadim, ko‘ngildan ko‘ngil uzmadim. 5. Bu dunyo asli bir **ko‘ngilzor** edi, Ko‘ngilni ko‘ngildan kechirmaganlar. 6. O‘zim suymas o‘zimdan yuz o‘girtir, Har **nag‘makor** so‘zimdan yuz o‘girtir. *(Behzod Fazliddin)*

Nazariy matn

Bir qo‘shimcha turli ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, jo‘nalish kelishigi ko‘rinishlari: *-ga, -ka, -g‘a, -qa, -a,* chiqish kelishigi ko‘rinishlari: *-dan, -din*. Ular qo‘shimchaning variantlari deyiladi. Variantlar o‘z qo‘llanish o‘rniga ega. O‘rinli variantni tanlash – nutqiy madaniyat belgisi.

Qo‘shimchalarning variantliligini omonimlikdan farqlash kerak.

Nutqiy vaziyatlarda qo‘shimchalar ma’nodoshligi ham kuzatiladi. Bunday holda bir necha kelishik shakllari o‘zaro sinonim bo‘ladi: *kelganiga xursand – kelganidan xursand, gapingizga tushunmadim – gapingizni tushunmadim*.

17.5- mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Qaysi gapda kelishik qo‘shimchalarining variantlari sabab ma’nosini ifodalagan?

A. O‘z vaqtida yetib kelganing(-ga, -dan) xursand bo‘ldim.

B. Yaqinda yog‘ib o‘tgan yomg‘ir(-dan, -da) daraxt shoxlari ancha egilib qolibdi.

C. Sifatli mahsulotlarni faqat bizning do‘kon(-da, -dan) topasiz, akasi.

D.Yurtim tomon daryolar (-ni, -dan) kechib, tog‘lar(-ni, -dan) oshib boraman.

2. Mayl qo‘shimchasi qaysi gapda buyruq ma’nosini kinoya bilan ifodalagan?

A. Meni kutgil va men qaytarman, Faqat kutgil juda intizor. *(K.Simonov)*

B. Malol kelmasa agar, eshikni narigi tomonidan yopsalar. *(Said Ahmad)*

C. Qatra yosh tommasin aslo biror zum Munis onalarning yanoqlariga. *(A. Oripov)*

D. Keksa chol sen tomon boqqay intizor, Oftobim, unga ham rahm etgil zinhor. *(A. Oripov)*

17.6- mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi „noodatiy“ qo‘shimchalarni aniqlab, qo‘llanish sababini tushuntiring.

1. Bu gapning oxiriga **so‘rov** belgisini qo‘y. 2. She’r shunday sho‘xshanlansin, bo‘lolmasin o‘xshashi, Fikr kunday ravshanlansin, **qoralmasin** quyoshi. *(G‘. G‘ulom)* 3. Do‘rmanchaga ketdim o‘tib, Yoqamni har soat tutib, Yotdim ul oqshom g‘am yutib, Dashti **qaroqchizor** ekan. *(Muqimiy)* 4. Har ko‘cha obod, hamon men turfa vayron ko‘chamen, Yozda **changiston-u** qishda **balchig‘iston** ko‘chamen. *(E. Vohidov)* 5. Ne baxt, **Quyoshiston** ta‘rifli diyor Nurli peshanamga bo‘libdi nasib. *(E. Vohidov)* 6. **Manim** peshanamga nelar yozilgan? Saltanatning taqdiri na bo‘lur, qay birini bilasiz? *(Odil Yoqubov)*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qaysi qo‘shimchalar variantlariga ega, qo‘shimchalarning variantini o‘rinli tanlash nutqiy uslubga qay darajada bog‘liq?

2. Gap juftligida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi qo‘shimchalar yuzasidan fikringizni bildiring: *Labing qirg‘og‘idan oqqan zaharni Ko‘z yummayin* ***ichgum****, beshubha. (Shekspir)* – ***Ichgim*** *keldi zilol suvingdan. (M. Yusuf)*

3. *Ilon* so‘zini qaratqich kelishigi shaklida qo‘llasangiz, gap mazmunida qanday o‘zgarish yuz beradi? *Valijon – ilon yog‘ini yalagan yigit.*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

17.1- topshiriq. Matnni tahrir qiling hamda „nojo‘ya“ qo‘shimchalardan xalos qilib ko‘chiring.

Nuriddin Yanisning bu gaplarini fahm etmadi, tushunmaganini yashirmay so‘radi:

– Odamlarni bo‘riga o‘xshasa deysizmi?

– Ha, bo‘riga o‘xshasa... Bo‘rilar odamlarning kabi bir-birlarini g‘ajimaydilar. Ular ahil-totuvda yashaydilar. Ular ozodliklarini hech nimaga alishmaydilar. Bundayin ahillik, bunday mag‘rurlik boshqacha hech bir jonzotda yo‘q. Sen sirkdagi bo‘rini o‘ynatganlarini hech ko‘rganmisan? Ha, ko‘rmagansan. Fildan tortib to ilongacha qadar bir luqma ovqat uchun insonlarga masxara bo‘ladi. Faqatgina bo‘ri bo‘yinsunmaydi. Sen turkiylardansan. Ajdodlaringning e’tiqod qilgan ramz nima bo‘lganini bilasanmi? Qurt, ya’ni bo‘ri. Turkiylarning bayrog‘idan bo‘ri tasviri bo‘lgan, deb eshitganman. Turkiylar qadimlikda shunday erksevar bo‘lgan ekanlar. E, u zamonlar o‘tib ketdi. – Yanis shunday deb xo‘rsindi… *(T. Malik)*

17.2- topshiriq. Matn bo‘yicha o‘z xulosangizni bir jumlada bayon qiling.

18- mavzu. NUTQDA SHAKL VA MAZMUN MOSLIGI

18.1- mashq. Matnni o‘qing. Gaplarni mazmuniga mos holda qavs ichida berilgan so‘zlardan mosi bilan to‘ldiring.

O‘ZINGGA UCHTA HAQIQIY DO‘ST TOP

Mustahkam do‘stlik … (munosabatlari, bordi-keldilari, muomalalari) – hayotda baxt va shodlikka erishishning ishonchli vositalaridan biri. Yaqinda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda aniqlanishicha, do‘sti va qarindosh-urug‘i mo‘l odam ko‘proq … (kularkan, tirjayarkan, og‘zining tanobi qocharkan), kamroq … (xavotirga tusharkan, qo‘rqarkan, o‘ylarkan) va natijada uzoq umr ko‘rarkan.

Bolaligimda otam: „Uchta yaqin do‘sti bor odam – haqiqiy badavlat odam“, – deya tez-tez takrorlab turardi. Men bu … (yo‘llanma, maslahat, naqshinkor fikr)ni hech qachon yodimdan chiqarmayman, sizga ham unga jiddiy munosabatda bo‘lishni … (nasihat qilaman, aytaman, tavsiya qilaman). Ba’zan mustahkam do‘stlik aloqalarini o‘rnatish uchun qulay muhit-sharoitni tark etishga, o‘zingiz unchalik yaqindan bilmagan kishilar bilan … (mashaqqatlar chekish, azoblanish, qiynalish, ezilish)ga va samimiy munosabat o‘rnatishga to‘g‘ri keladi. Agar do‘stlik … (urug‘i, danagi, tuxumi)ni eksangiz, albatta, ajoyib do‘stlar timsolida … (mo‘l-ko‘l, bisyor, serob, talay) hosil yig‘ib olasiz.

Davralarda o‘zingiz tanishishni istagan odamning yoniga boring, o‘zingizni tanishtiring. Har qanday inson zotida mehrga, samimiyatga ehtiyoj bor, shu sababli ko‘pchilik sizning tashabbusingizdan … (mamnun bo‘ladi, boshi osmonga yetadi, terisiga sig‘may ketadi). Agar tanishishni istamagan taqdirda ham nima

bo‘libdi? Menga ro‘yxushlik bermadi, deb ... (hisoblamang, siqilmang, sanamang). Bu odam nimani yo‘qotganini o‘ylab ko‘ring-da, mulozamat bilan keyingi suhbatdoshga o‘ting. *(Robin Sharma)*

18.2- mashq. Gaplarni ixchamlashtiring. She’riy parchalarni sodda gaplarga aylantirib yozing.

1. Agar dushman bilan birga o‘tirsa, do‘st emasdir u,
   Uningdek do‘stdan, ey oqil odam, tezroq qo‘lingni yuv.
   (Sa’diy)
2. Sensiz bu jahon ayshi alamdur manga, ey do‘st,
   Shodlig‘i ham mehnat-u g‘amdur manga, ey do‘st.
   (Atoyi)
3. Yor uldurki, har nechakim o‘ziga istamas, yorig‘a ham istamagay.
   (Alisher Navoiy)
4. Do‘st bilan obod uying, Gar bo‘lsa u vayrona ham.
   (*Erkin Vohidov)*
5. Do‘sti ko‘p qaddi bukilmas deydilar qon kechsa ham,
   Kechmagay mard do‘stidan, mol-u jondan kechsa ham.
   (*To‘ra Sulaymon*)
6. Do‘stlardan azizroq, do‘stlardan baland
   Daraxtlar hech qachon sotmaydi, o‘g‘lim.
   (Halima Ahmedova)

18.3- mashq. Sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring.

1. Do‘st – do‘stning oynasi. *(Maqol)* 2. Sendan yuz o‘girgan odamni unut. *(Meksika maqoli)* 3. Haqiqiy do‘stdan yaxshi shifokor yo‘q. *(Rumin maqoli)* 4. Do‘st sening baxtingdan quvonadigan insondir. *(Uyg‘ur maqoli)* 5. Sodiq do‘stlari bor inson baxtlidir. *(Laos maqoli)* 6. Do‘stingga yaxshilikni u senga muhtoj bo‘lmasidan qil. *(Yapon maqoli)*

Nazariy matn

Fikrni ixcham ifodalash – madaniy nutq belgisi. Shuning uchun ilmiy matndagi so‘zlar, gaplar miqdorining yuqori chegarasi belgilab beriladi, quyi chegara ko‘rsatilmaydi. Fikrni uzun yoki ko‘p jumlalar bilan ifodalash, ko‘pincha, ijobiy qabul qilinmaydi. Shuning uchun gaplarni ixchamlashtirish, matn mazmunini qisqa ifodalash madaniy nutq mezonlaridan hisoblanadi.

Boshlab qo‘yilgan, uzilib qolgan jumlani mantiqan va usluban to‘g‘ri davom ettirish ham so‘zlovchining mahorati hisoblanadi.

18.4- mashq. Gaplardagi g‘alizliklarni bartaraf qiling.

Namuna: Aqli ko‘pni dov olmas,
Do‘sti ko‘pni yov olmas.

1. Aqli ko‘pni dov olmas, do‘sti ko‘pni dushman olmas. *(Maqol)* 2. Do‘stlik do‘sti uchun o‘z manfaatlarini qo‘lga kiritish, fidokor bo‘lish hamda xudbinlik illatidan ozod bo‘lishdir. 3. Yod oshingga qaraydi, do‘st – boshingga. *(Maqol)* 4. Kimlarningdir kulgisi va rohatini deb do‘stingizni mazax qilish xayolingizdan ketmasin, chunki bu do‘stingizga juda og‘ir botadi. *(„Donolar bisoti“dan)* 5. Dushmaningdan yashirganingni do‘stingga aytma, zero do‘stlikning adabiyligiga kafillik yo‘q. *(„Donolar bisoti“dan)* 6. Do‘stlik ishonchsizlik boshlangan joyda o‘z ibtidosiga yetadi. *(Maqol)*

18.5- mashq. Gaplarni musobaqa tarzida davom ettiring.

1. Chinakam do‘st aytgan har bir o‘git sirti zahar bo‘lsa-da, …
2. Dushmaningga ham shunday samimiy munosabatda bo‘lginki, …
3. Kimki farovon kuningda do‘stlikni da’vo qilsa, …
4. Boringni bir yo‘la sochma do‘stga ham, …
5. Xiyonatkor do‘st – qo‘yningdagi ilon, …
6. Do‘stlar bilan suhbatlashayotganda ham hushyor bo‘l, …

18.6- mashq. Gaplarni ixchamlashtiring.

1. Haqiqiy do‘st seni tubsizlikdan chiqarib oladigan inson emas, balki tubsizlikka tushib ketishingga yo‘l qo‘ymaydigan insondir. *(Konfutsiy)* 2. G‘addor do‘st dushmandan yomon, Ne hiyla bilsa, ishlatar oson. *(Nosir Xisrav)* 3. Inson farzandi ota-onasiz o‘zini qanchalar g‘arib sezsa, do‘stlarsiz ham dili kemtik bo‘ladi. Ota-onadan keyin qarindosh-urug‘lar qatoridagi mehribon odam bu do‘stdir. (*Hadis*) 4. Dushmanlarim tosh otdi – parvo qilmadim, do‘stlarim otgan guldan boshim yorildi. *(„Donolar bisoti“dan)* 5. Mening ko‘zlarim uchun do‘stlarim manzarasidanda mahbubroq narsa yo‘q. Quloqlarim uchun do‘stlarim safardan qaytgani haqidagi xushxabardan-da yaxshiroq rohat beradigan musiqa yo‘q. *(Imom G‘azzoliy)*

6. Agar dushman aro bo‘lsa nizo, jang,
Borib do‘stlar bilan xotirjam o‘ltir.
Magar ko‘rdingki, yovlarning tili bir,
Kamon tort, qal’aga g‘isht-u tosh keltir.

(Sa’diy)

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Matn mazmunini qisqa ifodalashda gaplarni ixchamlashtirishning qanday yo‘llari bor?

2. *Har qanday inson zotida qahrga, samimiyatga ehtiyoj bor* gapidagi ortiqcha so‘zni olib tashlansa, fikr mazmuni qanday o‘zgaradi?

3. Berilgan nasriy bayondagi fikrni she’riy jumlaga aylantirishga harakat qiling. *Do‘stlik shunday bir daraxtki, urug‘i vafo, shoxlari umid, yaproqlari saodatdir. Do‘stlik bir shahardirki, kaliti ishonch, aholisi vafodorlardir. Do‘stlikni o‘z hayotingizdan haydab solish – zaminni quyoshsiz qoldirish bilan barobar.*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

18.1-topshiriq. Matn bilan tanishing. Parchaning janrini qanday nomlagan bo‘lardingiz? Muallif qaysi insoniy tuyg‘u haqida fikr yuritgan?

Daraxt o‘z tomiridan o‘sib chiqqan Niholga aytgan ekan:

– Bahor chog‘i gulga burkanganimda boshim ustida bolarilar g‘ujg‘on o‘ynab, alyor aytdi. *„Sizlar kimsiz?“* – demadim.

Yoz pallasi yaproqlarim zumraddek tovlanganda qushlar shoxlarimda panoh topib, oshyon qurdi. *„Sizlar kimsiz?“* – demadim.

Saraton oftobi olamni yondirganda yo‘lovchilar soyamdan bahramand bo‘lib, jon saqladi. *„Sizlar kimsiz?“* – demadim.

Kuz kelib, mevalarim g‘arq pishganda odamlar uzib, to‘yguncha tanovul qildilar. *„Sizlar kimsizlar?“* – demadim…

Nogahon bir nomard tanamga bolta urgan edi, hammasi har yoqqa qochdi-ketdi! Ulardan najot so‘rasam, *„Sen kimsan?“* – deyishdi…

Yonimda tanho sen qolding! *(O. Hoshimov)*

18.2-topshiriq. Matndagi har bir xatboshi mazmunini bir gap bilan ifodalang va hosil qilingan gaplardangina iborat yaxlit matn tuzing.

19-mavzu. TINISH BELGILARINI TO‘G‘RI QO‘LLASH

19.1-mashq. Matnni o‘qing. Ishlatilgan tinish belgilarining qo‘yilish sabablariga diqqat qiling.

O‘RDAK EMAS, BURGUT BO‘LING

Hindlarda bir rivoyat bor: Tangri avval dengiz chig‘anog‘ini, keyin burgutni yaratadi va insonga chig‘anoqning zerikarli yoki burgutning qiziqarli hayotini tanlashga izn beradi. „Bu yerda tanlash uchun o‘ylanib o‘tirishga hojat yo‘q-ku!“ deyishingiz aniq. Albatta, hamma ham burgutning hayotini tanlaydi.

Ammo hech kim kutmagan hodisa yuz beradi: ko‘pchilik chig‘anoqning ham, burgutning ham hayotini tanlamaydi. Ular o‘zlarining talablariga javob beradigan boshqa namuna qidirishga tushishadi va topishadi ham. Buni qarangki, u o‘rdak edi.

Bir qarashda o‘rdak va burgutda ko‘p o‘xshashlikni ko‘rish mumkin. Aslida, ularning o‘rtalarida katta farq bor. To‘g‘ri, ikkisi ham qush va ucha oladi. Burgut uzoq vaqt osmon-u falakda kezishi mumkin, o‘rdak esa suvda bo‘lishni afzal ko‘radi.

O‘rdak – ajoyib qush: butun kun mobaynida g‘ag‘illaydi. Uni boqishayotganda, boshqa o‘rdaklar uning yemishini olmoqchi bo‘lganda, nimadir yoqmaganda, hatto biror narsaning uddasidan chiqa olmasa ham, g‘ag‘illayveradi. O‘rdaklarning g‘ag‘illashi – ko‘ndirish, cheki yo‘q kechirim so‘rash, befoyda valaqlash.

Burgutlar-chi? Ular nolimaydi, ular harakat qilishadi.

Burgutlar va o‘rdaklar o‘rtasidagi farqlarga diqqat qiling-a:

– „Men buni qila olmayman“, – deyishadi o‘rdaklar. „Bu qanday bajariladi?“ – so‘rashadi burgutlar;

– o‘rdaklar tez tushkunlikka tushadi, burgutlarda esa hayotsevarlik kuchli;

– o‘rdaklar faqat eng keragini qilishadi, ba’zan uni ham qilishmaydi. Burgutlar esa keragidan ortig‘ini bajarishadi;

– o‘rdaklar sharoitdan norozi bo‘lishadi, nolib g‘ag‘illayveradi. Burgutlar esa sharoitni o‘zgartira olishadi;

– o‘rdaklar har qanday imkoniyatdan muammo topadi, burgutlar esa har qanday muammodan imkoniyat izlaydi.

Matn yuzasidan quyidagi savollarga javob bering:

1. O‘rdaklarning hayot tarzi, fe’l-atvori siz uchun tanish manzarami yoki yangilik?
2. Hayotda burgut bo‘lib yashash uchun insondan nimalar talab qilinadi?
3. Atrofingizda „burgut“lar ko‘pmi yoki „o‘rdak“lar?

19.2-mashq. Tinish belgilarini qo‘yib parchani ko‘chiring. Masallardan xulosa chiqarib, uni qisqa sarlavha shaklida yozing.

1. Yo‘l yoqasida bir gadoy tilanchilik qilib turar edi// Bir otliq odam yonidan o‘tib ketayotib qamchisi bilan uni bir urdi va yo‘lida davom etdi// Gadoy uning orqasidan qarab//

– Baxtli bo‘l// // dedi// Buni ko‘rib turgan bir yo‘lovchi//

– U seni ursa-yu// sen unga baxt tilasang// bu qanaqasi// // deb so‘radi//

Shunda tilanchi//

– Agar u baxtli bo‘lmasa// meni urmas edi// // deb javob berdi//

2. Katta Mushuk dumi bilan o‘ynayotgan mitti Mushukchadan so‘radi//

– Nega dumingni quvlayapsan//

Mushuk javob berdi//

– Bir Mushuk uchun eng asosiy narsa baxt ekanligini// baxt esa dumimdaligini bildim// Dumimni tutganimda// albatta// baxtga erishaman//

Shunda katta Mushuk//

– Yoshligimda men ham dumimni baxt deb bilardim// keyinchalik shuni anglab yetdimki// uni quvlasam// mendan uzoqlashadi// aksincha// qachon o‘z ishim bilan xotirjam ovora bo‘lib yursam// doimo izimdan ergashadi// // dedi mitti Mushukchaga//

19.3-mashq. Tinish belgilar qo‘llanishidagi xatoliklarni aniqlang. L.N.Tolstoy mulohazalari asosida o‘zingizning baxt to‘g‘risidagi tasavvuringizni bir jumlada bayon qiling.

1. Odamning eng baxtli chog‘i: boshqalarga yaxshilik qilgan onlari. 2. Og‘ir baxtsizliklar uzoq cho‘zilmaydi – maydalari esa e’tibor berishga arzimaydi. 3. Hayotda faqat birgina chinakam baxt bor; u ham bo‘lsa, – boshqalar uchun yashamoqlikdir. 4. Haqiqiy baxt daryoga o‘xshaydi; qanchalik chuqur bo‘lsa – shunchalik shovqinsiz oqadi. 5. Agar baxtli yashashni istasangiz; baxtni maqsadga bog‘lang – odamlar yoki narsalarga emas. 6. Baxtli oilalar bir-biriga juda o‘xshaydi, ammo, baxtsiz oilalarning har biri o‘zicha baxtsiz.

Nazariy matn

Tinish belgilari yozma nutqda gap mazmunidan kelib chiqqan holda qo‘llanadi. Ularni qo‘llash gap mazmuni va qurilishiga ta’sir qiladi.

Tinish belgilari gap mazmuni aniqligining shartidir.

19.4-mashq. Tasviriy matndagi tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yib, ifodali o‘qing. Insonning umr fasllari haqida mulohaza yuriting.

Tong
Quyoshli ufq
Maysazor
Maysazorda kunning go‘dakligi
Emaklaydi qiyqirib
Yuragida umid g‘unchasi
Yuzlarida quvonch chechagi
Ko‘zlarida omad shu’lasi

Tush
Maysazor
Maysazorda o‘spirin kun
Halloslaydi sher misol
Yuragida shiddat to‘foni
Yuzlarida hayrat gulxani
Ko‘zlarida g‘ayrat chaqmog‘i

Shom
Maysazor
Maysazorda sukunat sayri
Keksaygan kun
Yonboshlaydi qirga hansirab
Yuragida xayol to‘lqini
Yuzlarida hasrat uchquni
Ko‘zlarida armon buluti

(*N. Norqul)*

19.5- mashq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari to‘g‘ri berilgan qatorni toping. *„Urush va tinchlik“ romanining bir joyi bor biz birovlarni bizga qilgan yaxshiligiga qarab emas o‘zimizning ularga qilgan yaxshiliklarimizga qarab yaxshi ko‘ramiz deyilgan. (T.Sodiqova)*

A. Qo‘shtirnoq, vergul, vergul, vergul, tire, nuqta.
B. Ikki nuqta, qo‘shtirnoq, vergul, vergul, tire, nuqta.

C. Ikki nuqta, vergul, qo‘shtirnoq, tire, nuqta.
D. Ikki nuqta, qo‘shtirnoq, vergul, qo‘shtirnoq, vergul, tire, nuqta.

2. Qo‘shtirnoq noto‘g‘ri qo‘llangan javobni toping.

A. „Baxt kulgi bor uyga kirar“, – deb yozadi Erkin Vohidov.
B. „Baxt“ o‘zi nimadir, anglay olmadim.
C. Yangasining „shirin“ tili sababli Kozimjon baxtini izlab shaharga ketdi.
D. Deyl Karnegining „Baxtli bo‘lish sirlari“ kitobini o‘qiganmisiz?

19.6- mashq. Gap juftliklaridagi tinish belgilarini qo‘llash bilan bog‘liq mazmuniy o‘zgarishlarni aniqlang.

1. Baxtli-taxtli bo‘lgin, onang kabi baxtsiz bo‘lma. – Baxtli-taxtli bo‘lgin onang kabi, baxtsiz bo‘lma. 2. Hoy ahmoq, o‘g‘lim o‘z baxtidan yuz o‘giribdimi hali? – Hoy, ahmoq o‘g‘lim o‘z baxtidan yuz o‘giribdimi hali? 3. Yigit boshingdan baxt-u davlat yiroq ketmas. – Yigit, boshingdan baxt-u davlat yiroq ketmas. 4. Erta tong. Yuzingda baxt shu’lasi o‘ynar. – Erta tong yuzingda baxt shu’lasi o‘ynar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qaysi tinish belgilari qo‘shaloq holda ishlatiladi?
2. Nashriyot ishlarida qisqartirilgan so‘zlar qanday tinish belgilari bilan qo‘llanadi?
3. Inson ruhiyati bilan bog‘liq o‘rinlarda qanday tinish belgilari ishlatasiz?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

19.1- topshiriq. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llab, matnni ko‘chiring. Sarlavhaga diqqat qiling.

BAXT PULDA EMAS(MI?)

Insonlar ongida pul to‘g‘risida ikki xil tushuncha mavjud//

Birinchisi// pul// johillik// u yaqin insonlar orasiga nizo soladi// Nafsga erk beradi va halovatingizni o‘g‘irlaydi// Pul hatto qadriyatlarni ham unutishga majbur qiladi//

Ikkinchisi// pul// ozodlik// ya’ni boshqa odamlarga qaram bo‘lmaslik imkoni// Pul ko‘nglingga yoqqan mashg‘ulot bilan shug‘ullanish va orzularingni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashadi// U yaqinlarimizga// ota-onalarimizga// farzandlarimizga va do‘stlarimizga g‘amxo‘rlik qilish imkonini beradi// Pul qu-

layliklar yaratadi va turmushni go‘zallashtiradi// Pulni tasarruf etishning o‘zi ham bir san’at//

Endi o‘zingizga savol bering-chi// pul siz uchun nima// *(Internet ma’lumotlaridan)*

19.2- topshiriq. Quyidagi jumlani davom ettiring, tinish belgilariga diqqat qiling.

Men bugundan boshlab burgutday yashayman, buning uchun quyidagilarga amal qilishim kerak...

20- mavzu. MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH

20.1- mashq. Matnga qo‘yiladigan talablarni o‘qing.

1. Mos sarlavha qo‘yish.
2. Matndagi asosiy fikr(lar)ni anglab olish.
3. Matn turi va unga xos belgilarni aniqlash.
4. Matn ijodkorining mahoratini belgilash.
5. Matnning til xususiyatlarini aniqlash: muallifning so‘z tanlay olish mahoratini baholash va lug‘at bilan ishlash.
6. Fikr mazmunini bir jumlada xulosa sifatida ifodalash.

20.2- mashq. Matn turlari va ularning tahlili bayon etilgan ma’lumotlar bilan tanishib chiqing.



I. Hikoya matni va uning tahlili

 San'atkor izvoshchini hayron qoldirib, o'zidan o'zi g'uldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, ammo san'atkorning tomog'idan hech narsa o'tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nash'a qilar edi: „Ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa, nega plastinkaga oldi? … Bu kishining ham tanqid qilg'ulari kelipti… Amali – traktorist… Obbo!" *(A. Qahhor)*	***Sarlavha:*** „San'atkor" yoki „Tanqiddan so'ng". ***Asosiy fikr:*** mahoratsiz san'atkorning tanqidga chiday olmaganligini ko'rsatish. ***Matn turi:*** hikoya matni. ***Ijodkor mahorati:*** san'atkorning xulqi va nutqidagi o'ziga xoslikni tasvirlash. ***Matnning tili:*** *qilg'ulari kepti, mexaylistik, traktorist…* ***Xulosa:*** „Ko'rpangga qarab oyoq uzat".

II. Tasviriy matn va uning tahlili

 Yomg'ir ostida daraxt shoxiga chiqib olib, osmonga qarab qichqirgisi keladi kishining. Qiziq, qushlar yomg'irda qochib ketishmaydi. Qarg'a, zog'cha, qaldirg'och bemalol uchadi. Chumchuq bilan musicha berkinib oladi. Yomg'ir yog'ganda ham yoqimli, ham haybatli ohang yaraladi. Har narsa ayri un chiqara boshlaydi. Tol yoniga borsangiz, daryo shovullashini eshitasiz, sababi uning barglari uchli, uzunchoq, xuddi qayiqchaga o'xshaydi. Yomg'ir suvi ulardan oqib pastga quyiladi. *(Isajon Sulton)*	***Sarlavha:*** „Yomg'ir mo'jizasi", „Yomg'ir va tabiat". ***Asosiy fikr:*** tabiat hodisasini tasvirlash. ***Matn turi:*** tasviriy matn. ***Ijodkor mahorati:*** sinchkovlik bilan kuzatish natijasida tabiat parchalariga jon bag'ishlangan. ***Matnning tili:*** *ohang – un, yoqimli – haybatli; qushlar, daraxtlar tasviridagi sifatlar.* ***Xulosa:*** „Yomg'ir ham kuylaydi".

III. Muhokama matni va uning tahlili

Rivoyat qilishlaricha, bir odam daryo yoqalab ketayotib, kattakon yombi topib oldi. Qo‘ynidan yong‘og‘ini olib, chaqmoqchi bo‘lib uringan edi, yombi bir necha bo‘lakka bo‘linib ketdi. „Yaltiroq bo‘lgani bilan hech nimaga yaramas ekan-ku“, – deya afsuslanib, uni otib yubordi-da, qirg‘oqda qalashib yotgan oddiy toshlardan biri bilan yong‘oqni chaqib yedi hamda murod-maqsadiga yetib, o‘z yo‘liga ravona bo‘ldi. *(I. Sulton)*	***Sarlavha:*** „Har kim ehtiyojiga yarasha“ yoki „Zar qadri“. ***Asosiy fikr:*** ehtiyoj va talabning voqelik bilan bog‘liqligi yuzasidan mushohada yuritish. ***Matn turi***: muhokama matni. ***Ijodkor mahorati:*** rivoyat orqali qahramonning aql darajasi, hayot tarziga ishora qiladi. ***Matnning tili:*** *yombi – oltin bo‘lagi, quyma oltin*. ***Xulosa:*** „Farosatga yarasha mukofot“.

20.3- mashq. Berilgan matnning tahlilini tayyorlang. Uning asosiy g‘oyasi haqida fikringizni bildiring.

XXI asrda muvaffaqiyat qozonish uchun qanday ko‘nikmalar ustida ishlash kerakligini bilasizmi? „Men doimo uddalash qiyin bo‘lgan ishni qilaman. Shundagina men uni qanday bajarish mumkinligini bilib olaman“, – deb yozgan edi Pablo Pikasso.

Ishda yuksalish, baxtiyor yashash va muvaffaqiyatga erishishda quyidagi ko‘nikma va qobiliyatlarning o‘rni yuqori:

– kreativlik, ijodkorlik, ijodiy yondashuv;
– tanqidiy fikrlash;
– murakkab muammolarni hal qilishga ko‘p yechimli yondashuv;
– odamlarni boshqarish ko‘nikmasi (menejment);
– hissiy aql-zakovat (intellekt);
– muzokara olib borish qobiliyati;
– odamlar bilan o‘zaro samimiy muloqot (kommunikativlik).

Maktab partasidanoq ushbu ko‘nikmalarni egallashga va o‘rganishga urinish yorqin kelajagingiz garovi bo‘lishi mumkin. *(Internet ma’lumotlaridan)*

20.4-mashq. Berilgan matnlarni tahlil qiling. Ajratilgan birliklarni izohlang.

I. Shamol yaproqlarin qo‘ymaydi mudroq,
Xivchin nuri bilan savalaydi **shams**,
Behol badaniga soladi titroq

Daydi izg‘irinni boshlab kelgan **qavs**.
Adirda **aftoda** yashar bir daraxt… *(F. Hayit)*

II. Mavlono Rumiy hazratlaridan so‘rashdi:
– Singan ko‘ngil yana seva oladimi?
Mavlono javob berdi:
–Ha, seva oladi.
–Unda ayting-chi, singan piyolada suv ichasizmi?
Mavlono esa **nimtabassum** bilan:
–Siz piyola sindi deya, suv ichishni **tark qildingizmi**? – dedi. *(„Ibratli hikoyatlar“dan)*

20.5- mashq. Matnni o‘qing, turini aniqlang va unga sarlavha toping.

Taqdir degan bir odamning fahm-farosatda tengi yo‘q, oqila va go‘zal qizi bor ekan. Taqdir qiziga qarab: „Aql, Davlat va Umid degan uch odamdan sovchi kelyapti, qaysi biriga rozi bo‘lasan?“ – deb so‘rabdi. Shunda qiz: „Dada, aql – insondagi eng ulug‘ fazilat, aqlga suyanib turib do‘stni dushmandan, hushyorni devonadan farqlash mumkin. Lekin aqlning bir aybi bor: kishini chalg‘itib, xatarli yo‘llarga solib qo‘yishi mumkin. Davlat esa ham ishbilarmon, ham hukmdordir. Lekin davlat hech qachon, hech kimga vafo qilmaydi. Men umidni ixtiyor qilaman. Chunki umid hech qachon insonga xiyonat qilmaydi, undan ajralmaydi. Butun jahon undan manfaatdor“, – degan ekan. Biz ham o‘sha Taqdirning dono qiziga o‘xshab Umidni tanlasak, adashmaymiz. *(T. Malik)*

20.6- mashq. Uch guruhga bo‘lining. Har bir guruh quyida berilgan so‘zlardan foydalanib, matn yaratsin.

1- guruh: hikoya matni.
2- guruh: tasviriy matn.
3- guruh: muhokama matni.

***Tavsiya etiladigan so‘zlar**: mehr-oqibat, jonsarak, himmat, momaqaldiroq, to‘la-to‘kis, obod, mushtarak, avaylamoq, fidokor, jasorat, qadr-qimmat, yetakchi, olqishlamoq.*

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

20.1- topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan qolip asosida tahlil qiling.

Kundalik yuritganmisiz? Agar har kuni o‘zingizning hissiyotlaringizni, ulardan olgan saboqlaringizni yozib borsangiz, siz kundan kunga donishmand-

roq bo‘lib borasiz: hayotni anglash salohiyati shakllanadi, kamroq xato qila boshlaysiz. Shaxsiy kundalik orzularingizni peshlaydigan, tasavvuringizni mashq qildiradigan xususiy makondir. U sizning shaxs sifatida o‘sishingiz va aql to‘plashingizga ko‘maklashuvchi hamda o‘tmishni o‘rganib, uni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi moslamaga aylantiruvchi forumdir.

Shifokorlarning aniqlashlaricha, kishi shaxsiy kundaligi uchun bir kunda 15 daqiqa vaqt ajratsa, bu uning sog‘lig‘ini yaxshilaydi, immunitetini kuchaytiradi va kayfiyatini ko‘taradi.

Yodingizdan chiqarmang: sizning hayotingiz o‘ylashga arziydimi, demak, yozish kerak. *(Robin Sharma)*

Matn tahlili:

1. Sarlavha.
2. Asosiy fikr(lar).
3. Matn turi.
4. Ijodkor mahorati.
5. Matnning tili (lug‘at bilan ishlash).
6. Xulosa.

20.2- topshiriq. Siz ham kundalik tuting va unda yozadigan matnlaringizga e’tiborli bo‘ling.

MUSTAHKAMLASH DARSI

1- topshiriq. Matnni tinglang.

NOBEL MUKOFOTI

Taniqli shved ixtirochisi va tadbirkori Alfred Bernxard Nobel 1895- yilda o‘z mol-mulkini o‘limidan so‘ng fizika, kimyo, meditsina (fiziologiya), adabiyot sohasida yuksak muvaffaqiyatga erishgan olimlar va tinchlikni mustahkamlashdagi buyuk xizmatlari uchun atoqli arboblarga mukofot tariqasida berishni vasiyat qilgan edi. Bu mukofotlar 1901- yildan boshlab berib kelinmoqda. 1968- yil Shvetsiya Markaziy banki „Riksbank“ ning 300 yilligi munosabati bilan va Nobel xotirasiga chuqur ehtirom sifatida iqtisodiyot bo‘yicha ham mukofot ta’sis etildi. Hozirgi davrda mavjud oltita **nominatsiya**dan beshtasi Shvetsiya Qirollik **akademiya**si, tinchlik bo‘yicha mukofot esa Norvegiya (Oslo) qo‘mitasi tomonidan

berib kelinmoqda. **An'ana**ga ko'ra, qaror Alfred Nobel tavallud topgan oktabr oyida e'lon qilinadi va u vafot etgan 10-dekabr sanasida tantanali ravishda topshiriladi.



Har bir mukofot Nobel **fond**idagi pul miqdoriga qarab o'zgarib turadi. 2019-yilgacha 887 kishi (ular orasida 49 nafar ayol) va 24 ta tashkilot Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. *(Muzaffar Qosimov)*

2-topshiriq. Dars davomida quyidagi savollarga javob toping:

1. Olim o'z mukofoti qaysi fan vakillariga berilmasligini vasiyat qilgan?
2. Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan mashhur insonlardan kimlarni bilasiz?

3-topshiriq. Quyidagi izohlardan matnda ajratilgan so'zlarning lug'aviy ma'nosini aniqlab, imlosini yodda tuting.

1) davlat, muassasa va shu kabilarning muayyan maqsad uchun ajratilgan puli, mablag'i, moddiy boyliklari; jamg'arma; qat'iy, barqaror daromad keltiruvchi qimmatbaho qog'ozlar; 2) hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar; 3) kredit-moliya muassasasi; 4) ilm-fan yoki san'atni rivojlantirishga hissa qo'shgan malakali olimlariga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa; 5) ijodkorlik, ish-faoliyat sohasi bo'yicha musobaqa-tanlovlarga nomzodlar ko'rsatish va g'olibni aniqlash jarayoni.

4-topshiriq. Matnni o'qing. Noto'g'ri qo'llangan qo'shimchalarni topib, tahrir qiling va ko'chiring.

Dunyoni g'aroyib mukofotlaridan biri Shnobel (Ignobel) mukofoti bo'lib, u nufuzdor Nobel mukofotini teskarisi sanaladi. Bu mukofot 1991-yilda ta'sis qilingan va shubhalik, hayotga qo'llanilmaydigan ilmiy kashfiyotlar uchun beriladi. Qizig'i shundaki, g'olibga nominantlarning soxta va kulgili ilmiy yutuqlari mohiyati aks etgan haykalcha hamda allaqachon muomaladan chiqarilgan 10 trillion Zimbabve dollari topshiriladi. (*Internet ma'lumotlaridan*)

5-topshiriq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Tinish belgisi to'g'ri qo'llangan gapni aniqlang.

A. Hozirgi davrda mavjud oltita nominatsiyadan beshtasi Shvetsiya Qirollik akademiyasi, tinchlik bo'yicha mukofot esa, Norvegiya (Oslo) qo'mitasi tomonidan berib kelinmoqda.

B. Har bir mukofot Nobel fondidagi pul miqdoriga qarab; o‘zgarib turadi.

C. Nobel o‘z mol-mulkini o‘limidan so‘ng fizika, kimyo, meditsina (fiziologiya), adabiyot sohasida yuksak muvaffaqiyatga erishgan olimlar va tinchlikni mustahkamlashdagi buyuk xizmatlari uchun atoqli arboblarga mukofot tariqasida berishni vasiyat qilgan edi.

D. Nobel mukofoti har yili 10-dekabr sanasida – o‘z egalariga topshiriladi.

2. Qaysi gapning mazmuni fikrlar zanjiridan uzilib qolgan?

A. O‘z zakosi bilan dunyoni lol qoldirgan olima ayol Mariya Kyuri 1903-yilda radioaktivlik hodisasini kashf qilgani uchun fizika yo‘nalishida, 1911-yilda esa poloniy va radiy elementlarini kashf qilganligi uchun kimyo yo‘nalishida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

B. Hozirgi vaqtda Nobel mukofotining qiymati 10 million shved kronasi (1,3 million AQSH dollari) ga teng.

C. Tinchlikni mustahkamlash yo‘lidagi faoliyat uchun Nobel mukofotini Norvegiya Parlamentining Nobel qo‘mitasi beradi, qolgan hamma mukofotlar shaxsan topshiriladi.

D. Alfred Nobelning Beatrisa Chenchi haqida „Nemeziada“ nomli 4 aktdan iborat she’riy pyesa yozgani ma’lum. (*M.Qosimov*)

6-topshiriq. Matndagi qo‘shma gaplarni aniqlab, sodda gaplarga aylantiring. Tinish belgilarining qo‘yilishi sababini izohlang.

Matematika fanisiz bugungi taraqqiyotni tasavvur qilish imkonsiz. Barcha zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, kompyuter, internet, mobil telefonlari matematik hisob-kitoblarsiz, raqam-u amallarsiz kashf etilmas edi. Shunga qaramay, jahonda ilm-fan sohasida eng nufuzli sanalgan Nobel mukofoti matematiklarga taqdim etilmaydi.

Alfred Nobelning sevgan qizi matematik yigitni tanlagani uchun olim alam ustida matematiklarni mukofotdan mahrum qilgan, degan asossiz cho‘pchak keng tarqalgan. Taxminlarga ko‘ra, o‘sha davrning mashhur olimi Mittag Leffler qirol Oskar II ga murojaat qilib, matematiklar uchun oliy mukofot ta’sis ettirgan va Nobelda bu soha vakillari uchun alohida nominatsiyaga zarurat yo‘qligi haqida fikr uyg‘ongan. Shuningdek, Nobel matematika fanini o‘ta nazariy va mavhum fan deb hisoblagan hamda o‘z mukofotini amaliy yutuqlar uchungina berilishini istagan.

Zamonamizning mashhur matematik olimlaridan Bertrand Rassel adabiyot, Maks Born va Jon Nesh iqtisodiyot yo‘nalishida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlar. (*„Matematika.uz“ saytidan*)

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qo‘shimchalarni tanlash va o‘z o‘rnida qo‘llash nutq madaniyatiga qay darajada ta’sir ko‘rsatadi?

2. Tinish belgilari bilan bog‘liq me’yorlarning ahamiyati nimada?

3. Gap juftliklari mazmunidagi farqni aniqlang:

A. Anhor suvi oy nurida jilvalanadi. – Anhor suvida oy nuri jilvalanadi.

B. Yomg‘irdan so‘ng osmon moviy tusga kirdi. – Yomg‘irdan so‘ng osmonga moviv tus kirdi.

C. Bog‘bon nevarasining yelkasini qoqib qo‘ydi. – Bog‘bon nevarasining yelkasiga qoqib qo‘ydi.

D. Mehmon eshikni astagina chertdi. – Mehmon eshikka astagina chertdi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1-vazifa. Dinamit ixtirosi tufayli boyib ketgan, aslida, tinchliksevar bo‘lgan Alfred Nobel mablag‘ini nima uchun beshta soha vakillari kashfiyotiga bag‘ishladi deb o‘ylaysiz?

2-vazifa. Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan shoir yoki yozuvchilardan bir nafari haqida ma’lumot toping.

NAZORAT ISHI

21-mavzu. ISH QOG‘OZLARI BILAN ISHLASH

Nazariy matn

Har bir ish hujjatining o‘z qolipi bor. Ularga qat’iy rioya qilish zarur.

Bu hujjatlarni yozishda ularning tegishli namunalari tartibidan chiqib ketmaslik kerak. Namunalar muayyan mantiqqa asoslangan bo‘ladi.

21.1-mashq. *Bayonnoma* matni bilan tanishing. Hujjatning tarkibiy qismlari va imlosiga diqqat qiling.

Toshkent viloyati Piskent tumani 41-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
11-„A“ sinf majlisining 8-sonli

Bayonnomasi

20.04.2020 „Fayzobod“ MFY

Majlis raisi – Jo‘rabekova Cho‘lpon
Kotiba – Mirzayeva Hadichabonu

Qatnashdi: 11-„A“ sinfning 26 nafar o‘quvchisi
Hasanov Xurramshoh – Yoshlar ittifoqi yetakchisi

Kun tartibi:

1. „Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanidan olgan taassurotlarim“ mavzusida o‘tkazilgan insholar tanlovining natijasi.
2. Internetdan foydalanish madaniyati to‘g‘risida.

1-masala yuzasidan eshitildi:

Jo‘rabekova Cho‘lpon – sinf rahbari, majlis raisi:

– Millatimiz faxri Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ asari o‘zbek romanchilik maktabiga asos soldi. Yozuvchi asarda tarixning eng chirkin paytlarida ham millat hayotida yuksak ma’naviyatli yorqin shaxslar va yorug‘ jihatlar bo‘lganligini aks ettiradi. O‘z davrida „O‘tkan kunlar“ romanini o‘qish uchun navbat kutib turganlarning sanog‘iga yetib bo‘lmas, asarni to‘la yodlab olgan kitobxonlar ham bor edi. Atoqli adibimiz tavalludi munosabati bilan „Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanidan olgan taassurotlarim“ mavzusida o‘tkazilgan insholar tanlovida 20 nafar o‘quvchining ijodiy ishi ko‘rib chiqildi va baholandi.

So‘zga chiqdilar:

1. Hasanov Xurramshoh – Yoshlar ittifoqi yetakchisi:

– „O‘tkan kunlar“ romanidan olgan taassurotlarim“ mavzusidagi insholar ishchi guruh tomonidan o‘rganib chiqildi. Har bir o‘quvchi romandan olgan taassurotini ifodalab berishga harakat qilgan. Barcha insholar 100 balli tizimda baholandi.

2. Rustamova Robiya – kutubxonachi:

– Maktab kutubxonasi bilan hamkorlikda tashkil qilingan insholar tanlovi juda qiziqarli o‘tdi. Har bir ishtirokchining ijodkorligi tahsinga loyiq. G‘olib o‘quvchi tanlovning umummaktab bosqichida qatnashish uchun tavsiya qilinadi.

1- masala yuzasidan qaror qilindi:

1. „Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanidan olgan taassurotlarim“ insholar tanlovining g‘oliblari sifatida quyidagi o‘quvchilar ko‘rsatilsin:

I o‘rin – Omonboyeva Zebiniso.

II o‘rin – Ubaydullayeva Durdona.

III o‘rin – Bekova Pokiza.

2. Insholar tanlovi g‘oliblari Yoshlar ittifoqining Faxriy yorliqlari va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlansin.

3. O‘quvchilar orasida badiiy adabiyotga qiziqishni orttirish, kitobxon yigit-qizlarni rag‘batlantirish ishlari davom ettirilsin.

2- masala yuzasidan eshitildi:

Hasanov Xurramshoh – Yoshlar ittifoqi yetakchisi:

– Bugungi kunda jahon maydonida xalqaro xavfsizlik masalasi bilan bog‘liq yangicha oqimlar va vaziyatlar, yangi tahdidlar paydo bo‘layotganini har birimiz teran anglab, chuqur his qilib, yanada hushyor va ogoh bo‘lib yashashimiz lozim. Ayni paytda har bir xonadonda, o‘quv dargohida, korxonada, ko‘cha-ko‘yda kompyuterlar bor va ular Internetga ulangan. Endilikda odamlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘z uyida turib, dunyoning turli nuqtalarida qanday voqealar yuz berayotganini nafaqat eshitish, balki ko‘rib-kuzatish va munosabat bildirish imkoniga ega. Globallashuv jarayonida ba’zi davlatlar yoki markazlar boshqa mamlakatlarga o‘z siyosatini, mafkurasini singdirishga va o‘ziga tobe qilib olishga intiladi. Bunda „nishon“ bo‘lgan mamlakat xalqining na milliy qadriyatlari, na urf-odatlari e’tiborga olinadi, na din-diyonati, imon-e’tiqodi, xohish-irodasi bilan hisoblashiladi.

So‘zga chiqdi:

Saidahmedov Muzaffar – sinf sardori:

– Juda to‘g‘ri fikr bildirildi. Kundalik hayotimizni Internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Aynan Internet ta’limning texnologik asosiga aylanib bormoqda. Biz Internet bozoridan faqat o‘zimiz uchun kerakli ma’lumotni olishimiz, axborotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz zarur. Hamma gap axborot

resurslaridan qanday foydalanishga bog‘liq. Ma’lumotni tanlash va uni saralab o‘rganish lozim. Tarmoqni taqiqlash, undan illat izlash bilan ovora bo‘lmasdan, aksincha, uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2- masala yuzasidan qaror qilindi:

1. Internetdan to‘g‘ri foydalanishga doir targ‘ibot ishlari kuchaytirilsin.
2. O‘quvchilarning elektron axborotlar bilan ishlash savodxonligini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlik samarali yo‘lga qo‘yilsin.

Majlis raisi: (*imzo*) Jo‘rabekova Cho‘lpon
Kotiba: (*imzo*) Mirzayeva Hadichabonu

21.2- mashq. *Bayonnoma* matnining tarkibiy qismlari bilan tanishing.

Zaruriy qismlar:	
1	Muassasa nomi
2	Sarlavha (yig‘ilishning nomi)
3	Shartli raqami
4	Hujjatning nomi (Bayonnoma)
5	Yig‘ilish sanasi
6	Yig‘ilish joyi
7	Tasdiqlash belgisi (tasdiqlanishi zarur bo‘lsa)
8	Yig‘ilish raisi va kotib(a)ning ism-sharifi
9	Matn: a) qatnashuvchilar ro‘yxati yoki soni; b) kun tartibi; c) „eshitildi“; d) „so‘zga chiqdi(lar)“; e) „qaror qilindi“.
10	Ilovalar (agar ular mavjud bo‘lsa)
11	Imzolar

Yodda tuting!

Zaruriyat tufayli majlisda qabul qilingan qarordan ko‘chirmalar rasmiylashtiriladi. Bayonnomadan ko‘chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi. Ba’zan bayonnomadan ko‘chirmalarda yig‘ilishda qatnashuvchilarning ro‘yxati yoki soni, shuningdek, ko‘rilgan masala bo‘yicha muhokamada ishtirok etganlarning familiyasi ham qayd qilinadi. Bayonnomaning matn qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo‘lgan qismigina ko‘chiriladi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo‘lsa, kerakli masala bo‘yicha qabul qilingan qarordan ko‘chirma olinadi.

21.3-mashq. *Bayonnomadan ko‘chirma* matni bilan tanishing. Hujjatning tarkibiy qismlari va imlosiga diqqat qiling.

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
pedagogik kengashi majlisining 5-sonli

Bayonnomasidan ko‘chirma

24.03.2020 „Do‘stlik“ MFY

Kun tartibi:

3-masala. Dadaboyeva Shohistaga umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi shahodatnomaning dublikatini berish to‘g‘risida

Eshitildi:

Usmonqulova Laylo – maktab direktori, majlis raisi:

– Dadaboyeva Shohista Anvarjon qizi bizning ta’lim muassasamizni 2016-2017-o‘quv yilida bitirgan hamda unga U № 0045583 raqamli shahodatnoma berilgan. Sobiq o‘quvchimiz shahodatnomani yo‘qotib qo‘ygani sababli mazkur hujjatning dublikatini tayyorlab berishda amaliy yordam ko‘rsatishimizni so‘rab murojaat qildi.

Qaror qilindi:

1. Navoiy viloyati Xatirchi tumani 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi tomonidan Dadaboyeva Shohista Anvarjon qiziga 14.06.2017-yilda berilgan U № 0045583 raqamli shahodatnoma yo‘qolganligi sababli dublikatini tayyorlab berish tuman Xalq ta’limi bo‘limidan so‘ralsin.

2. Shahodatnoma dublikatini qabul qilib olish, uni aslidek to‘ldirish va egasiga topshirish o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari Yunusova Surayyo zimmasiga yuklatilsin.

Majlis raisi: *(imzo)* Usmonqulova Laylo
Kotiba: *(imzo)* Samadova Saida

Asliga to‘g‘ri *(muhr)*

21.4- mashq. *Bayonnomadan ko‘chirma* matnining tarkibiy qismlari bilan tanishing.

Zaruriy qismlar:	
1	Muassasa nomi
2	Sana (majlis sanasi)
3	Shartli raqami
4	Hujjatning nomi (Bayonnomadan ko‘chirma)
5	Bayonnoma tuzilgan joy
6	Matn: a) kun tartibi; b) „eshitildi“; d) „qaror qilindi“.
7	Imzolar
8	Nusxa tasdiqlanganligi haqida belgi (muhr bilan)

21.5- mashq. Berilgan shaxsiy va rasmiy xat namunalari bilan tanishib chiqing. Ularning o‘xshash va farqli tomonlarini VENN diagrammasida ifodalang.

Hurmatli Anvar aka, assalomu alaykum.

Hammamiz sog‘ va salomatmiz. Kelin oyim orqaliq berib yuborg‘an xatingizni oldiq, sog‘lig‘ingizni, tinchlig‘ingizni o‘qib va eshitib juda xursand bo‘ldiq: ilohi, salomat bo‘lsinlar. Soniy (*ikkinchidan*), bizdan ahvol so‘rasangiz, alhamdulillah, tinchmiz, xotirjam bo‘lursiz. So‘ratib yuborg‘an kitobingizni berib yubordim. Ayamdan sizga salom, boqiy so‘zni Shayxi Sa’diydan o‘qursiz, deb xatni muxtasar (*qisqa*) qildim.

Ra’no. (A.Qodiriy, „Mehrobdan chayon“ romanidan)

***

Sevimli farzandimiz, ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati,
hayotimiz davomchisi Akbarxon!

Avvalo, Yaratgandan senga omonlik va salomatlik tilagan holda ushbu xatni yozyapmiz. O‘g‘lim, sog‘-salomat yuribsanmi? Harbiylik hayoti qiynamayaptimi? Ham xizmat, ham o‘qish toliqtirib qo‘ymayaptimi?

Bizdan aslo xavotir olmagin. Onajoning ham, uka-singillaring ham omonlikda yurishibdi. Duoyi joningni qilib, yo‘lingga ko‘z tikib o‘tiribmiz. Bahorda qaytaman, deganing uchun kun sanayapmiz, bolam. To‘ng‘ichimiz bo‘lganing sabab senga juda suyanib qolgan ekanmiz. O‘z yigitlik burchingni bajarib, yuzing yorug‘ bo‘lib, uyga qaytgin, askar o‘g‘lim.

Diydoringni intizorlik bilan kutayotgan otang va onang.

***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Muhtaram Prezident Janoblari!

Sizga va 2020-yil 1-may kuni Sardoba suv omborining to‘g‘oni qisman qulashi oqibatida jabrlanganlarga hamdardlik bildiraman. Suv ostida qolgan uylar, ko‘chirilgan aholi, vayron bo‘lgan yo‘llar va fermer xo‘jaliklari tasvirini ko‘rish qalbni larzaga soladi.

Shaxsiy e’tibor va tezkor choralar ko‘rish orqali Siz yetakchilik xususiyatlarini namoyish etdingiz. Davlat departamenti va AQSH Xalqaro Taraqqiyot Agentligi ham ushbu fojiaga javoban darhol chora ko‘rdilar va ko‘mak ko‘rsatishga qaratilgan sa’y-harakatlarimiz uchun mablag‘ ajratdilar.

Amerika Qo‘shma Shtatlari ushbu mushkul paytda O‘zbekiston va uning xalqiga yelkadoshdir. Dunyo hamjamiyatida munosib o‘ringa ega mamlakatingiz bilan hamkorlik aloqalarini davom ettirishga doim tayyormiz.

Hurmat bilan Donald Tramp,
Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti („Rasmiy xabarlar“dan)

***

Alisher Navoiy nomidagi
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
rektoriga

So‘rovnoma

Sizdan 2018-yil 20-iyunda Davronova Ra’no Sobirovna nomiga berilgan K № 1441 raqamli diplomning haqiqiy yoki haqiqiy emasligi yuzasidan aniq ma’lumot berishingizni so‘rayman.

Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahri
5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori: (*imzo*) *Azimov Botirjon*

2020-yil 20-may

21.6-mashq. *Tavsiyanoma* namunalari bilan tanishib chiqing. Mustaqil tarzda hujjatning tarkibiy qismlari qolipini tayyorlang, imlosiga diqqat qiling.

Tavsiyanoma

Men, Yo‘ldoshev Farhod, 1967-yilda tug‘ilganman, hozirda Xalqaro „Navro‘z“ xayriya jamg‘armasining Xorazm viloyati bo‘limi raisi bo‘lib ishlayman.

Nazarov Sobir O‘ktam o‘g‘lini 2015-yildan beri yaxshi bilaman. U – chuqur bilimli, yuksak salohiyatli olim. Oila a’zolari, mahalladoshlari, kasbdoshlari bilan munosabatlarda samimiy, kamtar va shirinsuxanligi bilan ajralib turadi. Nazarov Sobir Urganch shahrining „Bog‘ishamol“ mahallasida o‘tkaziladigan barcha tadbirlarda faol qatnashadi.

Nazarov Sobir O‘ktam o‘g‘li shaxsiy manfaatlaridan xalq va davlat manfaatlarini ustun ko‘rishini jamoamiz yaxshi biladi va tasdiqlaydi. U har qanday mas’uliyatli vazifani a’lo darajada bajarishiga to‘la ishonaman.

2020-yil 18-iyun (*imzo*) *F. Yo‘ldoshev*

Tavsiyanoma

Men, Begmatov Komiljon, 1966-yilda tug‘ilganman, hozirda Piskent tuman „Mikrokreditbank“ boshqaruvchisi vazifasida ishlayman.

Ilhomov Azizjon Botirjon o‘g‘li 2017-yildan buyon bank jamoasida faoliyat yuritadi. U o‘z sohasining bilimdoni sifatida barchaning hurmatini qozongan. Oliy

ma'lumotli bu mutaxassis mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishda yetarlicha moliyaviy savodxonlikka ega. Shuningdek, kasbiy salohiyatini shaxsiy manfaatlaridan ustun ko'rishini jamoa a'zolari yaxshi biladi va tasdiqlaydi.

Ilhomov Azizjon Botirjon o'g'lini kredit bo'limi boshlig'i vazifasiga tavsiya qilaman.

2020-yil 18-iyun (*imzo*) *K.Begmatov*

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Rasmiy va shaxsiy hujjatlarning tili va uslubi qanday bo'ladi?
2. Elektron hujjatlar „Maykrosoft!" („*Microsoft*")ning qaysi dasturlarida tayyorlanadi?
3. Berilgan ish qog'ozlarini tarkibiy qismlari joylashuviga ko'ra jadvalga joylashtiring.

E'lon, tabriknoma, shartnoma, tavsifnoma, ariza, bayonnoma, dalolatnoma, hisobot, taklifnoma, tilxat, ishonchnoma, bildirishnoma, tushuntirish xati, faks, taqriz, buyruq, rezyume, tarjimayi hol, so'rovnoma.

Sodda ish qog'ozlari	Murakkab ish qog'ozlari

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

21.1-topshiriq. Matnni o'qing. Unda qanday hujjat haqida gap ketgan? Ramziy timsollarni izohlab, masalga o'z munosabatingizni bildiring.

Xo'rlikdan jon kelib hiqildog'iga,
Sher nomiga Quyon yozdi arzi hol:
„Ey panohim, botdi g'am botqog'iga
Bo'sh-bayovlar ko'rib Bo'ridan zavol.
Tun-u kun ichsa ham, yesa ham tinmay,

Momaqaldiroqdek dahshatdir, dahshat!
Tokay quturar u nafsini tiymay?
Tokay jonivorlarni g‘ajiydi behad?!“
Sherga bu arzi hol yetgani zamon
Ayiqqa yukladi hal etishni u.
Ayiq esa esnab, kerishib dedi:
„Aytgancha, u yerning piri – Bo‘ri-ku,
Yaxshisi, bu ishni o‘sha hal qilsin.
Ha, u ishonchimga loyiq ham ulug‘!“ –
Deya buyruq berdi yassilab tilin.
Bo‘riga yetgach bu antiqa buyruq,
Quyonga o‘shqirdi g‘ijirlatib tish:
„Hm… Hali Sherga arz qildim ham degin!
Ol-a, sen pastkashga Sher ishonarmish.
Meni yo‘qotishning qilarmish evin.
Bilib qo‘y, sen yozgan arz menda, mana!!!
Masalangni o‘zim qilarkanman hal.
Bor, ustimdan arz qil yana, xomkalla!“
„Bundoq bo‘lishini bilsaydim avval,
Kirdikoringizdan ochmasdim og‘iz…“ –
Deya qaltiradi zorlanib Quyon.
„Ah yuvosh qochag‘on…“ Bo‘ri yalmog‘iz
Etdi shu zumdayoq sho‘rlikni gumdon.

(Yamin Qurbon)

21.2- topshiriq. Masalda ko‘tarilgan mavzu qay darajada dolzarb? O‘z munosabatingizni hayotiy voqealar asosida yozma bayon qiling.

YIL DAVOMIDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

1- topshiriq. Matnni o‘qing. Hikoyat mazmuni haqidagi xulosangizni bayon qiling.

Bir hushyor hunarmand yigit bor edi,
Notiq-u mardona, aqli yor edi.

Sohibdil, **haqparast** pokiza oti,
Xattotlar chizgandek **orazin xati**.

Lug‘atdon, **tilshunos** bilimi yetuk,
Ammo „sh“ tovushin aytolmas tuzuk.

Suhbatdoshim edi bir oqil kishi,
Dedim: „Falonchining yo‘qmi old tishi?“

Gapimdan baxmaldek qizarib yuzi,
Dedi: „Unday dema, nodonlar so‘zi.

Birgina aybini ko‘rib qolibsan,
Yuz **fazlidin** ko‘zing yumib olibsan!“

Birov **ilmdon**-u bo‘lsa tadbirkor,
Nogoh toyib ketsa oyog‘i **yakbor**.

Kichik bir xatoga gapirma qo‘pol,
Ulug‘lar demishlar: „Yaxshilikni ol!“

Birga o‘sadi-ku tikan birla gul,
Ey oqil, tikanmas, gulni dasta qil.

(Sa’diy, „Bo‘ston“dan)

2- topshiriq. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ma’nosini izohlang.

3- topshiriq. Oxirgi bayt uchun eng maqbul fikrni topib, izohlab yozing.

1. Gul tikansiz bo‘lmas, dur – sadafsiz.
2. Gul tilagan xor jafosin chekar.
3. Tikanini olib tashlab, guldasta tayyorla.
4. Har narsadan yaxshilikni qidir.

4- topshiriq. Testlarni yeching va javobingizni izohlang.

1. Berilgan tinish belgili qolip qaysi misralarga mos keladi:

_____,
_____: „_____!“

A. Sohibdil, haqparast pokiza oti,
Xattotlar chizgandek orazin xati.
B. Suhbatdoshim edi bir oqil kishi,
Dedim: „Falonchining yo‘qmi old tishi?“
C. Dedi: „Unday dema, nodonlar so‘zi.
Birgina aybini ko‘rib qolibsan,
Yuz fazlidin ko‘zing yumib olibsan!“
D. Kichik bir xatoga gapirma qo‘pol,
Ulug‘lar demishlar: „Yaxshilikni ol!“

2. *Shirin yuzingdan shirin so‘zing a’lo* maqoli qaysi gapning ixcham shakli bo‘la olishini toping.

A. Sukut saqlagan kishini bevoqif, ko‘p gapirgan kishini aqlli deb bilma.
B. Boshqalarga quloq tut, biroq aytgan gaplarining barini to‘g‘ri deb o‘ylama.
C. Agarda boshqalar haqida hech qanday yaxshi so‘z aytolmasangiz, gapirmay jim turganingiz ma’qul.
D. Odamlarda yaxshi taassurot qoldirmoqchi bo‘lsangiz, suhbatni chiroyli tugatishga harakat qiling.

5- topshiriq. Quyida berilgan fikrlarning mag‘zini chaqing va yod oling.

Burgutni cho‘qishga haddi sig‘adigan yagona qush – bu qarg‘a. U burgutning yelkasiga qo‘nib, bo‘ynini cho‘qiy boshlaydi. Ammo mag‘rur qush bunga e’tibor

bermaydi, qarg‘a bilan kurashmaydi, kuchini bekorga sarflamaydi. U shunchaki, qanotini keng yoyib, tepaga – osmon-u falakka parvoz qiladi. Burgut balandlagani sari qarg‘a nafas olishga qiynalib, oxiri qulab tushadi.

Odam o‘z maqsadi sari harakat qilganida kim bilandir bahslashishga yoki kimgadir biror nimani isbotlashga hojat yo‘q. Maqsad qo‘ydingizmi, demak, reja qilgan ishning yarmini bajaribsiz. Endi ortga qaramasdan, qolganini ham amalga oshirish uchun harakatdan to‘xtamang. Oldinga qarab intiling, yo‘lda davom eting, shunda hamma to‘siqlar o‘z-o‘zidan qulay boshlaydi.

Mustaqil hayotda sobitqadam bo‘ling.

6-topshiriq. O‘zingizni suxandon sifatida tasavvur qilib, „***Hayotda sobitqadam bo‘laman***“ mavzusida kichik matn yarating. Unda quyidagi hikmatli so‘z va ibratli fikrlardan foydalanishga harakat qiling.

Daqiqalar, kunlar sekin o‘tadi, yillar esa tez o‘tar ekan.

(O.Madayev)

Ba’zan insonning ishlari ortga ketsa, noumid bo‘lmasligi kerak. Axir, kamon o‘qi ham oldinga otilishdan avval biroz ortga tisariladi

(„Hikmatlar saodatga yetaklar“ kitobidan)

MUNDARIJA

I FASL. TALAFFUZ VA IMLO ME'YORLARI

1-*mavzu.* Talaffuz va imlo....3
2-*mavzu.* Nutqda o'zgaruvchi unlilar....7
3-*mavzu.* Nutqda o'zgaruvchi undoshlar....10
4-*mavzu.* Matn va lug'at bilan ishlash....13
5-*mavzu.* Urg'u talaffuzi....16
6-*mavzu.* Qo'shib yoziladimi, ajratib?....19
7-*mavzu.* Matn va lug'at bilan ishlash....23

II FASL. SO'Z QO'LLASH ME'YORLARI

8-*mavzu.* Nutqda o'rinli va noo'rin so'zlar....26
9-*mavzu.* Nutqdagi taqiqlar....30
10-*mavzu.* Evfemizm va disfemizmlar....34
11-*mavzu.* Olmoshlar uslubiyati....38
Mustahkamlash darsi....42
12-*mavzu.* Matn va lug'at bilan ishlash....46

III FASL. BARQAROR BIRIKMALAR – NUTQIMIZ KO'RKI

13-*mavzu.* So'z va ibora teng emas....48
14-*mavzu.* Maqolni o'rinli qo'llash....51
15-*mavzu.* Tasviriy ifoda – ko'tarinki nutq vositasi....55

IV FASL. MADANIY NUTQNING GRAMMATIK VA PUNKTUATSION ME'YORLARI

16-*mavzu.* Ortiqcha qo'shimchalar....59
17-*mavzu.* Qo'shimchalar tanlovi....63
18-*mavzu.* Nutqda shakl va mazmun mosligi....66
19-*mavzu.* Tinish belgilarini to'g'ri qo'llash....69
20-*mavzu.* Matn va lug'at bilan ishlash....74
Mustahkamlash darsi....78
21-*mavzu.* Ish qog'ozlari bilan ishlash....81

YIL DAVOMIDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

74.263
T 44

B. Mengliyev va b.
Ona tili. 2-qism. [Matn]: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik / Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva, Saida Majidova, – Toshkent: „O‘qituvchi“ NMIU, 2020. – 96 bet.

ISBN 978-9943-22-460-5 UO‘K 811.512.133(075.32)
KBK 74.263
T 44

Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva,
Saodat Atoyeva, Saida Majidova

ONA TILI

2-qısm

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi
uchun darslik

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2020

Muharrir *N. Rustamova*
Badiiy muharrir *Sh. Toshturdiyev*
Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*
Musahhih *E. Najimova*
Kompyuterda sahifalovchi: *Sh. Sobirova*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0040. 10.12.2019. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 19.08.2020. Bichimi 70×90 1/16. Kegli 12 shponli. Calisto garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 7.02. Hisob-nashriyot t. 6,0. Adadi 497 987 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1-uy.
Shartnoma № 20–20.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchi-ning ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.